

336/07  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

H.I. BOYEV

# MOLIYA VA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jang'armasi nashriyoti  
Toshkent – 2005

336(075)  
B-81

Bayev X.I., Moliya va qimmatli qog'ozlar bozori. O'quv qo'llanma -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. 104 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada moliya bozoriga ta'rif berilgan, qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati va xususiyatlari, uning funksiyalari, klassifikatsiyasi, a'zolari tahlil etilgan.

Shular bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish, fond birjalari, birlamchi va ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori, undagi moliyaviy vositachilar, pul bozori, valyuta bozori, fond bozori, fyuchers va opsiyon, investitsiya va sug'urta, ssuda kapitali bozorlari keng yoritilgan.

Bu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurti talabalariga, kollej, litsey va shu sohaga qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma 53400700 "Bank ishi", 534800 "Soliq va soliqqa tortish", 5340900 "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan kollej, litsey, talabalar, magistrantlar, aspirantlar va izlanuvchilarga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

**G.N. Axunova,**  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti qoshidagi  
malaka oshirish instituti direktori,  
Iqtisod fanlari doktori, professor.

**Taqrizchi:**

**M.I. Alimardonov,**  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti  
"Moliya va soliqlar" kafedrasini mudiri,  
iqtisod fanlari doktori, professor.


**Ekspertlar:**

**O. Abduvaxobov,**  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti ichki nazorat  
monitoring bo'limi boshlig'i,  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;  
**N.M. Xudoyorov,**  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti  
"Sug'urta ishi, qimmatli qog'ozlar bozori"  
kafedrasini o'qituvchisi.



© O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.

637483



Боев Х.И. Финансы и рынок ценных бумаг. Учебном пособие. -Т.:  
Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2005. 104 с.

В учебном пособие «Финансы и рынок ценных бумаг» автор дал определение финансового рынка и его структуры, рассмотрел сущность рынка ценных бумаг, его функции, классификации и участники рынка ценных бумаг.

А также в учебном пособие рассмотрено регулирование рынка ценных бумаг, фондовые биржи, первичной и вторичной рынок ценных бумаг, денежный рынок, валютный рынок, фондовая биржа, фьючерс и опционы, инвестиции и страховой рынок, рынок ссудного капитала и другие актуальные проблемы в этом области.

Настоящее учебное пособия рассчитано для студентов высшей учебной заведения, колледжей, лицей и для специалистов работающих в этом области.

**Ответственный  
секретарь:**

**Г.Н.Ахунова,**  
директор института повышения квалификация  
при ТГЭУ, доктор экономических наук,  
профессор.

**Рецензент:**

**М.И.Алимарданов,**  
зав. кафедры «Налог и страхование» в ТГЭУ,  
доктор экономических наук, профессор.

**Эксперты:**

**О.Абдувахобов,**  
начальник отдела мониторинга внутреннего  
контрля ТГЭУ, к.э.н., доцент.  
**Н.М.Худаяров,**  
преподаватель Ташкентский Государственный  
Экономический Университет.

Boyev X.I. Financial market and securities. Textbook. -T.: pub. LFUWU 2005, 104 b.

In the textbook "Financial market and securities" there is the meaning of financial market, essence and bases of securities, their functions and classifications.

At the same time making order of securities, stock-markets, firstly and secondly securities, financial connections of it, monetary market, currency market, fund market, features and option, investment and insurance, lean of capital are widely shown.

The course of this text-book is intended for the student of colleges, liceums, higher education establishments, as well as scientific researches.

**Responsible person**            **G.M.Ahunova,**  
The Director of enhancement of qualification at Tashkent University of Economics, doctor of Economic sciences.

**Reviser:**                            **M.I.Alimardonov,**  
Professor of Tashkent state Economic University, the chair "Finance and Tax", doctor of Economy sciences.

**Experts:**                           **O.Abdurahobov,**  
the manager of monitoring department  
Tashkent state University of Economics,  
candidate of Economic sciences;

**N.M.Hudoyorov,**  
Tashkent state Economic University  
Insurance work, the chair of the market of stocks.

## KIRISH

**Fanni o'rganishning dolzarbligi.** Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bir necha asrlardan beri o'qitilib kelinmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganligi va jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvi, horijiy mamlakatlar moliya va investitsiyalarining respublikamizga kirib kelayotganligi hamda davlat mulkini xususiylashtirish korxonalar aksionerlik jamiyatlariga aylantirilayotganligi natijasida moliya bozorini biladigan va qimmatli qog'ozlar bilan ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash uchun «Moliya va qimmatli qog'ozlar bozori» fani oliy o'quv yurtlarida uqitilmoqda.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni liberallashtirish, chuqurlashtirish va modernizatsiyalashda moliya va qimmatli qog'ozlar bozori tizimini ham isloh qilish muhim o'ringa egadir. Zero, Prezidentimiz I.A. Karimov boshlangan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar haqida to'xtalib, 2006 yilgi ustuvor vazifa sifatida qimmatli qog'ozlar bozorini ham isloh qilish, bu bozorga qiziqishni orttirish va uning ishtirokchilari daromadlarini kopaytirish maqsadida dividendlar bo'yicha daromad solig'i 15 foizdan 10 foizga tushirilishi haqida ta'kidlab o'tdi.

O'quv qo'llanmada moliya bozoriga ta'rif berilgan, uning tarkibiy qismlari haqida fikr yuritilgan, qimmatli qog'ozlar bozorining vujudga kelishi, pul bozori, valyuta bozori, fond bozori, ssuda kapitali bozori, investitsiya bozori, sug'urta bozori va boshqa bozorlar haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

**Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarining qiyosiy tahlili.** Muallif tomonidan tayyorlanayotgan o'quv qo'llanmada Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining qonunlarini chuqur o'rgangan holda, horijiy iqtisodchilar Dj. R. Xiks. «Стоимость и капитал» asarini, Rossiyalik mualliflar Ya.M. Mirkin «Ценная бумага и фондовый рынок» va O'zbekistonlik akademik S.S. Gulomovning «Valyuta, moliya, kredit, bank va sug'urta muammolari» o'quv qo'llanmasini H.I. Boyevning «Moliya va qimmatli qog'ozlar bozori» fani bo'yicha ma'ro'za matnlarini tahlil etib, ushbu o'quv qo'llanmani tayyorladik.

Tayyorlangan o'quv qo'llanmada horijiy adabiyotlar, hamdo'stlik mamlakatlari olimlarining kitoblari, mahalliy mualliflarning darslik va o'quv qo'llanmalarini o'rgangan holda ulardan foydalanilgan.

Muallif tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanma qimmatli qog'ozlar bozori talabalariga, kollej, litsey va boshqa o'rganuvchilarga, shu sohada ishlovchilarga foyda keltiradi deb umid qilamiz.

# I BOB

## MOLIYA VA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI FANINING MOHIYATI

### 1.1. Moliya bozori tushunchasi

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy yuksalishi, har bir suveren davlatning dastlabki davrida mustaqil moliyaviy siyosat olib borishi tufayli bu mamlakatlarda milliy taraqqiyot har tomonlama ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi ham boshqa qo'shni mamlakatlardan farqli ravishda o'z mustaqil moliyaviy siyosatini olib bormoqda.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «mustaqil moliyaviy siyosatni respublikaning byudjet tizimini mustahkamlash, byudjet daromadlarining to'ldirilishini ta'minlaydigan va amaliy faollikni rag'batlantiradigan izchil soliq siyosatini o'tkazish, shuningdek korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, ularning tadbirkorlik va sarmoyadorlik faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan shakllantirish mo'ljallanmoqda».

Bozor iqtisodiyotining rivoji taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, to'zilma moliyaviy mablag'lardan samarali va tadbirkorlik bilan foydalanish, mikro va makroiqtisodiyotdagi rivojlanishi bilan amalga oshib kelgan.

Bozor infrato'zilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan moliya bozori va uning rivojlanib borishi jamiyat miqyosida iqtisodiy o'zgarishlarni samarali bo'layotganligidan dalolat beradi. Ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti moliyaviy mablag'larga doimo ehtiyoj sezadi, bu esa moliya bozorining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Moliya bozori - ayni paytda jamiyatning iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Jumladan, AQSh, Angliya, Germaniya, Kanada, Italiya, Fransiya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda moliya bozorining taraqqiyoti shu davlatlarda bozor infrato'zilmasining nihoyatda samarali rivojlanganligidan dalolat berishini alohida qayd etish lozim.

Moliya bozori, moliya xizmatlari bozori, jamiyat miqyosida bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etish, bu mablag'lardan foydalanganligi uchun haq to'lash bilan bog'liq munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

Moliya bozori xususida turli fikr va qarashlar mavjud. Ayrim olimlar moliya bozorini faqat pul bozorida iborat deb talqin etishga harakat qiladilar. Boshqa bir guruh olimlar, moliya bozorini faqat moliyaviy mablag'lardan iborat deyдилar. Bizning fikrimizcha moliya bozori keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, uni quyidagicha tavsif etish mumkin, jumladan moliya bozori tarkibiga pul bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, kapital bozori, investitsiya bozori va boshqalar kiradi, ular bir-biri bilan bog'langan bo'lib, o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotining rivoji avvalo pul bilan chambarchas bog'liq

bo'lib, u tovarlarning qiymat belgisi hisoblanadi. Pulga hamma tovarlar ayirboshlanadi; turli xizmatlar ko'rsatish pul orqali sotib olinadi. Barcha tovarlar uchun pul umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi, shuningdek, alohida tovardir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha korxonalar pulga ehtiyoj sezadi.

Pul bozori iqtisodiyotning butun munosabatlarini mujassamlashtirgan holda bozor munosabatlarining rivojlanib borishi bilan o'zining jamiyatdagi ro'lini oshirib boradi.

Bozor sharoitida pulning muhimligi, uning mehnat qiymatining o'lchovi shaklida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Pul bozori o'zining mazmuni va muddatiga ko'ra, ko'pincha qisqa muddatli (bir yillik) kredit bozorini yo'zaga keltirib, u ssuda kapitali bozorining ma'lum qismi hisoblanadi.

Moliya bozori ham iqtisodiyotning rivojlanishi va banklar tizimini takomillashtirish sharti bo'lib, pul resurslarini qayta taqsimlash mexanizmi sifatida tashkil topadi.

Moliya bozori mamlakatni moliyaviy sog'lomlashtirish uchun zarur yuridik xujjatlarni qabul qilish va bozorni tartibga solish maqsadida tashkil etiladi. Umuman bozor iqtidorli sarmoyadorlarning mablag'larini yig'ib, uni turli maqsadlar uchun taqsimlashi lozim.

Moliya bozori respublikamizdagi moliyaviy munosabatlarni boyitib, uni yangicha bosqichga olib chiqadi, ya'ni moliyalashtirishni qimmatli qog'ozlar, turli xildagi vositalar orqali amalga oshiriladigan usullari bilan ta'minlaydi. Shu asosda davlatning umumiy makro iqtisodiy siyosatida moliya, pul, soliq va byudjet siyosatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Moliya bozori bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rivoji davlat korxonalarini turli aksionerlik jamiyatlariga aylantirish jarayonlari bilan bog'liq. Bu esa, aholini bosqichma-bosqich korxonalarini sotib olish orqali uning foydasiga sherik qilish va respublikamizda mulkdorlar sinfini shakllantirish, iqtisodiyotning rivoji uchun asosiy omil bo'lgan investitsiyalarni jalb etish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda yirik moliyaviy markazlar tashkil topgan. Bo'lar o'z qo'llaridagi moliyaviy mablag'larga tayanib, jahondagi iqtisodiy jarayonlarni boshqarmoqdalar.

Jahondagi eng yirik moliyaviy markazlar AQSHning Nyu-York, Buyuk Britaniyaning London, Germaniyaning Bonn, Fransiyaning Parij, Marsel, Italiyaning Rim, Nepal, Yaponiyaning Tokio, Yaqin Sharq mamlakatlaridan Quvayt, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa moliyaviy markazlarni misol keltirish mumkin.

Bu moliyaviy markazlar ayni paytda pulga muhtoj mamlakatlarga turli shartlar bilan mablag' berib, ularni o'zlarining iqtisodiy hamkorlariga aylantirish orqali o'sha mamlakat qazilma boyliklaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

## 1.2. Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori va fond birjasi to'g'risida» gi qonuni (1993 y.) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar to'g'risida» gi Farmoni (1995 yil) natijasida respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozorining huquqiy asosi shakllandi va bu bozorning bosqichma-bosqich rivojlanishida eng muhim omillardan bo'lib qolmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy mahsuloti aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qogozlar hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan qonunda ko'rsatilishicha, bu ularni chiqargan shaxs, ularning egasi (sotib oluvchi) o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki zayom munosabatlarini tasdiqlovchi, dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni va bu xujjat huquqlarini boshqa shaxslarga berish imkonini nazarda tutuvchi pul xujjatlaridir.

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va uning muomilasini tartibga solish O'zbekistonda amal qilayotgan qonunga asosan olib boriladi.

Qonunda ko'rsatilishicha O'zbekiston hududida qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari chiqarilishi mumkin:

- aksiyalar;
- obligatsiyalar;
- xazina majburiyatlari;
- depozit sertifikatlari;
- veksellar va boshqalar.

Respublikamizda qimmatli qog'ozlar chiqaradigan subyektlar quyidagilardan iboratdir:

- davlat;
- xususiy sektor;
- chet el firmalari va boshqalar tomonidan chiqarilishi mumkin.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar chiqarilishi:

- blankalarda;
- sertifikatlar shaklida;
- hisobdagi yozuvlar shaklida;
- hisob-kitoblarda;
- kreditlar bo'yicha garov sifatida;
- boshqa qog'ozlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Qonunda ko'rsatilganki, respublikamizda chiqarilgan qimmatli qog'ozlar yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida ixtiyoriylik asosida tarqatiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida ommaviy tus olgan, bu aksiyalar hisoblanadi. Aksiyalar qimmatli qog'ozlarning bir turi sifatida aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga yuridik va jismoniy shaxs ma'lum miqdorda hissa qo'shganidan guvohlik beruvchi, aksiya egasini mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlovchi, unga dividend olish qoida tariqasida shu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini



beruvchi va amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'ozdir.

Aksiyalar jamiyat faoliyatini boshqarish huquqiga ko'ra oddiy va imtiyozli aksiyalarga bo'linadi. Har bir fuqaro korxonaning aksiyasini sotib olish huquqiga ega bo'lib, aksioner korxonaga chiqargan oddiy aksiyani sotib olishi bilan korxonaga mol-mulkiga birgalikda egalik qiladi, korxonani boshqarishda korxonaga daromadini taqsimlashda ishtirok etadi.

Agar aksioner qo'lida aksiya qancha ko'p bo'lsa u hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi. Oddiy aksiyalar bilan imtiyozli aksiyalar aksionerlar safining ko'payishiga ta'sir etadi.

Oddiy aksiyalar uchun dividend olish kafolatlanmagan. Ba'zi hollarda bunday kafolat bo'lishini qonun inkor etmaydi. Oddiy aksiya egalari yangi emissiya aksiyalarini belgilangan narxda sotib olishi mumkin.

Agar chiqarilayotgan aksiyaning narxi bozor narxidan past bo'lsa, aksiyador aksiyani sotib olib bozor narxida boshqalarga sotib daromad olish huquqi ham berilgan.

Imtiyozli aksiyalar o'z egalari korxonaga yil davomida erishgan faoliyat natijalaridan qat'iy nazar imtiyozli tarzda dividend olishi va aksionerlik korxonasi yopilganda korxonaga mulkini taqsimlash jarayonida qonuniy ega bo'lishiga egadir.

Dividendlar imtiyozli aksiyalarga to'lanadi, ammo dividend hajmi oldin kelishilgan foiz darajasiga bog'liq. Korxonaning olayotgan foydasi bu jarayonda muhim rol o'ynamaydi. Fuqorolar uchun imtiyozli aksiyaga ega bo'lish ularga kafolatlangan daromad keltiradi.

Umuman qimmatli qog'ozlar bozori o'z navbatida huquqiy va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni zarb etish hamda muomalaga chiqarish kabi munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori kapitalni jamg'arish va markazlashtirishga yordam berib, investitsiyalarni moliyalash, moliyaviy mablag'larni bir tashkilotdan boshqa tashkilotga o'tkazishda ko'maklashadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori kapitalning sanoat, tovar, bank kapitallari, shaxsiy jamg'armalarni harakatga tushirishda yordam beradi.

Qimmatli qog'ozlarning doimo aylanib turishi moliya tizimini rivojlanishiga ishlab chiqarishni o'zluksiz davom etishiga olib boradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatuvchilar, birjalar, tijorat banklari hamda aholi o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi. Qimmatli qog'ozlar bozori bo'sh turgan mablag'larni yig'ish, uni ishlab chiqarishga yo'naltirish, pul muomalasini tartibga keltirish, mamlakat ichida muntazam ravishda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorining mavjudligini ta'minlashda yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, moliya bozori o'zining tarkibida qimmatli qog'ozlar bozorini, pul bozorini, ssuda kapitali bozorini, fond bozorini, valyuta bozorini, investitsiya bozorini, sug'urta bozorini mujassamlashtirgan yagona infrastruktura hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotining rivoji moliyaviy bozorning holatiga va mamlakat iqtisodiyotini haqiqiy holati moliya bozorida o'z aksini namoyon etadi.

### 1.3. Moliya va qimmatli qog'ozlar fani predmeti

Moliya bozori rivojlangan dunyo mamlakatlarida asrlar davomida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Moliya bozori fan sifatida horijiy mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda. Dunyodagi eng yirik moliyaviy jihatdan qudrati bo'lgan AQSHda moliya bozori faniga va qimmatli qog'ozlar bozori faniga alohida e'tibor bilan qarashadi.

Yevropa mamlakatlarida moliya bozori fani qimmatli qog'ozlar bilan birgalikda biznesmenlar tayyorlaydigan, iqtisodchilar, moliyachilar, bankirlar tayyorlaydigan sohalarida chuqur o'rganiladi.

Bizning mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan keyin Prezidentimizning tashabbusi bilan 1993 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida» gi qonun qabul qilindi va bu qonunda qimmatli qog'ozlarga alohida tarif berilgan: «qimmatli qog'ozlar bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi dividend yoki foiz ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu xujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxsga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul xujjatidir».

Moliyaviy bozor, qimmatli qog'ozlar bozori hamda ssuda kapitali bozoridan iborat bo'lib, ularning vazifasi pul mablag'larining tartibli harakatini ta'minlash va qulay sharoit bo'lishiga imkon yaratishdir.

Moliya bozori va uning faoliyatiga quyidagi sabablar ta'sir qilishi mumkin:

- ayrim hollarda ma'lum bir investorning qo'lida juda katta moliyaviy resurslar to'planib qolishi mumkin;
- shu bilan bir qatorda ayrim investorlar moliyaviy mablag'ga ehtiyoj sezadilar;
- jamiyatda muhim ro'l o'ynaydigan pul mablag'larini jamiyat miqyosida odilona taqsimlab borish;
- jamiyatning boshida turgan davlat moliyasini stabililigini shakllantirish;
- aholini o'z mehnati evaziga va jamiyatning yordami bilan qo'shimcha daromad olishi.

Ana shu muammolarni moliya bozori fani o'rganadi, tahlil etadi va mohiyatini ochib beradi.

Moliya bozorida qimmatli qog'ozlar asosiy o'rinlardan birini egallaydi va bu fan sifatida jamiyatda qimmatli qog'ozlarni chiqarish, uning turlari, masalan: oddiy aksiyalar va imtiyozli aksiyalar, nominal aksiyalar, taqdim etuvchi aksiyalar, birlamchi, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini o'rganadi.

Qimmatli qog'ozlar moliya bozorining ajralmas qismi bo'lib, moliya bozorini tashkil etish hamda rivojlantirishda qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaruvchi subyektlar asosiy o'rinda turadi.

Moliya bozorining birlamchi, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish bilan bog'liq faoliyat, ikkilamchi oldin chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni qaytadan sotish muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliya bozori mamlakat territoriyasidagi fond birjalari, ularning faoliyat ko'rsatishi, boshqarish bilan bog'liq munosabatlarni o'rganadi.

Agar mintaqaviy moliya bozori haqida gapiradigan bo'lsak, bu yerda bir nechta mamlakatlarning o'zaro aloqada bo'lgan ichki bozorlarini tushunish mumkin.

Agar xalqaro moliya bozori haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bu bozor jahon miqyosida faoliyat olib boradigan ayrim mamlakatlarning va davlatlarning o'zaro munosabatlarini tushunish mumkin. Masalan, turli regiondagi mamlakatlar bir-biri bilan moliyaviy bozor orqali aloqada bo'ladi. Bunga AQSHni, Angliyani, Yaponiyani, Sharq regionidagi mamlakatlarni misol keltirish mumkin.

Moliya bozori O'zbekistonning moliyaviy munosabatlarini rivojlantirishga mamlakatda pul muomalasini valyuta, investitsiya munosabatlarini bir maromda bo'lishini ta'minlashi va mamlakatning iqtisodiy rivojiga hissa qo'shishi hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

Moliya bozori fani bugunga kelib mustaqillik tufayli mamlakatimizdagi ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida, akademiyalarda, institutlarda, kollejlarda, litseylarda hatto maktablarda o'qitilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'zbekistonda tayyorlanayotgan mutahassislar yaqin kelajakda dunyoning turli hududlaridagi moliya bozorlarida faoliyat ko'rsatishi va mamlakatimizni iqtisodiy, moliyaviy manfaatini himoya qilishi zarurdir.

### **Qisqacha xulosalar**

Moliya bozori ijtimoiy ishlab chiqarishni va jamiyatni iqtisodiy o'sishiga ta'sir etadigan muhim omil sanaladi. Moliya bozori o'zining tarkibiga, qimmatli qog'ozlar bozorini, ssuda kapitali, pul bozori, valyuta bozori, investitsiya bozori, sug'urta bozori, fyuchers va opsiyon bozorlarini mujassamlashtiradi.

Moliya bozorining tarkibidagi qimmatli qog'ozlar juda ommalashgan bo'lib, uning asosiy tovari: aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksellar va boshqalarni kiritish mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori birlamchi va ikkilamchi bozorlarga bo'linib, uning jamiyatdagi ta'siri benihoya bo'lib, mulkni xususiyashtirishda alohida o'rin egallab, aholining daromadlari oshishiga ta'sir etadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Moliya tushunchasi.
2. Moliya bozori nima?
3. Pul bozori nima?
4. Qimmatli qog'ozlar bozori.
5. Ssuda kapitali bozori.

6. Investitsiya bozori.
7. Valyuta bozori.
8. Sug'urta bozori.
9. Fyuchers va opsiyon bozori tushunchalari.
10. Birlamchi va ikkilamchi qimmatli qog'ozlar.

### Asosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. — Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. —Т.: Халқ сўзи, 2005.
2. Каримов И.А. — Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. -Т.: // Халқ сўзи.
3. “Қимматли қоғозлар ва фонд биржаси тўғрисида” ги Қонун. —Т.: Халқ сўзи, 1993.
4. “Қимматли қоғозлар бозорининг фаолият кўрсатиш механизми тўғрисида” ги Қонуни. —Т.: 1996.
5. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. —Т.: Консаудитинформ, 2001.

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) — O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O‘zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O‘zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) — «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) — Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) — Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) — Referatlar to‘plami.

## II BOB

### QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI VA UNING FUNKSIYALARI

#### 2.1. Qimmatli qog'ozlar bozori tushunchasi

Iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida pul asosiy ro'lni o'ynab kelgan, ammo muomalaga chiqarilgan pulning ma'lum qismi ularning egalarini qo'lida harakatsiz saqlana boshlagan. Natijada regionlarda, hatto davlat miqyosida muomalada pul etmay qolish hollari yuz bergan. Pulni aholi qo'lidan yig'ib olib, uni muomalaga kiritish usullari taklif qilingan.

Pulning o'rnini bosadigan qimmatli qog'ozlar chiqarilgan va ularni turli yo'llar bilan tarqatish, sotish amalga oshirilgan. Shu tariqa qimmatli qog'ozlar pulni o'rnida ishlatilib qolmasdan, balki qimmatli qog'ozni sotib olgan xaridorlar dividend olib foyda ko'ra boshladi.

Jahonda dastlabki qimmatli qog'ozlar XVII asrdan boshlab, Angliyada dastlab ko'chalarda, keyinchalik restoranlarda, vaqt o'tishi bilan davlat tomonidan belgilangan joylarda qimmatli qog'ozlar sotila boshladi.

Keyinchalik qimmatli qog'ozlar maxsus tashkil etilgan fond birjalarida qabul qilinib, ma'lum qonun-qoidalar asosida sotiladigan bo'ldi.

Bozor iqtisodiyoti uning tarkibiy qismi bo'lgan moliya bozori strukturasi qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish zaruriyatga aylandi. Chunki bozor iqtisodiyoti qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirmasdan turib, rivojlanishi unchalik haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Umuman bozor ikki yo'nalishda bo'lishi mumkin:

- kapital yetkazib beruvchilar, bunga ma'lum bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan, ularni saqlayotgan, ko'paytirayotganlar, bo'lar huquqiy, jismoniy shaxslar va davlatdir;

- yangi ishlab chiqarishni boshlashni xizmat ko'rsatish amaldagi korxonalarni quvvatini oshirish va kengaytirish uchun qo'shimcha mablag'ga muxtoj bo'lgan subyektlar misolida ko'rish mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori axborotlar bilan, reklamalar bilan, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari ishtirokida rivojlanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida bitimlar orqali oluvchi bilan sotuvchi bir-biri bilan muomala qiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori fond birjasi shaklida namoyon bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida umumiy infrato'zilmaning muassislarini ko'radigan bo'lsak, ularga yuridik, advokatlik idoralari, auditorlik tashkilotlari, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, notarial idoralar, axborot agentliklari va h.k. lar.

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozorini ko'radigan bo'lsak, bo'larga investitsiya vositachilari (brokerlar, dillerlar), investitsiya maslahatchilari, investitsiya fondlari, boshqaruvchi kompaniyalar, hisob-kitob kliring tashkilotlari, investitsiya kompaniyalari, reestr saqlovchilar, depozitariylar, qimmatli

qog'ozlarning normal egalari va h.k.lar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qimmatli qog'ozlar bozori jismoniy, huquqiy shaxslarning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, ularni muomalada bo'lishi bilan bog'liq munosabatlar tizimidan iborat deyish mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori o'zining ro'liga ega bo'lib, iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va jamiyatda ijtimoiy xususiyatga dahldor bo'lgan muhim muammolarni yechib berishga xizmat qiladi.

Qimmatli qog'ozlar yordamida bo'sh turgan pullar jamiyat a'zolaridan yigib olinadi va uning egalari qimmatli qog'oz aksiya, obligatsiya ko'rinishida foyda olish maqsadida sotiladi va qimmatli qog'ozlar egalari dividendga ega bo'ladilar.

## **2.2. Qimmatli qog'ozlar bozorining turlari**

Qimmatli qog'ozlar bozori o'zining rivojlanish bosqichlarida bir nechta murakkab etaplarini bosib utdi. Qimmatli qog'ozlar bozori birlamchi va ikkilamchi bozorga bo'linadi.

Birlamchi qimmatli qog'ozlar bozori, bu qimmatli qog'ozlarning emitent tomonidan takroriy chiqarilishi asosiy maqsad bundan ustav fondini ko'paytirish, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi emissiyasida ham qimmatli qog'ozlarni realizatsiya uchun chiqarib sotish orqali korxonani kengaytirishga, yangi texnologiyani joriy qilishga mablag' to'plashdan iborat. Birlamchi qimmatli qog'ozlar bozorida emitentlar axborotlarni oshkor etadilar, qimmatli qog'ozlarni sotish uchun ajratilgan qismini e'lon qiladilar.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozoriga ta'rif beradigan bo'lsak, birlamchi bozor qimmatli qog'ozlar emissiyasini va ularni birinchi marotaba joylashtirishni nazarda tutib qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi hamda bu chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni tadbirkorlarga sotish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni o'zida aks ettiruvchi bozordir.

Agar qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini ko'radigan bo'lsak, bunda mamlakatda bu bozorning rivojlanishiga qarab, uning iqtisodiy usishi haqida fikr yuritish mumkin.

Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining muhim ko'rsatkichi uning likvidlik holatining yuqori darajada ekanligidir.

Bozorning likvidligi bu bozor narxlarining juda sekinlik bilan o'zgarib borishi nazarda tutilmay, balki qimmatli qog'ozlarning aylanishini yuqori darajada amalga oshirilishi tushiniladi.

Umuman qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori oldin sotilgan qimmatli qog'ozlarni qaytadan oldi-sotdisini amalga oshirish bilan bog'liq muomala jarayonlarini aks etadigan bozor tushuniladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining turlari mavjud bo'lib, bu qimmatli qog'ozlarning uyushgan va uyushmagan bozorlaridir.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozori, qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi, qimmatli qog'ozlar operatsiyalari, qimmatli qog'ozlarni sotish

shartnomalar asosida qimmatli qog'ozlar savdosini tashkilotchilari tomonidan belgilangan tadbirlar bilan tartibga solinadi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan bozori qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi, ularni operatsiyalar, savdolar, tashkilotchilarining bitim va ishtirokchilariga qo'ygan talablariga itoat qilmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlari qimmatli qog'ozlarning mintaqaviy, milliy va xalqaro bozorlari mavjud.

Bundan tashqari qimmatli qog'ozlar alohida turlarining bozorlari, bunga aksiya bozorlari, davlat obligatsiyalari bozorlari, korxonalar obligatsiyalari bozori, banklarning depozit va jamg'arma sertifikatlari bozori mavjud.

Ko'pincha adabiyotlarda bozorlarni boshqacha tasniflanishi ko'zga chalinadi. Bo'larga qisqa muddatli, o'rta muddatli, o'zoq muddatli yoki muddatsiz qimmatli qog'ozlar bozori mavjud deyishadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida davlatning ishtiroki bo'lsa, bo'larni davlat qimmatli qog'ozlari bozori deyish yoki korxonalarining ishtiroki bo'lsa, korxonalar qimmatli qog'ozlar bozori deyish mumkin.

Agar yangi tashkil etilgan aksionerlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarni sotishga chiqarsa aksionerlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarning bozorlari deyish mumkin.

Umuman O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori 90-yillarning boshlarida paydo bo'ldi, fond bozori shaklida hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

### **2.3. Qimmatli qog'ozlar bozorining funksiyalari**

Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotda yangi pul mablag'larini to'plab berishga, korxonalarini zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash, yangi zamonaviy texnologiyani korxonada qo'llashga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining ro'li davlat korxonalarini xususiy lashtirish siyosatini amalga oshirish jarayonida vujudga keldi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa bozorlardan farqi va o'ziga hos xususiyati shundaki, unda muomalada bo'ladigan asosiy tovar bu qimmatli qog'ozlardir.

Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotda shunday muhim vazifani bajaradiki, uning yordamida mamlakatda iqtisodiy rivojlanish yuksala boradi:

- qimmatli qog'ozlar bozori orqali pul jamg'armalari markazlashtiriladi va ular mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya shaklida yo'naltiriladi;
- mamlakatda bank tizimidagi kridetlarni to'ldirishda qimmatli qog'ozlar bozori alohida xizmat ko'rsatadi.

Boshqa bozorlar kabi qimmatli qog'ozlar bozori ham talab va taklif asosida rivojlanadi.

Jamiyatda talab asosan ikki yo'nalishda mavjud bo'lib kelgan:

1. Turli investitsiyalarni moliyalashtirish uchun korporatsiya davlat tomonidan kredit olish tushuniladi.

2. Aholini doimo uy-joyga, qo'zg'almas mulkka bo'lgan egalik hissi kuchayib boradi hamda xususiy sektor tomonidan qimmatli qog'ozlarni kreditor sifatida

sotib olish o'sib boradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar ham ishtirok etadi. Ularning ishtiroki O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank to'g'risida» gi, qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risidagi qonunlarga binoan amalga oshiriladi.

Bu qonunlar talabi bo'yicha banklar qimmatli qog'ozlar bozorida belgilangan vazifalarni bajarishlari mumkin:

1. Banklar qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi.
2. Banklar qimmatli qog'ozlarni harid qiluvchi sifatida ishtirok etadi.
3. Banklar qimmatli qog'ozlarni saqlovchi, umumiy reestrni olib boruvchi va xizmat ko'rsatuvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.
4. Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida mijozlarning topshirig'i bilan qimmatli qog'ozlarni sotib oladi va sotish vazifasini amalga oshiradi.
5. Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida mijozlar nomidan, ularning hisobidan turli hisob-kitoblarni olib boradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida O'zbekistonda qabul qilingan qonun xujjatlarini bo'zganlar uchun davlat tomonidan quyidagi jarimalar solinad:

- agar emitent qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi axborotlarning hisobotlarini e'lon qilmagan bo'lsa, davlat nazorati organlariga hisobotlar yoki axborotlarni o'z vaqtida taqdim etmaganligi uchun eng kam ish haqining 70 barobarida jarima belgilangan;

- qimmatli qog'ozlar bozorida qoida bo'zarliklar to'g'risidagi ko'rsatmalarni bajarishdan bo'yin tovlaganlik, o'z vaqtida bajarmaganligi uchun eng kam ish haqining 100 barobari miqdorida jarima solinadi;

- agar emitentlar tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarish, ularni muomalaga chiqarish, shartnomalar tuzish, ro'yxatdan o'tkazish qoidalari bo'zilgan bo'lsa, eng kam ish haqining 200 barobar miqdorida jarima solinadi;

- mabodo investorlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, xarajatlar va daromadlar hisobini yuritish, bo'lar haqida hisobot berish tartibini bo'zsalar, eng kam ish haqining 600 barobar miqdorida jarima solinadi;

- aktivlar bilan mustahkamlanmagan qimmatli qog'ozlarni chiqarganligi uchun ayrim investorlarga asossiz mulkiy huquqlar berganlik, ularning mulkiy huquqlariga rioya etmaganlik, investorlarga tegishli daromadlarni to'lamaganligi uchun eng kam ish haqining 700 barobar miqdorida jarima solinadi;

- aldanchilik qilinsa eng kam ish haqining 800 barobar miqdorida jarima belgilangan.

Qimmatli qog'ozlar bozorida har bir ishtirokchi belgilangan qonun va normativ xujjatlariga birja qoidalari rioya qilinishi shart hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Qimmatli qog'ozlar bozori dunyoda XVII asrda vujudga kelib, hozirgi paytda dunyoning ko'plab mamlakatlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.



Qimmatli qog'ozlar bozori jamiyatda kapital yetkazib beruvchi va yangi ishlab chiqarishni boshlashni, uning uchun mablag' topadigan vositadir.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar ham o'ziga tegishli vazifalarni bajarib, ular qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi sifatida, qimmatli qog'ozlarni harid qiluvchi, qimmatli qog'ozlarni saqlovchi hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida aldatchilik qilinsa eng kam ish haqining 800 barobarida jarima solinadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Qimmatli qog'ozlar bozori tushunchasi.
2. Qimmatli qog'ozlarning turlari.
3. Qimmatli qog'ozlar bozori shakli.
4. Qimmatli qog'ozlarning emitentlari.
5. Investitsiya uyushmalari.
6. Davlat qimmatli qog'ozlari.
7. Erkin raqobat.
8. Bozordagi narxlar.
9. Qimmatli qog'ozlar bozorida tovar.
10. Investitsiya fondlari.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. — Эришилган ютуқларни мустақамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. -Т.: // Халқ сўзи.
2. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва суғурта муаммолари. —Т.: ТДИУ, 2001.
3. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. —Т.: Консаудитинформ, 2001.
4. Галанова В.А. Рынок ценных бумаг. — М.: 2004.
5. Синицына Н.М. Рынок ценных бумаг. —М.: 2004.

[www.mf.o'z](http://www.mf.o'z) — O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.o'z](http://www.gov.o'z) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.o'z](http://www.edu.o'z) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) — «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) — Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) — Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) — Referatlar to'plami.

### III BOB

## QIMMATLI QOGOZLARNI TURKUMLASH (KLASSIFIKATSIYALASH)

### 3.1. Qimmatli qog'ozlarning daromadliligi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda davlat mulkini xususiyashtirish siyosatini amalga oshirish korxonalarini aksionerlik jamiyatlariga aylantirish orqali ishlovchilarga korxonaga foydasiga sherik bo'lish huquqini berdi.

Aksiyalashtirilgan korxonalar qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularning muomalasini oshirish bo'yicha respublikamizda belgilangan qonunlarga amal qilgan holda faoliyat olib bormoqda.

Qonunda ko'rsatilishicha O'zbekiston territoriyasida qimmatli qog'ozlarning eng muhim turlari deb quyidagilar e'tirof etildi, aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari, hosila qimmatli qog'ozlari, veksellar ko'rinishida chiqarila boshlandi.

Qimmatli qog'ozlarning subyektlari davlat aksionerlik jamiyatlari, xususiy sektor korxonalari va chet el firmalari bo'lishi mumkin deb, qonunda qayd etildi.

Insoniyatga qimmatli qog'ozlar o'rta asr oxirlarida ma'lum bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Jahonda buyuk geografik kashfiyotlar tufayli xalqaro savdo maydoni kengayib bormoqda. Dengiz ortidagi bozorlarni zabt etish va arzon hom-ashyoni qo'lga kiritish uchun ko'p miqdorda kapital mablag'lar talab qilinardi. Bu ishni alohida shaxslar amalga oshira olmas va uddasidan chiqish ancha mushkul edi. Bunday qiyin vazifalarni hal etish uchun Angliyada Gollandiya va Ost-Indiya bilan savdo-sotiq olib boradigan kompaniyalar negizida aksionerlik jamiyatlari paydo bo'ldi. 16-17 asrlarda Angliyada ko'mir qazib olish tarmoq'ini moliyalashtirish uchun aksionerlik jamiyatlari tashkil etildi.

Mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekistonda ham aksionerlik jamiyatlari tashkil qilindi. Investitsiya kompaniyalari, brokerlik idoralari va fond birjasi tashkil etilishi qimmatli qog'ozlar infrastrukturasi barpo etalishi uchun qo'yilgan dastlabki qadam edi.

Qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularning muomalasini tartibga solish O'zbekistonda amal qilayotgan qonunlar va qoidalarga asosan amalga oshiriladi. qonunga binoan qimmatli qog'ozlar - aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari, hosila qimmatli qog'ozlar va veksellar ko'rinishida chiqariladi.

Qimmatli qog'ozlarning subyektlari - davlat, aksionerlik jamiyatlari, xususiy sektor va chet el firmalari bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalashdan tushadigan daromadlar quyidagilardir:

- obligatsiyalar va imtiyozli aksiyalar uchun vaqt o'tgandan keyin to'lanadigan belgilangan foizdan, xazina biletleri, depozit va jamg'arma sertifikatlaridir;

- o'z navbatida oddiy aksiyalar sotib olish vaqtidagi va sotish davridagi kurs qiymatining farqi hisobiga qimmatli qog'ozlar egasi oladigan dividend.

Aksiyadorlik jamiyati sof foydasining ma'lum qismi dividenddir. Bu yerda aksiyadorlik jamiyati o'z a'zolari bilan hisob-kitob qilgandan keyin davlatga soliq to'lagandan so'ng o'z ixtiyorida qoladigan daromaddir.

Ma'lumki aksiyadorlar jamiyatining daromadlarini oshirish maqsadida olingan foydani ishlab chiqarishga yo'naltirib, dividendlarni bermasligi ham mumkin.

Garb mamlakatlarida foydaning ko'p qismi jamgarihlarga yo'naltiriladi, Rivojlanib kelayotgan kompaniyalar ma'lum vaqtda aksiyadorlar bilan kelishib hisob-kitob yo'liga o'tishgan.

Agar obligatsiyalar daromadi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, ularning daromadi aksiyadordagiga qaraganda pastroq bo'ladi. Bu yerda obligatsiyalar kursining o'zgarishi bozordagi va iqtisodiyotdagi ahvolga bog'liq.

### 3.2. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlarni chiqarish respublikada amal qilayotgan «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining qonunida ko'rsatilganidek amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar huquqiy va jismoniy shaxslarga sotish orqali muomalaga chiqarilishini emissiya deyish mumkin.

Emissiya birlamchi va ikkilamchi emissiyalar bo'lishi mumkin.

Birlamchi emissiya quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- ishlab turgan korxonani qaytadan tashkil etish yoki aksiyadorlik jamiyatini barpo etish orqali;

- bu yerda davlat hokimiyati organlari tomonidan va huquqiy shaxslar ishtirokida dastlabki obligatsiyalarni chiqarish yo'li bilan qarz sarmoyasini safarbar qilish.

Qimmatli qog'ozlarning takroriy emissiyalari yakunlangan oxirigi 3 moliya yili uchun har bir yakunlangan yil uchun buxgalterlik balanslari qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish haqidagi qaror qabul qilishdan, ohirgi chorak uchun daromadlardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlar kiritiladi.

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorni qabul qilinganidan boshlab, 3 yil mobaynida davlat, sud, davlat arbitrajini emitentga qo'llan ma'muriy iqtisodiy jazolariga diqqat qaratiladi.

Qimmatli qog'ozlar emissiya qilingandan so'ng, ular ro'yxatdan o'tqaziladi.

Bu «Davlat korxonalarini qayta tashkil qilish natijasida tuzilgan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini muomalaga chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish tartibi» to'g'risidagi xujjatda alohida bayon etilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlat korxonasini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilgandan keyin aksiyalarni birlamchi chiqarish O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qumitasining Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish markazi ro'yxatdan o'tkazishi kerak.

Agar qimmatli qog'ozlarni sotish masalasiga e'tibor beradigan bo'lsak, aksiyalarni O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qumitasining Birja bosh boshqarmasi tomonidan ularni birja savdolariga qo'yish, fond dukonlari orqali sotish, kimoshdi savdosi bilan sotish mumkin.

Qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisi quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- bir nechta joylar belgilanadi va u yerda qimmatli qog'ozlarni Naqd oldi-sotdisi amalga oshiriladi;

- qimmatbaho qog'ozlar kategoriyalari to'lov xillari bo'yicha maxsus belgilangan sotish joylari tashkil qilinib, oldi-sotdi jarayoni yo'z beradi;

- tijorat hamda omonat banklarining turli yerlardagi filiallarida qimmatli qog'ozlar bo'yicha takliflar e'lon qilib turiladi.

Birja orqali qimmatli qog'ozlarni sotish u belgilangan tartibda qimmatli qog'ozlarni savdosini brokerlar, maklerlar, dillerlar amalga oshiradilar.

Ma'lumki fond birjasiga qimmatli qog'ozlar olib kelinmaydi, balki mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlarning soni hamda sifatini tasdiqlovchi xujjat va sertifikat taqdim etiladi.

Shular bilan bir qatorda fond birjasida qimmatli qog'ozlarni sotuvchilar xohlagan miqdorida sota olmaydi.

Fond birjasida shartnoma asosida va unda belgilangan miqdorda qimmatli qog'ozlarni sotish amalga oshirilishi mumkin.

Demak fond birjasida katirovka ro'yxatida ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlarni sotishga ruxsat etiladi. Bu ro'yxatni fond birjasi tilida «listing» deb atash mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, fond birjasida baholar ochiq-oydin oshkor etiladi.

### **3.3. Qimmatli qog'ozlardan daromad olish usullari**

Rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlarni sotib olgan huquqiy va jismoniy shaxslar uning egasi sifatida yoki mulkdor sifatida turli usullarda daromad oladilar:

- qimmatli qog'ozlar egasi o'zining qo'lidagi qimmatli qog'ozni bozor narxini ko'tarilishi bilan dastlabki o'zi sotib olgan bahoga qaraganda yuqori bahoda sotsa, bunda olingan daromad tafovutlar daromadi deyiladi. Bu daromad bezordagi talab va taklif bilan bog'liq holda olingan daromaddir;

- mabodo qimmatli qog'ozlar mulkdorning mulki bo'lsa, unda daromadga inflyatsiyaning ta'siri ma'lum darajada unchalik ta'sir qilmaydigan sharoitlarda olinadigan daromad o'zgarmas to'lov usuli deb yuritiladi;

- amaliyotda ixtiyoriy ravishda qarzga berilgan pulni uning egasi foiz daromadi bilan qaytarib olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. To'lov qayd etilgan muddatlarda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;

- ma'lumki, markaziy bank belgilab qo'ygan to'lov stavkasining kvartalda, yarim yilda o'zgarishiga, ayrim hollarda kimoshdi savdosi orqali davlat qimmatli qog'ozlarining daromadlik darajasi vujudga keladi. Buni o'zgaruvchi foizli to'lov usuli deyiladi;

- qimmatli qog'ozlar egasiga dividend shaklida daromadni to'lash, bu aksionerlik jamiyatining sof foydasiga bog'liq. Bu yerda oddiy aksiyalar bo'yicha dividend hajmi o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Imtiyozli aksiyalarda esa dividendlarning minimal foiz miqdori qat'iy belgilab qo'yiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qimmatli qog'ozlarni sotib olish aholi uchun qanday qulayliklar tugdirishi mumkin hamda fuqarolarga qanday foyda keltirishi mumkin. Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin.

Mamlakatimizda millionlab fuqarolar qimmatli qog'ozlarni sotib oladilar va qaytadan sotadilar. Ularning asosiy maqsadi shu qimmatli qog'ozlarni sotish jarayonidan foyda ko'rishdir. Bu odamlarni pul topishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi.

Qimmatli qog'ozlar orasida aksiyalarni sotib olish ommalashib bormoqda. Chunki aksiyalar qimmatli qog'oz egalari mulkdorga aylantirishi mumkin.

Har bir qimmatli qog'oz egasi o'z pulini sof foyda olishga yo'naltirganini ongli ravishda tushunadi va foydani kutib yashaydi. Masalan, birjalarda odamlar aksiyalarni harid qilib, ma'lum vaqt o'tgandan keyin bozordagi aksiya baholarini ko'tarilishi bilan aksiyalarni yuqori bahoda sotib, yaxshigina daromad oladi.

Fuqarolar o'z qo'llarida tuplagan pullarini qadrsizlanishdan saqlash maqsadida qimmatli qog'ozlarni sotib olish yordamida himoyalaydilar.

Odamlar ongli ravishda o'z qo'llaridagi pullarni qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda o'z xissalarini qo'shib keladilar, Mamlakat fuqarolari ishlab chiqarish jarayonida va bozor munosabatlari sharoitida qimmatli qog'ozlar bilan munosabatda bo'lib, o'zlarining bilimlarini ko'paytirib boradilar.

Mamlakat fuqarolari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazishi orqali badavlat, erkin, mustaqil, farovon yashaydilar.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olgan har bir fuqaro o'zini asab tizimini ancha mustahkamlaydi va doimo bozorni kuzatib boradi, o'zining manfaatini himoya qilish uchun turli usullarni uylab topadi.

Albatta mamlakat fuqarolari qimmatli qog'ozlar bozoridan boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olsalar, ulardan ham ko'pdan-ko'p foyda ko'rishlari mumkin.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori hukumatning tashabbusi bilan tashkil etildi va bu bozor hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Hozirgi kunda aholining juda ko'p qismi qimmatli qog'ozlarning har-xil turlarini sotib olishga qiziqishmoqda. Jumladan, aholi juda katta miqdorda aksiyalarni sotib olgan, obligatsiyalarni egasi hisoblanadi va O'zbekistonda chiqarilgan zayomlarni ham sotib olib foyda olishga umid bog'lab kelmoqdalar.

Qimmatli qog'ozlarga e'tibor berish, ularni sotib olish, jamiyat a'zolarining oddiy fuqaro'likdan mulk egalari aylantiradi.

## **Qisqacha xulosalar**

Qimmatli qog'ozlar daromadli bo'lib, har bir qimmatli qog'oz egasi o'zining aksiyasiga dividend talab qilish huquqiga egadir.

Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalashdan daromad tushadi. Bu obligatsiyalardan va imtiyozli aksiyalardan, oddiy aksiyalardan hamda aksiyadorlik jamiyati sof foydasining ma'lum qismi dividenddir.

Har bir qimmatli qog'ozlar egalari dividend shaklida daromad olib, keyin mulkdorga aylanish imkoniyatlari ham mavjuddir.

Mamlakat fuqarolari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazishi orqali badavlat, erkin, mustaqil farovon yashashlari mumkin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Aksiyalar.
2. Oddiy aksiyalar.
3. Imtiyozli aksiyalar.
4. Obligatsiyalar.
5. Veksellar.
6. Chek.
7. Bank sertifikatlari.
8. Divident.
9. Emitentlar.
10. Depozit sertifikatlari.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. – Эришилган ютуқларни мустақкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. –Т.: // Халқ сўзи.

2. “Қимматли қоғозлар ва фонд биржаси тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. –Т.: // Халқ сўзи, 1993 йил, 2 сентябрда қабул қилинган. II Бўлим.

3. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва суғурта муаммолари. –Т.: ТДИУ, 2001.

4. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. –Т.: Консаудитинформ, 2001.

5. “Бозор, пул ва кредит”. –Т.: 2004. № 7-8.

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) – О‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – О‘zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) – О‘zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) – Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;

## IV BOB

### QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING A'ZOLARI

#### 4.1. Qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilar

O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi qonunda ko'rsatilgandek qimmatli qog'ozlar bozori talab va taklif qonuni asosida rivojlanadi va bu bozor boshqa bozorlardan o'zining

xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu bozor o'zining ishtirokchilariga ega, qimmatli qog'ozlar bozorida o'zaro manfaat quruvchi tomonlar uchrashadi va qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish jarayonida ular manfaat ko'radilar.

Qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilar alohida rol o'ynaydi, vositachilar ikki tomonni uchrashtiradilar va ularni bir biriga bog'laydi. Qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilik qiluvchilardan biri bu brokerdir. Broker qimmatli qog'ozlar bozorida mijozning puliga qarab xizmat ko'rsatadi, broker jahon qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatib yaxshigina daromad oladi, brokerlar o'z sohasini professional bo'lishi kerak.

Qimmatli qog'ozlar bozorida broker vazifasini ko'p hollarda moliyaviy broker yoki investitsiya vositachisi bajarishi mumkin. Broker oladigan xizmat haqi ularni tilida ko'rtaj deb ataladi, xizmat haqining miqdori oldi-soti shartnomasi so'mmasiga nisbatan foiz hisobida ifodalanadi.

Brokerlar qimmatli qog'ozlar bozorida ishlashlari uchun muntazam ravishda o'z bilimlarini oshirib borishlari shart. Qimmatli qog'ozlar bozorida dillerlar ham faoliyat ko'rsatadi, dillerning brokerdan farqi shundaki diller qimmatli qog'ozlar bozorida qimmatli qog'ozni o'zini mablag'iga sotib olib bozorda narxning ko'tarilishi bilan qimmatli qog'ozni yuqoriroq narxga sotib katta foydaga ega bo'ladi.

Dillerning asosiy maqsadi qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganib o'zi sotib olgan qimmatli qog'ozni yuqori narxda sotib foyda olishdir.

Qimmatli qog'ozlar bozorida bo'lardan tashqari treyder ham faoliyat olib boradi, buni faoliyati shundan iboratki treyder fond birjasini zalida broker firmasini vakili sifatida faoliyat olib boradi.

Treyder qimmatli qog'ozlar bozorida firma nomidan sotish uchun va mahsulot harid qilish uchun buyurtma olish uchun vazifasini bajaradi bundan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi ham faoliyat olib boradi, ularni moliyaviy broker deb atab ularga ham vakolatlar berilgan. Qimmatli qog'ozlar bozorida reestirchilar ham mavjud bo'lib, ularning vazifasi aksiyadorlar reestirini yurituvchi huquqiy shaxs hisoblanadi. Bu yerda shu yerga e'tibor berish kerakki emitentni aksiyadori yoki emitentning aksiyasini nazorat qiluvchi huquqiy shaxslar reestirchi faoliyatini bajarishlariga qonun yo'l qo'ymadi. O'z navbatida aksiyadorlar reestirini qonunda ko'rsatilgandek investitsiya muassasalari va emitentlari yuritishlariga qonun qarshilik qilmaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida olib boriladigan faoliyat vositachilar yordamida shartnoma asosida tashkil qilinadi, shartnoma orqali qimmatli qog'ozlar bozori boshqariladi.

O'zbekistonda brokerlik 1991 yilidan faoliyat ko'rsatdi. Toshkent Respublika Fond birjasida dastlabki brokerlik faoliyati amalga oshirildi va bu yerga ishlash uchun mutaxassislar milliy universitetda «Atsiyalashtirish.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar» maxsus bir oylik o'quv kursini utab hamda moliya vazirligi tomonidan fond bozorida ishlovchilar suhbatdan o'tkazilib ishlashga vaqtinchalik ruxsat berildi.

1992 yilda brokerlik firmalari tashkil etilib ularning soni 50 tadan oshdi. Fond birjalarida brokerlik xizmatlariga vositachilik qilganligi uchun kelishuvga binoan haq to'lana boshladi.

1994 yil iyundan boshlab investitsiya brokerlarni Moliya Vazirligida ommaviy shaxodatlash orqali ularning ishlashlari uchun huquq berildi.

#### **4.2. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning ro'li**

Qimmatli qog'ozlar bozorida boshqa ishtirokchilar bilan birga banklar ham ishtirok eta boshlaydi.

Banklarni qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat olib borishidan maqsadi bozor sharoitida banklarning soni ko'payadi, bu esa mijozlarni kamayishiga olib keladi. Demak banklar foyda olish uchun o'zlariga mijoz qidirishga majbur bo'ladilar. Xuddi shunday mijozni banklar qimmatli qog'ozlar bozorida topadilar.

Banklarni qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatining asosiy yo'nalishi, ya'ni pul mablag'larini jalb etish, bank passivlarini shakllashtirish hamda qimmatli qog'ozlarga sarflangan pulni investitsiyalashdan tushadigan foydaga ega bo'lish.

Qimmatli qog'ozlar bozori orqali amalga oshirilgan operatsiyalar uchun mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlardan vujudga kelgan foydani yig'ib olish hamda banklar bu bozor orqali o'z nufu'zlarini oshirish. Shular bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlar bozorida aksiya nazorat paketini qo'lga kiritishi orqali nobank sohasini ham o'z izmida ushlab turish, ayni paytda bu shu bozor orqali mijozlar bozor kon'yukturasi, narxlar katirovkasi, raqobatdoshlar haqida ma'lumot to'plash.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bo'yicha infrastrukturani shakllantirish jarayonida banklar asosiy o'rinni egallaydi.

Respublikada banklar o'z kapitalarini sanoat kapitali bilan qo'shishga erishib moliya kapitalini vujudga keltirdilar.

Banklar fond bozoringing vositachilari sifatida davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, aksiyalar, omonat jamg'armasi, vekselar bilan ishlashni o'rganib bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozorida emitent va sarmoyadorlar sifatida ishlab kelmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorida ayniqsa tijorat banklari aktiv faoliyat olib borishga kirishganligi real jarayonga aylanmoqda.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida garov sifatidagi ro'li o'sib borayotganligi o'tish davridan beri hozirgi kunda dolzarb muammoga aylandi.

Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida nega aktivlashib bormoqda degan savolga quyidagicha javob berish mumkin, shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston



qonunchiligida ayniqsa tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan va uning barcha turlari bilan faoliyat olib borishi qonun bilan cheklab qo'yilgan.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar turli operatsiyalar natijasida yuqori darajada daromad olib, ular xususan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni yanada kengaytirishga mablag'lar sarflamoqda.

Banklar boshqa tashkilotlarga nisbatan zamonaviy texnika, texnologiya, axborotlar va qadrlar salohiyatiga ega.

Ularning filiallarida ham moddiy-texnika bazasi zamon talabi asosida tashkil qilingan. Shuning uchun banklar qimmatli qog'ozlar bozorining eng aktiv ishtirokchilariga aylanmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar boshqa iqtisodiy tashkilotlar bilan raqobatda bo'lib, o'zlarining an'anaviy xizmatlarini mijozlarga xizmatlarni kriditlash shaklida, valyuta, moliya operatsiyalarini o'tkazish orqali bankning ro'li ommalashib bormoqda va bank o'z raqobatdoshlarini raqobat ko'rashida yengib mijozlarni son jihatidan va moliyaviy ta'minlanganlik darajasi bo'yicha ko'paytirib bormoqdalar.

Hozirgi kunda banklar qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini yanada kengaytirib Horijiy mamlakatlar ilgor texnologiyasini va texnikasini qo'llagan holda qimmatli qog'ozlarning eng yuqori dividend to'laydigan turlarini sotib olishga muvofiq bo'lmoqdalar.

Hozirgi kunda banklar o'zlarining emissiya faoliyatida ustav kapitalini shakllantirish, likvidlikni oshirish yo'nalishida harakat qilmoqdalar.

Banklar qimmatli qog'ozlarning yangi turlarini emissiya qilishga, likvidlikni oshirishga alohida e'tibor berganligiga diqqat bilan qarash lozim deb o'ylaymiz.

### **4.3. Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutlarining o'rni**

Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutlari o'z o'miga ega bo'lib, ular investitsiya vositachilari sifatida, investitsiya maslahatchilari, investitsiya kompaniyalari, investitsiya fondlari, depozitariylar, hisob-kitob kliring tashkilotlari, boshqaruvchi kompaniyalar, sug'urta kompaniyalari xizmat ko'rsatadi.

Investitsiya muassasalari - bu qimmatli qog'ozlar bilan ishlashni, faoliyat ko'rsatishni hamda qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari ma'nosini anglatadi.

Horijiy mamlakatlar tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, investitsiya muassasalari qator vazifalarni amalga oshirishlariga to'g'ri keladi:

- avvalo vositachilik faoliyatini amalga oshiradi;
- shu bilan qimmatli qog'ozlarni chiqarishni tashkil qiladi;
- qimmatli qog'ozlarni boshqa fuqarolar foydasiga joylashtirish uchun kafolat berish mumkin;
- qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha maslahatlar beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining lisenziyasini olgandan keyin investitsiya muassasasi faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, investitsiya kompaniyasi huquqiy shaxs sifatida qimmatli qog'ozlar bozorida o'zining hisobiga ishlaydi. Buni bozor tilida dillerlik faoliyati deyish mumkin.

O'zbekiston fond birjasi endigina shakllandi, bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan investitsiya kompaniyalari hali juda ko'p izlanish va o'rganishni amalga oshirib horij tajribalaridan o'z sohalarida foydalanishlari kerak.

Investitsiya maslahatchilari qimmatli qog'ozlar bozorida ular moliyaviy holati baquvvat sarmoyadorlarga qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha maslahatlar bera olmaydi, balki ularga mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha axborotlarni berish mumkin.

Investitsiya maslahatchilari o'zlari aksiyadorlik korxonalarini tashkil qilishi, qimmatli qog'ozlar chiqarishni taklif qilishi, qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirishga ko'maklasha oladilar.

Ayrim korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish bo'yicha xujjatlarni va qimmatli qog'ozlar bozorida ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlashlari mumkin.

Investitsiya fondlari ham aksiyalarini chiqarish, ularni sotib olish va aksiyalarini sotib olgan korxonalarini samarali faoliyat ko'rsatishiga ishtirok etadi.

Investitsiya fondlari ikki turda bo'lishi mumkin:

1. Ochiq turdagi investitsiya fondlari.
2. Yopiq turdagi investitsiya fondlari.

Ma'lumki ochiq shakldagi investitsiya fondlari aksiyalarni sotib olish sharti bilan muomalaga chiqarishi

mumkin. Bu yerda fond aksiya egalari ularning o'miga pul so'mmasi va mol-mulk olishni va'da qiladi.

O'z navbatida yopiq turdagi investitsiya fondlari qimmatli qog'ozlarni yoki aksiyalarni sotib olish majburiyatisiz ham muomalaga chiqaradi.

Depozitariylar ham O'zbekistonda mustaqillik tufayli vujudga keldi. Bu tizim ikki bosqichli bo'lib, birinchi bosqichdagi depozitariylar qimmatli qog'ozlarni saqlash, bo'larda faoliyatning muhim tizimi hisoblanadi. Ikkinchi bosqichda asosan nodavlat korxonalari, ularning muassislari shaklida huquqiy va jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Depozitariy asosan qimmatli qog'ozlarni saqlash va ularga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha faoliyatni olib boruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining muassasasidir.

Depozitariylar jahondagi rivojlangan mamlakatlarning hammasida mavjud bo'lib jamiyatga xizmat qiladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi vositachilar orqali amalga oshib kelgan. Bu vositachilarga brokerlar, dillerlar, treyder va boshqalarini misol keltirish mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar ham ishtirok etadi, chunki banklar

oladigan foydasi boshqa sohalardan kamayib ketganligi tufayli, ular qimmatli qog'ozlarni sotib oladi va bozordagi baholarni kuzatib borgan holda, bozor baholari ularga foyda keltiradigan paytda qimmatli qog'ozlarni sotib yaxshigina foyda ko'radi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi vositachilar.
2. Brokerlarning vazifalari.
3. Dillerlarning vazifalari.
4. Investitsiya institutlari.
5. Investitsiya fondlari.
6. Investitsiya maslahatchilari.
7. Depozitariy.
8. O'zbekistonda depozitariy tizimi.
9. «Uttizlik guruhi».
10. Depozitariylarning turlari.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Бизнесинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир.-Т.: // Халқ сўзи, 2005.

4. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. –Т.: Консаудитинформ, 2001.

3. Котов В. Операционная деятельность банков на рынке ценных бумаг. Бозор, пул ва кредит.-Т.:2004.№7-8.

4. Синицына Н.М. Рынок ценных бумаг.-М.: 2004.

5. Рыночные преобразования и развитие предпринимательства.-Т.: 2002.

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) – Referatlar to'plami.

## V BOB FOND BIRJALARI VA NOBIRJA OPERATSIYALARI

### 5.1. Fond birjasi

Dunyoda birinchi birjalar 1566 yilda Londonda paydo bo'lgan. Keyinchalik 1608 yilda Amsterdam tovar birjalari tashkil etildi.

Umuman tovar birjalari o'sib borgan sari ularning safidan alohida birjalar ajralib chiqdi. Bu fond birjarini vujudga kelishini zarur qilib qo'ydi.

Iqtisodchi olimlar birinchi fond birjasining vujudga kelishini 1592 yildan hisoblab dastlab Antverpenda faoliyat ko'rsatadigan birjaga qimmatli qog'ozlarni sotish uchun tavsiya etilganligi va ularning narxini e'lon qilinganligini asos deb olmoqdalar.

Jahondagi eng yirik birjalardan biri 1792 yili Nyu-York shahrida fond birjasi shaklida barpo etildi. Olimlarning ta'kidlashicha fond birjalarining rivojlanish bosqichlari eng kamida 200 yillar davom etdi.

Fond birjasi deb qimmatli qog'ozlarni sotuvchi bilan, uni oluvchi xaridorning vositachilar yordamida bir-biri bilan uchrashadigan joy deb qarash kerak.

Birja boshqa bozorlardan farq qilib, uyushgan bozor hisoblanadi. Bu bozorning asosiy tovari qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar sotuvga ma'lum tekshiruvlardan o'tkazilgandan keyin qism-qismlarga bo'linib savdoga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham fond birjasi mustaqillikka erishilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil yanvardagi Farmoniga muvofiq shu yili 8 aprelda tashkil etildi.

Birjaning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- muntazam faoliyat ko'rsatuvchi qimmatli qog'ozlar bozorini barpo etish;
- qimmatli qog'ozlarning narxlarini belgilab berish;
- birjadagi moliyaviy vositachilar muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar to'g'risida axborot berish;
- fond birjasida faoliyat ko'rsatadigan moliyaviy vositachilarni tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash;
- fond birjasida savdo qilish qoidalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Toshkent respublika fond birjasining tashkiliy strukturasi quyidagilardan iborat:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- taftish komissiyasi;
- kuzatuvchi kengash;
- boshqaruv;
- boshqaruv raisi va h.k.larni misol tariqasida keltirish mumkin.

Fond birjasining a'zolari avvalo qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchilar yoki qimmatli qog'ozlarni sotuvchilar fond birjasini a'zosi bo'lavermaydilar. Birjaga a'zo bo'lish uchun ruxsat bo'lish kerak. Shuning uchun ham birja a'zosi bo'lish uchun fond birjasidan brokerlik joylarini sotib olgan huquqiy, jismoniy va horijiy

yuridik, jismoniy shaxslar a'zo bo'lishi mumkin.

O'z xizmat vazifasini bajarib turgan davlat hokimiyati hamda davlat boshqaruvi proko'ratura, sud idoralari, ularning mansabdor shaxslari fond birjasiga a'zo bo'la olmaydilar.

Birja a'zosidan ma'lum vaqtga brokerlik joylarini arendaga olgan huquqiy va jismoniy shaxslar birjaga belgilangan muddatga vaqtinchalik a'zo bo'lishlari mumkin.

Fond birjasining a'zolari O'zbekistonda amal qilayotgan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlarga rioya etishlari kerak. Birjaga to'lanishi lozim bo'lgan a'zolik badallarini to'lab borishlari kerak. Birjaning ishida odob etikasiga rioya qilishi kerak. Tijorat sirlarini, o'z mijozlarining va birja haqidagi yopiq axborotlarini oshkor yetmasliklari kerak.

## 5.2. Jahondagi yirik fond birjalari

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori asosan fond birjalari hisoblanadi. Fond birjalari qimmatli qog'ozlarni sotadigan va sotib oladigan joy bo'lib, AQSHdek rivojlangan mamlakatda hammasi bo'lib 13 ta fond birjasi faoliyat ko'rsatib, kelishuvlar asosida tezkorlik bilan qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini amalga oshirmoqdalar.

AQSH birjalari orasida Nyu-York fond birjasi yetakchi o'rin tutadi. Bu fond birjasida aksiya operatsiyalarining 70 foizi realizatsiya qilinmoqda. Aksiyadorlar soni esa o'sib borib, hozirgi kunda ularning umumiy soni 60 mln.dan oshib ketdi.

Ayni paytda AQSH birjalari ekspertlarining hisoblariga ko'ra, mamlakatda 100 mln. aholi aksiyalarni sotib olish imkoniyatiga egadir.

Nyu-York fond birjasi tarkibida 1366 ta a'zo bo'lib, shulardan 523 tasi xususiy korporatsiyalarning manfaatlarini himoya qiladi. Bu birjada qariyb 140 ta a'zo o'z nomidan ish ko'radi. Birjada joy uchun to'lovlar 35 ming dollardan, 500 hatto 700 ming dollarni tashkil etadi.

AQSHda boshqa birjalar ham mavjud. Bo'lardan Boston, Chikago, San-Fransisko, Los-Anjeles, Yangi Orlean, Filodelfiya kabi shaharlarda bu birjalar joylashgan. Bo'lar ham qimmatli qog'ozlar bilan aktiv faoliyat olib boradi.

AQSH iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar mamlakat iqtisodiyotiga yangi mablag'larni safarbar etish orqali ishlab chiqarishni rivojiga va bir qancha ijtimoiy muammolarni hal etilishiga olib kelinayotganligi diqqatga sazovordir.

Fond birjalarining vatani deb hisoblangan Angliyada mamlakat hududida 22 ta fond birjasi mavjud bo'lib, ularning eng yirik London fond birjasidir.

Mamlakat ichida qimmatli qog'ozlar bilan olib borilayotgan operatsiyalarning 60 foizidan ortig'ini London fond birjasi amalga oshiradi. Bundan tashqari London dunyodagi yirik moliyaviy markazlardan biri hisoblanadi.

London fond birjasining faoliyat boshlaganiga 211 yil bo'ldi. Shular bilan bir

qatorida mamlakatning boshqa shaharlarida ham fond birjalari faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, Liverpool, Manchester, Glazgo va boshqalar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirmoqdalar.

Yevropada rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Germaniyada fond birjalari soni 8 tani tashkil etadi.

Eng yirik fond birjasi Germaniyaning Frankfurt Mayn shahrida joylashgan va bu shahar Yevropadagi sanoat va moliyaviy markazlardan biri hisoblanadi. Germaniyada fond birjalari boshqa shaharlarda ham faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Gamburg, Myunxen, Dyuseldorf, Shtutgart va boshqa shaharlaridagi fond birjalarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlardan yana biri Kanada bo'lib, bu mamlakatda 5 ta fond birjasi qimmatli qog'ozlar bo'yicha aktiv faoliyat yuritmoqda.

Kanadaning eng yirik fond birjasi Monreal, Toronto, Kalgari va boshqa shaharlarda joylashgan.

Mamlakat bo'yicha qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining 90 foizi Monreal, Toronto fond birjalari orqali realizatsiya qilinmoqda.

Kanada keyingi yillarda mamlakatdagi barcha fond birjalarini isloh etib, iqtisodiy yuksaklikka erishdi va o'z kapitalini mamlakat tashqarisidagi mavqeini mustahkamlash uchun aktiv faoliyat olib bormoqda. Kanada hukumati mamlakat sanoati rivojiga pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozori orqali safarbar qilib, iqtisodiy taraqqiyotda yuksak natijalarga erishdi.

Italiyada fond birjalari davlat muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu mamlakatda fond birjalari faoliyatini moliya vazirligi, mahalliy savdo va maxsus organlar, kompaniyalar va birjalar ishi bo'yicha tuzilgan milliy komissiya nazorat qiladi.

Italiyadagi yirik fond birjalaridan biri Milan shahrida joylashgan. Milan fond birjasida 500 ga yaqin qimmatli qog'ozlar turi realizatsiyasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning 3G<sup>4</sup>1 qismini aksiyalar tashkil etadi.

Italiya iqtisodining rivojiga qimmatli qog'ozlarning realizatsiyasidan kelgan mablag' samarali ta'sir etmoqda.

Yaponiyada ham fond birjalari mavjud bo'lib, bo'larning orasida Tokio fond birjasi yetakchilik qilmoqda. Bu birjada 124 ta kompaniya a'zo bo'lib, bo'lardan 24 tasi Horijiy kompaniyalardir.

Yaponiyada hammasi bo'lib 9 ta fond birjasi mavjuddir. Bu yerdagi fond birjalari o'zini boshqaruvchi tashkilot bo'lib, ijtimoiy manfaatlariga xizmat qilish uchun tashkil etilgan.

Yaponiyada fond bozorining asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- doimiy o'tkazilib turiladigan auksion asosida sotish va sotib olish yo'lga qo'yilgan;

- malakali tekshiruvdan o'tgan aksiyalar sotuvga qo'yiladi;

- to'lov markaziy kliring tizimi orqali amalga oshiriladi.

Jahondagi yirik fond birjalari tajribasidan O'zbekistonda foydalanish zaruriyatga aylanishi kerak deb o'ylaymiz va horij tajribasidan foydalanish respublika

hududidagi birjalarni va undagi qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini rivojlanishiga olib keladi.

### 5.3. Nobirjaviy bozor tushunchasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida birjaviy bozor bilan nobirjaviy bozor ham faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lib qoldi.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, nobirja bozorlarida ayrim bitimlar amalga oshirilishi mumkin:

- fond birjalarida ro'yxatga olinmagan qimmatli qog'ozlar bilan vositachilar orqali;

- fond birjalariga a'zo bo'lmagan firmalar bilan qimmatli qog'ozlar yirik partiyalari bo'yicha oldi-sotdi yuzasidan shartnomalar tuzish;

- kompyuter sistemasi vositachilarni chetlab o'tish.

Agar biz nobirja bozoriga tarif beradigan bo'lsak, nobirja bozori birjadan tashqarida yuzaga keladigan operatsiyalarni o'z ichiga oladigan jarayon hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qimmatli qog'ozlarning stixiyali bozori o'z xarakteriga ko'ra bitimlarni tuzish qoidalari, qimmatli qog'ozlarga va qatnashchilariga talablar belgilanmagan savdolar ixtiyoriy ravishda sotuvchining va xaridorning o'zaro shaxsiy aloqalari asosida amalga oshiriladi. Bu yerda tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi axborotni tarqatish tizimi tuzilmagan.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlarni sotish «ko'cha» bozori orqali amalga oshirilgan. Bu yerda obligatsiyalarning, aksiyalarning talaygina qismi sotilgan.

«Ko'cha» bozorida aksiyalarni tarqatishda dillerlar asosiy vazifani bajarib kelganlar. O'zbekistonda ham nobirja bozorlari shakllanmoqda. Hozirgi kunda u brokerlik idoralari, investitsiya kompaniyalari va xususiy lashtirish milliy investitsiya fondi hamda ularning shaxobchalari orqali tashkil etilgan.

Nobirja bozorida sotuvchilar taklif etgan baholar va qimmatli qog'ozlarni sotib olish joyiga kirish tartibi to'g'risida ochiq e'lon beriladi.

Taklif etilgan baholarga va boshqa qo'yilgan shartlarga rozilik bildirgan xaridorlar avvalo o'zlarining maqsadlarini bayon etib hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olishlari mumkin. Bu jarayon Naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan, gohida qimmatli qog'ozlarni taqsimlash shaxobchasida Naqd pul bilan amalga oshiriladi.

Bu bozorda sotuvchilar o'zlari oshkor qilgan baholarda har qanday xaridor bilan bitimlar tuzishga majbur bo'ladilar.

Nobirjaviy bozorda sotuvchilar o'rtasida va sotib oluvchilar o'rtasida raqobat mavjud bo'lmaydi, balki qimmatli qog'ozlarni sotishni yangi turlarini taklif qilish, dillerlik bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

#### Qisqacha xulosalar

Respublikada fond birjalarining vujudga kelish, mustaqillik tufayli amalga oshdi. Dunyoda birinchi birjalar 1566 yili Londonda paydo bo'ldi, O'zbekistonda fond

birjalari 1994 yil yanvarda tashkil etilib, hozirgi paytda faoliyat olib bormoqda.

Birja doimiy faoliyat olib boradigan qimmatli qog'ozlarni sotadigan bozordir. Birjada asosan joylar sotiladi. Hamma ham to'g'ridan-to'g'ri birjaga a'zo bo'la olmaydi, chunki birjaning a'zosi bo'lishi uchun birja faoliyatiga doir qoidalarni o'rganish va unga amal qilish lozimdir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Fond birjasi nima?
2. Jahondagi yirik fond birjalari.
3. Fond birjasi qatnashchilari.
4. Fond birjasidagi savdo-sotiq ishlari.
5. Fond birjasida brokerlarning ish yuritishi.
6. Fond birjasida dillerlarning ish yuritishi.
7. Fond birjasini boshqaruvchi organlar kimlar.
8. Nobirja bozori nima?
9. Nobirja bozorining ishtirokchilari.
10. Birjadagi qonun-qoidalar.

“Aqliy hujum” usuli - har bir dars jarayonida muammolarni hal qilishda qo'llanishi mumkin. Bu usul katta miqdordagi g'oyalarni yig'ilish, talabalarni ayni bir hil fikrlar energiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. U qatnashchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi hamda berilgan har qanday muammoga ko'p sonli yechimlar topishda yordam beradi. Erkinlik beriladi, kim nima desa hech kim indamaydi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. – Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. -Т.: // Халқ сўзи.

2. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва суғурта муаммолари. –Т.: ТДИУ, 2001.

3. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. –Т.: Консаудитинформ, 2001.

4. Рынок ценных бумаг и его финансовые институты.-М.: 2004.

5. Ценных бумаг. Шпаргалка.-М.: 2004.

[www.mf.o'z](http://www.mf.o'z) – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.o'z](http://www.gov.o'z) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.o'z](http://www.edu.o'z) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) – Referatlar to'plami.



## VI BOB

### QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI TARTIBGA SOLISH

#### 6.1. Davlat tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar bozoriga taalluqli bo‘lgan xujjatlarda qimmatli qog‘ozlarni fond bozori orqali sotish, ularning haqiqiylikni tekshirib ko‘rish va qimmatli qog‘ozlar bozorida nayrangbozlik, aldamchilik va boshqa tovlamachiliklarga chek qo‘yish hamda bu hodisalar yuz berganda yuqoridagi qonunbuzarlarga qarshi chora-tadbirlar qo‘llash ko‘rsatilgan.

Bizning respublikamizda ham Horijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda mamlakatdagi real sharoitni hisobga olib, fond bozorini tartibga solish bo‘yicha turli qonun-qoidalar qabul qilingan. Jumladan

«Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilgan qonuni va «Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat ko‘rsatish mexanizmi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda qabul qilgan qonuni hamda «Qimmatli qog‘ozlar bozorini faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazini tashkil etish masalalari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 30 martdagi 126-sonli qarori va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ma‘lumki qimmatli qog‘ozlar bozori tarixidan ma‘lumki, bu bozorda savdo qilish o‘ziga hos xususiyatlarga ega bo‘lgan dastlabki davrlarda Yevropada qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilishda tovlamachilik, nayrangbozlik, aldoqchilik juda rivojlanib ketgan. Natijada jamiyatda iqtisodiy tanglik vujudga kelib, aholi tomonidan davlat vakillariga noroziliklar bildirilgan. Masalan, 1930 yillarda AQSHning Nyu-York fond birjasidagi «Qora kuch» nomi bilan bo‘lib o‘tgan tanglik 1998 yil 17 avgustda Rossiya qimmatli qog‘ozlarni fond birjasida sotishdagi omadsizlik bunga misol bo‘lishi mumkin.

Agar fond birjasida qimmatli qog‘ozlar bozori davlat tomonidan tartibga solinmasa, bu bozorda olib borilayotgan faoliyat samarasiz bo‘lishi mumkin. Birinchi navbatda qimmatli qog‘ozlar bozorida olib borilayotgan

faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘z navbatida:

- qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi me‘yoriy xujjatlar majmuasini vujudga keltirish va uni takomillashtirib borish talab etiladi;

- qimmatli qog‘ozlar bozori a‘zolarining oddiy ishtirokchilaridan hatto davlat organlarigacha bo‘lgan qatnashchilarni qonunga rioya qilishlarini nazorat qilish zarurdir;

- qimmatli qog‘ozlar bozorida sarmoyadorlarning huquqlarini himoya qilish.

Qimmatli qog‘ozlar bozori qatnashchilarining o‘zaro munosabatlarini qonun talablari asosida tashkil qilish, umuman qimmatli qog‘ozlar bozorining davlat tomonidan tartibga solinishi bu bozorni xato va kamchiliklarsiz ishlashini, oldi-sotdi jarayonlarini tartibli olib borish, savdo hamda fond bozori tashkilotchilarini samarali ishlashini ta‘minlab berish va qonun-qoidalarni so‘zsiz bajarish talab qilinadi.

Horij tajribasida qimmatli qog'ozlar bozori davlat idoralari tomonidan va birjani o'z-o'zini tartibga solish va nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishning boshqa modeli vakolatlarni katta qismini o'z-o'zini nazorat qilishga berib, ammo davlat asosiy nazoratchi sifatida o'z vazifasini bajarishi kerak.

Davlat qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat etishda qonun chiqarishni amalga oshiradi.

Davlat qimmatli qog'ozlar bozorida ham sarmoyador, ham emitent sifatida faoliyat olib boradi. Bu sharoitda davlatning o'zi qo'yilgan qonun talablarini idora vakillari bajarishi kerak.

Umuman respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozorini Moliya vazirligi, Markaziy bank, qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi va boshqalardan iborat.

## **6.2. Qimmatli qog'ozlar bozorida o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar**

Horijiy mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori davlat tomonidan nazorat qilinishi bilan birga, shu bozorning ishtirokchilarini ham o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlari mavjud bo'lib, bo'lar fond bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadi.

O'z navbatida bo'larga brokerlarni kiritish mumkin va dillerlarning notijorat birlashmasi faoliyatini kiritishimiz mumkin.

Avvalo, brokerlar dillerlarning tashkilotlari, birinchi navbatda fond boyliklari bilan o'z manfaatlari nuqtai nazaridan savdo qilishni amalga oshirsalar, shu bilan birga o'zlarini himoyalash maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshiradilar.

Fond bozorini tartibga solish usullaridan biri fond birjasining o'zidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fond birjalarining ishtirokchilarini o'zini-o'zi tartibga solib turuvchi tashkilotlari ko'payib boradi.

O'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar quyidagi vazifalarni bajarishi muhim hisoblanadi:

- qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatmoqchi bo'lgan malakali a'zolarining malakalarini talab darajasida bo'lishini tekshirib ko'rish;

- fond bozorida faoliyat ko'rsatadigan malakali a'zolarini o'qitish va malakasini oshirish talab qilinadi;

- birjadan tashqaridagi qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishda shartnomalar tuzishni qonun-qoidalarini ishlab chiqish;

- ikki tomon o'rtasidagi janjalli muammolarni qonuniy yo'llar bilan yechishni amalga oshirish;

- qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatni tartibga soluvchi tashkilotlarni nazorat qilish, agar bu tashkilotlar qoidani bussa, ularga ma'muriy choralar qo'llash.

Biz sanab o'tgan o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlarni qiladigan nazorati respublikada amal qilayotgan qonunlar va Moliya Vazirligi qabul qilgan me'yoriy xujjatlar talabi asosida bo'lishi kerak.

Ma'lumki rivojlangan mamlakatlarda muomaladagi qimmatli qog'ozlar va fuqarolik huquqiy shartnomalari bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlarni so'ndirish bilan bog'liq munosabatlar davlat tomonidan tartibga solinadi.

Shular bilan bir qatorda investitsiya bitimlarini imzolashda mulkiy nuqtai nazaridan paydo bo'ladigan ayrim muammolar davlat tomonidan tartibga solib boriladi.

Umuman qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilari sarmoyadorlar, investitsiya muassasalari, emitentlar va shunga o'xshashlar qonunda ko'rsatilganidek, fuqarolik munosabatlarining subyekti tarzida qaraladi.

Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq narx mulkka bo'lgan huquq, daromad darajasining turlicha bo'lishi hamda boshqa operatsiyalar mamlakatdagi mavjud qonunchilik talabi bo'yicha ko'riladi.

Respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bilan bog'liq qonunlarni davlat vujudga kelgan sharoitlarini hisobga olib, vaqti-vaqti bilan o'zgartirishlar hamda qo'shimchalar kiritadi va eskirgan qonundagi moddalar bekor qilinadi.

Shunday hollar bo'ladi, qimmatli qog'ozlar bozorida ayrim emitent qimmatli qog'ozlarning narxi juda pasayib ketishi tufayli tadbirkor zarar ko'rish ehtimoli sezilganda qimmatli qog'ozlar bozorida davlat vakili ahvolni o'rganib chiqib, tadbirkorlarni katta talofat ko'rishdan himoyalash chora-tadbirlarini izlab topadi va uni amalga oshiradi. Bu tajriba bozor ishtirokchilarini qonunga bo'lgan ishonchlarini yanada mustahkamlaydi.

### **6.3. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishni takomillashtirish**

Jahon tajribasidan ma'lumki qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishni takomillashtirish, avvalo qonun xujjatlarini takomillashtirishdan boshlanadi.

Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri Amerika Qo'shma Shtatlarida qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha qonunchilik takomillashtirib kelingan. Qonunlarni ishlab chiqishda har bir Shtatning xususiyatlari hisobga olingan va unga moslab qonunlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasida ham qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soladigan qator qonunlar mustaqillik tufayli qabul qilindi. Jumladan, «Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatishini tartibga solish va uni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 7 sentyabrdagi 351-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar haqidagi qonun

hujjatlarini rasmiylashtirish va ularni buzganligi uchun jazo choralarini qo'llash to'g'risida Nizom 1998 yil 22 mayda 439 raqami bilan ro'yxatga olingan hamda Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutlarini lisenziyalash Nizomi, 1999

yil 13 yanvarda 593 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida ham qator chora-tadbirlar ko'rilgan.

Mamlakatimizda davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 126-sonli qaroriga ya'ni, bu qaror 1996 yil 30 martda qabul qilingan bo'lib, unga binoan maxsus markaz tashkil etildi. Bu markaz o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oliy Majlis xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo'yicha o'z nizomiga binoan boshqarib boradi.

Markazning asosiy vazifasi davlatning mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va uni nazorat qilish hamda boshqarish siyosatini hayotga tadbiq qilish mamlakatimizda chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish, bozor ishtirokchilarini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlab borish, xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorida O'zbekistonning manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish, bu yerda investorlarning manfaati e'tiborga olinadi, ularning faoliyati bilan mamlakat aholisi xabardor qilib turiladi. Bu markaz qimmatli qog'ozlar bozorining infrastrukturasi yaratishi hayotiy zaruriyatdir.

Markaz avvalo respublikamizdagi qimmatli qog'ozlarni muomalada bo'lish hamda qimmatli qog'ozlar bilan faoliyat olib boradiganlarga lisenziya berish va qimmatli qog'ozlar bozoridagi qonun-qoidalarga rioya qilish hamda qimmatli qog'ozlar bozoridagi tijorat banklarining faoliyati ustidan nazorat qilib turadi.

Shular bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini mamlakatimizda muvofiqlashtirish, nazorat qilish va boshqarish huquqlariga ega. Bu markaz qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatadigan malakali hodimlarni tayyorlashni amalga oshiradi hamda bozordagi qonun-qoidalarni buzgan ishtirokchilarni qonun yo'li bilan faoliyat ko'rsatishdan chetlashtirish va ularning faoliyatini to'xtatish huquqiga ega.

Umuman bu markaz hatto fuqarolarga ham qimmatli qog'ozlar bilan ishlash huquqini beruvchi malaka oshirishga o'rgatishni amalga oshiradi. Bu markaz ishtirokchilarini fond bozoridagi operatsiyalarda qoidalarni bo'zgan ishtirokchilarning lisenziyasini olib qo'yibchi fond birjasidagi operatsiyalarni vaqtinchalik to'xtatib qo'yishi va qonunchilik bo'yicha o'zining takliflari bilan chiqib qonundagi rivojlanishga to'sqinlik qiladigan bandlarni yangilari bilan o'zgartirishni taklif qilish huquqini o'zida bu markaz saqlab kelmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish davlat tamonidan amalga oshirilib kelmoqda. Davlat qimmatli qog'ozlar bozorini amal qilayotgan qonunlar asosida tartibga soladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishda o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar mavjud bo'lib, ularni vazifalari: qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatuvchilarining malakasini oshirish, ishlab turgan tajribali hodimlarni qayta tayyorlashni amalga oshiradi.

Qimmatli qohozlar bozorini tartibga solishni takomillashtirishda birjalarni ishlarini yaxshi tashkil qilish, hodimlarni qayta tayyorlashni muntazam ravishda olib borish zuriyatidir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun.
2. Qimmatli qog'ozlarni tekshirish usullari.
3. Davlat tomonidan boshqaruvchi organlar.
4. O'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlar.
5. Davlatning qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi siyosati.
6. Fond birjasining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tashkilot.
7. Qimmatli qog'ozlar bozorida nimalar taqiqlanadi?.
8. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi ko'riladigan jazolar.
9. Qarorlarni kimlar bajarishi majburiydir?
10. Qonunga taklifni qanday kiritish mumkin?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ахунова Г.Н., Боев Х.И. Иқтисодийни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш.-Т.

2. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва суғурта муоммалари.- Т.: ТДИУ.2001.

3. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. –Т.: Консаудитинформ, 2001.

4. Боев Х.И. Организация и управление социальной защитой население в Узбекистане.-М.: Экономика и финансы.2001.

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) – Referatlar to'plami.

## VII BOB

### QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI MOLIVAVIY VOSITACHILAR

#### 7.1. Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi moliyaviy vositachilar tavsifi

Qimmatli qog‘ozlar bozorida moliyaviy vositachilar ishtirok etadi.

Jahon tajribasidan ma’lumki, bozor sharoitida juda ko‘p ishlar vositachilar yordamida bitkaziladi. Qimmatli qog‘ozlar bozorida moliyaviy kompaniyalar ma’lum bir doirada tanlab olingan korxonalarni shatnomaga asosan pul mablag‘lari bilan ta’minlaydilar.

Moliyaviy kompaniyalar korxonalarining rivojiga pul ajratadilar. Ularning asosiy maqsadi korxonalar faoliyatidan o‘z foydalarini chiqarib olish, korxonani o‘z mulkiga aylantirishga harakat qilmaydilar.

Adabiyotlarda moliyaviy kompaniyalar to‘g‘risida turli hil ta’riflar berilgan. Bularning ichida haqiqatga yaqinroq‘i iqtisodiy adabiyotlarda keyingi yillarda e’lon qilingan ta’riflar quyidagicha:

Moliyaviy kompaniya ayrim umumiy iqtisodiy belgilar asosida tanlab olingan ishlab chiqarish korxonalarini bitimlarga rioya qilgan holda pul mablag‘i bilan ta’minlab turuvchi investitsiya kompaniyasi deb tushunish maqsadga muvofiqdir.

G‘arb mamlakatlarida moliyaviy kompaniyani holding kompaniyasidan farqini quyidagicha tushuntiradi, bu yerda pul bilan ta’minlanib turgan kompaniyalar aksiyalarni nazorat paketiga ega bo‘la olmaydi. Gap shundaki, moliyaviy kompaniyalar korxonani sotib olish emas, balki ularning rivojlanishiga yordam ko‘rsatib foydaga ega bo‘lishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yadilar.

O‘z navbatida moliyaviy guruhlar ham to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Moliyaviy guruhlar o‘zaro bog‘langan umumiy yo‘nalish bo‘yicha faoliyat olib boradigan korxonalar majmuasidan tashkil topadi.

Bu tizimga kirgan korxonalar huquqiy jihatdan mustaqil bo‘lib, o‘zaro bir-birlari bilan bitimlar asosida umumiy faoliyatni amalga oshiradilar.

Moliyaviy guruhlar korxonani boshqarish uchun va boshqarishni tashkil etish uchun mablag‘ sarflashni maqsad qilib qo‘ymaganlar, balki korxonani iqtisodiy jihatdan rivojlantirish orqali o‘z yordamlari evaziga foyda olish ularning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Moliyaviy vositachilar qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat olib borib, ular asosan yuqori likvidlikka ega bo‘lgan emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini sotib olib bozorning holatini kuzatib faoliyat yuritadilar. Chunki ular oladigan foydaning muhim qismi bozordagi baholar bilan bog‘liq.

Bugungi kunda respublikamizdagi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi vositachilarning soni ko‘payib bormoqda.

Moliyaviy vositachi bizning fikrimizcha asosan alohida fuqarolardan qabul qilib oladigan jamg‘armalarni ishlab chiqarish yo‘nalishidagi firmalarga kredit shaklida va ulardan kelgan mablag‘larni yangi binolar ko‘rishga, uskunalar olishga, ishlab chiqarishning boshqa vositalariga sarflovchi sifatida qarashimiz kerak.

## 7.2. Investitsiya institutlari va kompaniyalari

Nazariy jihatdan olib qaraganda investitsiya instituti avvalo qimmatli qog'ozlar bilan shug'ullanuvchi huquqiy shaxslardir.

Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutlarining juda ko'p turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Bular orasida eng ko'p tarqalgani investitsiya vositachisidir.

Investitsiya vositachilari ularning faoliyati qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik va dillerlik qilishdan iboratdir.

Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlar tuzilgan bitimlar asosida vositachilik shartnomasi yordamida va ularni bajarish bo'yicha ishonch qog'ozlari asosida ma'lum bir haq evaziga topshiriqlarni bajaradilar.

Brokerlar qimmatli qog'ozlar bozorida mijozlarning topshirig'iga binoan faoliyat olib boradi.

Shu bilan birga ularning o'z buyniga olgan majburiyatlari mavjud:

- ular mijoz tomonidan berilgan topshiriqlarni o'zlari shaxsan bajarishlari shart;
- mijozga bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha hisob berib turadilar;
- mijozning topshirig'ini bajargandan keyin ishonch qog'ozini hali muddati tugamasdan

turib topshirishi kerak;

- mijozlarning ko'rsatmasini bajarish uchun talab qilingan mablag'larni ulardan oladi, shuning hisobiga qimmatli qog'ozlarni sotib olish va rasmiylashtirish va boshqa topshiriqlarni bajaradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida dillerlar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularning faoliyati broker faoliyatidan farq qiladi.

Dillerlar qimmatli qog'ozlarni shartnoma asosida o'z pullariga sotib olishadi va bu qimmatli qog'ozlarning narxlarini kuzatib bozorda yuqori bahoda sotib, yaxshigina daromadga ega bo'ladi.

Dillerlar qimmatli qog'ozlar bozorida o'z bo'yinlariga majburiyat ham oladilar. Bu majburiyatlar qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bilan bog'liq.

Dillerlar qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha mijozlar bilan shartnomalar tuzishi yoki tuzmasligi ham mumkin. Ayrim hollarda dillerlar mijozlar tomonidan taklif qilingan narxlarda qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun shartnomalar tuzishadi.

Dillerlik yig'imi degan tushuncha mavjud bo'lib, buning asosini vositachilik, mukofot puli, maslahat uchun to'lov va boshqa manbalar tashkil qiladi.

Dillerlar qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish taklifi bilan murojaat qilgan mijozlar kelishgan holda bitim tuzadilar va bu bitimlarni bajarish uchun qonun talabiga binoan javobgar hisoblanadilar.

Dillerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar fond bozorida qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalardan foyda olish va o'z mavqelarini mustahkamlash uchun kurashadi.

### 7.3. Qimmatli qog'ozlar bozorida sug'urta kompaniyalarining faoliyati

Qimmatli qog'ozlar bozorida sug'urta kompaniyalari ham ishtirok etadi. Bu kompaniyalar jalb qilingan mablag'larni garovli kreditlarga korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlarini qo'lga kiritib, ulardan keladigan daromad hisobiga o'z foydalarini ko'paytiradi.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatda o'zlariga xos tamoyilga asoslanib, shartlarga binoan sug'urtalovchi huquqiy va jismoniy shaxs sifatida sug'urtalanuvchi bilan shartnoma asosida munosabatda bo'lib, shartnoma imzolanishi bilan sug'urta badallari sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tqaziladi.

Sug'urta kompaniyalari mulk shakliga ko'ra davlat, aksiyadorlik yoki xususiy bo'lib, ularning asosiy maqsadi qimmatli qog'ozlar bozoridan daromad olishdir.

Sug'urta to'voni ko'rilgan zarar uchun to'lanadi. Shu bilan birgalikda u sug'urta so'mmasi chegarasida to'lanishi kerak. Sug'urta so'mmasi chegarasida ko'rilgan zarar to'la qaytarib beriladi, ammo sug'urta so'mmasidan ortiq bo'lgan zarar qaytarilmaydi yoki to'lanmaydi.

Sug'urta shartnomasida sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchining javobgarligi belgilangan bo'lib, shartnomaga binoan sug'urta hodisasi yuz berganda shartnoma bo'yicha hisob-kitob amalga oshiriladi.

Sug'urta kompaniyalari tashkiliy jihatdan O'zbekiston Respublikasida davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi ko'rinishida barpo etilgan. Bunday kompaniyalardan «O'zbekinvest» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi, «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Respublikamizda milliy sug'urta bozori tashkil etilgan bo'lib, bu bozorda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatadigan hamma mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari ishtirok etib kelmoqda.

Sug'urta bozorida har bir sug'urta kompaniyasi sug'urta mahsulotlarini sotish, sug'urta xizmatlarini ko'rsatish va boshqa faoliyatlarni amalga oshirib kelayotganligi mamlakat iqtisodiyoti uchun ichki investitsiyaga mablag' to'plash sug'urta kompaniyalarining kelajakdagi vazifalariga aylanmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 25 ta sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lib, ularning jami Nizom kapitali 2005 yilning 6 oyida 12,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shu davrda jami sug'urta mukofotlari 21,8 mlrd. ni, jami sug'urta majburiyatlari 18 trln. so'mni, jami sug'urta koplamlari 1,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublikamizda «O'zAIG» sug'urta kompaniyasi, «Madad» sug'urta agentligi, «ALSKOM» aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi, «Toshkent-sug'urta», «Ishonch» sug'urta kompaniyasi, «O'zagrosug'urta» DASK va boshqa kompaniyalar sug'urta bozorida va qimmatli qog'ozlar bozorida aktiv faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda 2005 yilning 6 oy yakunlari bo'yicha respublikada faoliyat ko'rsatayotgan 25 ta sug'urta kompaniyasining 9 tasida chet el kapitali ishtirok etmoqda.

Hozirgi qonunchilik Horijiy investorlarni sug'urta korhanasiga investitsiya qilishga qulay shart-sharoitlar yaratib berdi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining 36 foizi Xorijiy investorlarga ega.



## **Qisqacha xulosalar**

Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachilar faoliyat olib boradi, ular yuqori likvidlikka ega bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olib bozorning holatini kuzatib faoliyat olib boradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachilarni bozordagi faoliyati yuqori darajada foyda olishni ko'zlab narxlarni kuzatib ish olib boradi, foyda kelishi aniq bo'lganda ular harakat qiladi.

Moliyaviy vositachilarga, moliyaviy kompaniyalarni, investitsiya institutlarini va boshqalarni keltirish mumkin.

Bozorda vositachilik bilan brokerlar, dillerlar va boshqalar ham shug'ullanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Moliyaviy kompaniya nima?
2. Moliyaviy guruh tarifi.
3. Moliyaviy kompaniyaning holdingdan farqi.
4. Investitsiya institutlari.
5. Moliyaviy broker.
6. Hisob-kitob kliring palatasi.
7. Balans passivi.
8. «Hususiy» vositalar manbai.
9. Dillerning vazifasi.
10. Investitsiya portfelini boshqarish.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустақкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. –Т.:

2. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. - Т.: 2001.

3. Ахунова Г.Н., Боев Х.И. Иқтисодиётни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш.-Т.

4. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва суғурта муоммалари.- Т.: ТДИУ.2001.

5. Синицына Н.М. Рынок ценных бумаг. –М.: 2004.

[www.mf.o'z](http://www.mf.o'z) – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.o'z](http://www.gov.o'z) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.o'z](http://www.edu.o'z) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) – Referatlar to'plami.

## VIII BOB

### BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI

#### 8.1. Birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozori emissiyasi

O‘zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat ko‘rsatish mexanizmi to‘g‘risida»gi qonuni 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan. Bu qonun talabiga binoan qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat ko‘rsatishini mexanizmlarini takomillashtirib borish orqali mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish mumkin deyilgan.

Respublika qimmatli qog‘ozlar bozori ikki qismga bo‘lib o‘rganiladi. Bu yerda qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozori degan tushuncha mavjud bo‘lib, buning mohiyatini ochib berishimiz kerak. Qimmatli qog‘ozlar bozorining birlamchi bozori deyilganda qaytadan emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarning dastlabki investorlarga joylashtiruvchi bozorni tushunish haqiqatga yaqindir.

Olimlar orasida qimmatli qog‘ozlar bozorining birlamchi bozor ekanligi to‘g‘risida yana shunday tushuncha ham mavjud. Qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozori qimmatli qog‘ozlarni birinchi sotib olgan egalari, huquqiy va jismoniy shaxslarga sotish uchun ularni birlamchi va yana qaytadan emissiya qilib hamda muomalaga joylashtirish tushuniladi deyishadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, qimmatli qog‘ozlarning joylashtirilishini amalga oshirish hamda ta’minlashni o‘zi ham bozor tushunchasi ma’nosini bildiradi.

Birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida avvalo davlat hamda munitsipal obligatsiyalar aksionerlik korxonalarining obligatsiyalari va boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish va ishtirok etishi tushuniladi.

Qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozoriga chiqarish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, buning uchun quyidagi muhim amallarni bajarishga to‘g‘ri keladi:

- buning uchun aksionerlik korxonasi ustav kapitalini qimmatli qog‘ozlarning chiqarilayotgan turini, qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishga kafolat beruvchi investitsiya bankini, auditorlik aksioner jamiyatini aksiyalar chiqarishi bo‘yicha qarorini;

- o‘z navbatida aksionerlik korxonasi uning rahbariyati investitsiya banki uchun yurist, auditorlar, birja bo‘yicha chiqariladigan qimmatli qog‘oz emissiya projektini qayd qilish arizasini tayyorlab berish kerak.

Shuni ta’kidlash joizki, birlamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida quyidagilar investorlar bo‘lishi mumkin, investitsiya banklari, investitsiya fondlari, investitsiya kompaniyalari, investitsiya institutlari, sug‘urta kompaniyalari, moliya-kredit tashkilotlari, tijorat banklari va boshqalar.

Qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozori bo‘yicha O‘zbekistonda 2005 yilning yanvariga qadar 19,7 mlrd. so‘mlik va 15,7 mln. aksiya sotildi va bu jarayonda 1034 ta emitentning qimmatli qog‘ozlari ishtirok etdi.

Birjada birlamchi qimmatli qog‘ozlarning yillik aylanmasi 61,4 foizini tashkil

etdi. Agar uning absolyut o'sishiga kelsak, birlamchi bozor 9 mlrd so'mni tashkil etdi. 2004 yil 25 mart hisobi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich

birlamchi qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarni sotish bo'yicha Surxondaryo viloyatidagi Sharof Rashidov nomli Sho'rchi don mahsulotlari aksionerlik jamiyati 67600 dona aksiya sotdi. Bitim har bir aksiya uchun 3315 so'mdan, jami 224,16 mln. so'mni tashkil etdi.

Birlamchi qimmatli qog'ozlar bo'yicha Agrosanoat kompleksi 24,7 foiz bilan birlamchi qimmatli qog'ozlarni bozorida aksiyalarni sotish bo'yicha birinchi o'rinni egallamoqda. Undan keyingi o'rinda qurilish 9,0 foiz, transport aloqalari 8,5 foizni tashkil etib kelmoqda.

## **8.2. Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori**

Respublikamiz Prezidenti 2006 yil 10 fevraldagi respublika iqtisodiyotini 2005 yildagi yakunlari bo'yicha bo'lib o'tgan yig'ilishda alohida ta'kidlab o'tdiki, korxonalarni aksiyalashtirish va aksiyalarni qaytadan sotish orqali xususiyashtirishni jadallashtirish mumkin va mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga erishish mumkin.

Davlatimiz rahbarining mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va liberlizatsiyalash bo'yicha hukumat tomonidan olib borayotgan siyosatni amalga oshirishda moliya bozorini rivojini ta'minlash uchun butun imkoniyatlarini yaratib berish va O'zbekistonni xalqaro moliyaviy markazlar bilan aloqasini mustahkamlashga alohida e'tiborni qaratish zarurligini ta'kidlab o'tganligi diqqatga sazovordir.

Shular bilan bir qatorda Prezidentimiz qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, sug'urta tizimini takomillashtirish, jamiyatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechishga va hayotimizni oldinga qarab katta odimlar tashlashini eslatib o'tdi.

Haqiqatdan ham qimmatli qog'ozlar bozorining rivoji mamlakat iqtisodiyotining oynasidir deyishadi.

Respublikamizda birlamchi qimmatli qog'ozlar bilan birgalikda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori ham amal qilib kelmoqda.

Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori bu egasi mavjud bo'lgan, dastlab sotib olingan, ammo talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularni qaytadan oldi-sottisini tashkil qilib beruvchi bozor tushunchasini tushunish mumkin.

Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining eng muhim funksiyalaridan biri talab va taklifdan kelib chiqib, qimmatli qog'ozlarni tezda sotib berishni tashkil qilishdan iborat bo'lmog'i darkor.

Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida oluvchi bilan sotuvchini uchratish bo'sh turgan kapitalni iqtisodiyotning pulga muxtoj sohalariga yo'naltirish, oluvchi bilan sotuvchi tomonlarning o'zaro manfaatlarini ta'minlash bu ikkilamchi bozorning muhim vazifalaridan hisoblanib kelinadi. Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida qanday qimmatli qog'ozlar birinchi navbatda sotilishi mumkin. Avvalo,

yuqori likvidlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar, ya'ni eng yuqori daromadga ega bo'lgan korxonalarining qimmatli qog'ozlari tezda sotilishi mumkin.

Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori mamlakatimizda birlamchi qimmatli qog'ozlar bozoriga tezlik bilan rivojlanib borish tendensiyasiga ega degan prognozlar mavjud edi. Umuman ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori ikki ko'rinishda bo'ladi:

- bo'lar birjaviy bozorga;
- nobirjaviy bozorga bo'linadi.

Ma'lumki, birjaviy bozor bu qonunlar asosida amal qiladigan bozor bo'lib, bu bozor boshqariladi. Qimmatli qog'ozlarni sotadigan joy fond birjasi hisoblanadi.

Fond birjasida qimmatli qog'ozlar belgilangan tartibda erkin holatda brokerlar, maklerlar, dillerlar tomonidan amalga oshiriladi.

Respublikamiz hududida fond birjalarining mustaqillik tufayli tashkil etilganligi O'zbekistonni ham jahondagi rivojlangan mamlakatlar bilan aloqasini mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda nobirjaviy qimmatli qog'ozlar bozori ham mavjud bo'lib, rivojlangan mamlakatlarning tajribalari bo'yicha nobirjaviy bozorlarda qimmatli qog'ozlarni sotish asosan fond birjasida qayd etilmagan qimmatli qog'ozlar nobirjaviy bozorda sotiladi. Bundan tashqari vositachilar yordamida fond birjasida qayd qilingan qimmatli qog'ozlar ham sotilishi mumkin. Buning sababi vositachilar fond birjalari belgilagan yuqori stavkani komission to'lovlardan ko'chish uchun shunday qilinadi. Chunki vositachilar birjaga komission to'lov to'lamay, ko'p mablag'ni o'zlari uchun tejash maqsadida shu jarayonni amalga oshiradilar.

Nobirjaviy bozorni ikki turga bo'lish mumkin:

- stixiyali bozor;
- dillerlar bozori.

### **8.3. Qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi o'rni**

Respublikamiz hukumatining 2006 yil 10 fevraldagi hisobot yig'ilishida mamlakatimizning 2005 yil iqtisodiy yakunlari bo'yicha erishilgan natijalarni muhokama qilishda Prezidentimiz Islom Karimov qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun mamlakatda davlat korxonalarini aksiyalashtirish va bu aksiyalarni qimmatli qog'ozlar bozorida sotib olingan mablag'ni yangi ish joylarini tashkil etishga, zamonaviy texnika sotib olishga, yangi texnika vositalarini harid qilib ularni ishlab chiqarishga yo'naltirish hayotiy zaruriyat ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Bu yig'ilishda yana ta'kidlandiki, respublikamiz iqtisodiyoti uchun qimmatli qog'ozlar bozori orqali yangi kapital mablag'lari to'planadi va u ishlab chiqarishga yo'naltirilishi natijasida respublikamizdagi ijtimoiy- iqtisodiy muammolar echila boradi.

Shu jumladan mamlakat ishlab chiqarish korxonalari uchun yangi ichki investitsiya manbalari paydo bo'ladi.

Shuningdek korxonadagi ishlovchilar aksiyalarni sotib olish orqali mulk egasiga aylana boradi. Chunki ular korxonada foydasiga sherik bo'ladi. Korxonaning yangi egasi aksiyadorlar hisoblanadi. Bu aksiyadorlar korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish, korxonani boshqarish, korxonada daromadini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida bevosita ishtirok etadilar.

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi o'zining ma'ruzasida «Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir».

«Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarimiz hamda mintaq va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar kuchli talab va raqobat, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni obyektiv shart qilib qo'ymoqda».

Jahon amaliyotidan ma'lumki, qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularni sotish, harid qilish, saqlash operatsiyalari banklar orqali amalga oshiriladi.

Ayniqsa qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotda tutgan o'rni nihoyahga bo'lib, bo'larda banklar ishtirok etadi.

Hozirgi kunda banklarning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan aksiyalar miqdori 25 mlrd. so'mdan oshib, respublikamiz qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning o'rni mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga aholining turli qatlamlarini jalb qilishning asosiy yo'llaridan biri ularning vaqtincha bo'sh turgan pullarini qimmatli qog'ozlar bozori orqali aktiv faoliyat ko'rsatishga erishish zarur.

Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini chiqarish to'g'risida» gi 1996 yil 26 martdagi 119-sonli qarori bilan muomala muddati uch oylik, 1997 yil 30 yanvardagi «1997 yilda O'zbekiston Respublikasining davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» gi 57-sonli qarori asosida muomala muddati olti oylik va joriy yilning sentyabridan muomala muddati to'qqiz oya bo'lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari joriy etildi.

Albatta hukumatimizning aholini mablag'larini inflyatsiyadan himoya qilish bilan bog'liq choralarni ko'rgan aholi daromadlarini himoya qilish imkoniyati davlat tomonidan ishlab chiqilganligi xalqning farovonligini oshirish yo'lidagi g'amxo'rlikdir.

Shu bilan birga aholining bo'sh turgan mablag'larini ishlab chiqarishga yo'naltirish orqali qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi.

Umuman qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozori iqtisodiyotda o'z o'rniga, o'z mavqeiga ega bo'lib, bu bozor har tomonlama rivojlanish tendensiyalariga egadir.

## Qisqacha xulosalar

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori, qimmatli qog'ozlarni birinchi sotib olgan egalari, huquqiy va jismoniy shaxslarga sotish tushuniladi.

Qimmatli qog'ozlarni bozorga chiqarish uchun aksionerlik jamiyatining ustav kapitali, qimmatli qog'ozlarning chiqarilayotgan turi, qimmatli qog'ozlarni joylashtirishga kafolat beruvchi bank va aksiyalar chiqarish bo'yicha qaror zarur bo'ladi.

Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori, bu egasi mavjud bo'lgan, dastlab sotib olingan, ammo talab va taklifdan kelib chiqib, ularni qaytadan sotib berishni tashkil qilib beruvchi bozordir.

### Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi.
2. Birlamchi qimmatli qog'ozlar bozori.
3. Ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori.
4. Qimmatli qog'ozlarning dastlabki joylashtirilishi.
5. Qimmatli qog'ozlarni qaytadan sotish.
6. Qimmatli qog'ozlarni qayta emissiya qilish.
7. Qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish.
8. Emissiya sindikati.
9. Nobirjaviy bozor.
10. Birjaviy bozor.

### Asosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. –Т.:

2. Ахунова Г.Н., Боев Х.И. Иқтисодийни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш.-Т.

3. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва суғурта муоммалари.- Т.: ТДИУ.2001.

4. Синицына Н.М. Рынок ценных бумаг. –М.: 2004.

5. Галанова В.А. Рынок ценных бумаг. –М.: 2004.

6. Маюгин В.И. Рынок ценных бумаг. –М.: 2003.

7. Колтынюк Б.А. Ценные бумаги. – М.: 2001.

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) – Referatlar to'plami.

## **IX BOB** **VALYUTA BOZORI**

### **9.1. Valyuta bozori tushunchasi**

Jahon iqtisodiy xo'jalik sistemasida har bir mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini belgilovchi omillardan biri mazkur mamlakatni o'zining milliy valyutasiga ega bo'lishi orqali davlat mustaqilligi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tan olinib kelingan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimovning 1994 yil 16 iyunda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida» gi Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi «so'm» 1994 yil 1 iyuldan boshlab muomalaga kiritildi.

Hozirgi kunda o'zbek so'mi dunyoning hamma mamlakatlari tomonidan tan olingan.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Milliy valyuta milliy iftihar, davlat mustaqilligining ramzi, suverin davlatga hos belgidir. Bu respublikaga tegishli umumiy boylik va mulkdir».

Prezidentimizning fikrlarini davom ettirib aytish mumkinki, o'zbek so'mini mamlakatimiz hududida muomalaga kiritish jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hayotida milliy valyuta, moliya-kredit, qimmatli qog'ozlar, tashqi iqtisodiy aloqalar butun mamlakat tizimida yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi.

Agar valyutaga tarif beradigan bo'lsak, «Valyuta bu mamlakatning pul birligi bo'lib, mamlakatdan tashqarida, ya'ni jahon bozorida amal qiladi». Hamma mamlakatlar uchun valyuta barqarorligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonda ham iqtisodiy rivojlanish jarayonida milliy valyutamizning barqarorligi va mamlakat ichki bozorida erkin almashuvi respublikadagi homashyo zaxiralari va turli mulkchilik korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar zaminida ta'minlanib kelmoqda Davlatimiz ko'rib kelayotgan chora-tadbirlar tufayli milliy valyutamizning qadr-qimmatini ko'tarilmoqda.

Ayrim iqtisodiy axborotlarda ta'kidlanishicha, respublikamizda jamlangan oltin, valyuta rezervlarimiz yetti oylik va undan ortiq muddatli importni ta'minlashi mumkin ekan.

Hozirgi kunda horij valyutasi mamlakatimizning hamma hududlarida almashtirilmoqda, buni milliy valyutamizning barqarorligini ta'minlash bo'yicha davlatimizning olib borayotgan valyuta siyosatining natijasi deb qarash mumkin.

Hukumatimiz olib borayotgan iqtisodiy siyosatda jahon bozoriga ko'proq tayyor tovarlar sotish hajmini ko'paytirib borish siyosati o'z natijalarini bermiqda, jumladan respublikamizda ishlab chiqarilayotgan hamkorlikdagi korxonalarining tayyor mahsulotlari qayta ishlanayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari va shular bilan bir qatorda paxta tolasi, mineral o'g'itlar, kimyoviy mahsulotlar, oziq-

ovqat mahsulotlari, meva-sabzavot hamda yarim tayyor mahsulotlarni horij mamlakatlariga sotib mamlakatimiz valyuta fondini boyitayotganligimiz fikrimizning dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Har bir korxonada, har bir kishi ishlab topgan so'mini qadrlashni o'rgangan taqdirdagina milliy valyuta real to'lov vositasiga aylanadi. Biz milliy valyutamizni hurmat qilishni, u bilan fahrlanishni, uni ehtiyot qilishni o'rganib olishimiz darkor. Valyuta - har bir fuqaro mehnatining o'lchovi va bahosidir. Bunga erishish uchun avvalo davlatimiz valyuta, kredit, moliya sohasida shunday faoliyat olib borishi lozimki, butun mamlakat hududida moliyaviy mablag'larni tejab, aniq maqsadlarni amalga oshirish uchun sarflash lozim. Kredit sohasida esa kreditga olingan pul mablag'lari ishlab chiqarishga sarflanishi, ishlab chiqarilgan sifatli tovarlar ichki va jahon bozorida realizatsiya qilinib, respublikamiz uchun katta foyda olishga qaratilgan bo'lishi zarur».

## 9.2. Valyuta munosabatlari va uning muammolari

Respublikamizda valyuta munosabatlarining rivojlanishiga asosiy ta'sirini davlatimizning olib borayotgan iqtisodiy siyosati va milliy valyuta-kredit munosabatlarining rivojini ta'minlash uchun ko'rayotgan chora-tadbirlaridir.

Respublikamizda tashkil etilgan valyuta-kredit tizimi asosan foyda keltirish, xususiyl, hamkorlikdagi mulk egalarning manfaatlarini o'zida ifoda etishi, aktiv faoliyat yuritishi orqali tashkil etilgan valyuta, moliya va kredit tizimi mamlakatni xalqaro miqyosida milliy valyutasining barqarorligini ta'minlaydi.

Valyuta-kredit munosabatlarining rivojlanishi uchun inflyatsiyani oldini olish choralarini ko'rish, ishsizlikning har qanday shakllarini tugatish, ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq imkoniyatlar bilan ishlashini ta'minlash davlat byudjeti kamomadiga barham berish, tashqi iqtisodiy aloqalarda teng balanslikka ega bo'lishni ta'minlash, hom-ashyo, yoqilg'i va boshqa mahsulotlarni sotishni tovar birjalari orqali amalga oshirilayotganligini qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Milliy valyutasini barqaror bo'lishiga olib keladi.

Respublikamizdagi milliy valyuta, moliya-kredit tizimi rivojlanib bormoqda. Uning barqarorligini ta'minlash uchun milliy valyutamizning orqasida tovarlar turishi kerak. Bu tovarlar jahon bozorida raqobatlashadigan, jumladan oltin, gaz kondensati, turli zamonaviy asbob-uskunalar, paxta mahsulotlari, meva, kiyim-kechak, tanqis hom-ashyolar eksportini ko'paytirishimiz zarur.

Shular bilan bir qatorda pul mablag'larini aholining qo'lida pul mablag'larining to'planib qolishini oldini olish maqsadida, turli uy-ro'zgor buyumlarini masalan, holodilnik, televizor, videomagnitafon, yengil avtomobil, yashash uchun uy-joylarni olish uchun kredit mexanizmini joriyl qilib, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori bilan mamlakatni ta'minlab turish zarur.



Respublika o'zining valyuta-moliya va kredit siyosatida rivojlangan mamlakatlar tajribasidan va mutahassislarning maslahatlaridan doimo foydalanishi zarur, chunki respublika mustaqil bo'lgunga qadar valyuta-moliya va kredit sohasida katta tajribaga ega emas edi. Hukumatni valyuta-moliya va kredit siyosati uchun Moliya Vazirligi javobgar bo'lishi hamda Markaziy bank ham operatsiyalarni bajaradigan markaz sifatida javobgar bo'lishi lozim. Umuman jahondagi rivojlangan AQSHdek mamlakatda valyuta-moliya va kredit munosabatlarini tartibga soladigan, boshqaradigan tashkilot rahbari mamlakatda Prezidentdan keyin ikkinchi kishi hisoblanadi. Bizning respublikada ham iqtisodiyotning eng muhim bug'ini - valyuta-moliya va kredit munosabatlarining ro'lini ko'tarib, javobgarligini oshirish yo'li bilan iqtisodiyotda tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin deb hisoblaymiz.

### 9.3. Valyuta barqarorligini ta'minlash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarga valyuta-moliya va kredit omillarining ta'siri kuchayib boradi. Valyuta-moliya va kredit munosabatlari asosida tashqi iqtisodiy aloqalar ham rivojlanib boradi.

Valyuta munosabatlari iqtisodiyotning eng muhim sohalari - tashqi savdo, horij mamlakatlarida respublikamiz yordami bilan ko'rilayotgan sanoat, qishloq ho'jaligi bo'yicha qurilish obyektlari, xizmat ko'rsatish, texnik yordam berish, fan-texnika, madaniyat, turizm, ishchi kuchlari eksporti, mamlakatda horij muassasalarini saqlab turish va boshqa sohalarda bo'yicha bo'ladigan hisoblar orqali olib boriladi. Bu manbalardan tushadigan valyuta mablag'lari mamlakat valyuta fondiga kelib tushadi.

Valyuta har bir mamlakatning pul birligi sifatida jahon bozorida oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish uchun dollar, marka, frank, funt sterling, iena va boshqa pullar yoki uning o'rmini bosuvchi oltin, kumush kabilar sifatida ishtirok etadi.

Valyuta ma'nosini yanada chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

- tovarlar qiymati darajasini o'lchash uchun foydalaniladigan pul birligi;
- mamlakatda qabul qilingan pul birligi, Horijiy davlatlarning pul birligi;
- muomala va to'lov ko'rinishidagi kredit vositasi (veksel, chek, aksiya, obligatsiya) va hokazo.

Valyuta - mamlakatning gerbi va gimni sifatida millatning erkinlik va mustaqillik ramzi hisoblanadi. Mamlakat gerbi va gimnidan farqli ravishda milliy valyutada mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro maydondagi obro'si, bu mamlakat hukumatiga millatini va xalqaro uyushmalarni ishonchi, o'tish davrida o'tqazilayotgan islohotlarga mustahkam ishonch aks etadi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, investitsiyalarni jumladan horij sarmoyalarini mamlakatga kirib kelishiga, tashqi savdo aloqalarini rivojlanishiga, kelgusida mamlakat iqtisodini yuksak sur'atlar bilan o'sishiga, shu davlatdagi fuqarolarni

farovonligining oshishiga ta'sir etadi. Shuning uchun har bir mamlakat o'z iqtisodiyotini rivojlanishida avvalo milliy valyuta kursini barqarorlashtirishni bosh vazifa deb hisoblab, asosiy e'tiborni shunga qaratadi.

O'zbekistonda valyutani tartibga solish borasidagi vaziyatni hisobga olib, milliy valyutani ayirboshlash kursi ko'ra bozoridagi ayirboshlash kursiga nisbatan pastligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bunday holatni yuzaga kelishining sababi ayirboshlash kursini belgilash ustidan va valyuta birjasida horij valyutasini sotib oluvchilarning qatnashish ustidan davlat tomonidan nazorat qilinishi va davlatni valyuta birjasida qatnashuvchi importyorlarni monopoliyat holatini ta'minlab berishidir.

### **Qisqacha xulosalar**

Valyuta bu mamlakatning pul birligi bo'lib, mamlakatdan tashqarida, ya'ni jahon bozorida amal qiladi.

O'zbekiston respublikasining milliy valyutasi "so'm" 1994 yil 1 iyuldan boshlab muomalaga kiritildi. Milliy valyuta milliy iftihor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga hos belgidir. Bu respublikaga tegishli umumiy boyluk va mulkdir.

Valyuta tovarlar qiymati darajasini o'lchash uchun foydalanilgan pul birligi, muomala va to'lov ko'rinishdagi kredit vositasi va hokazo.

Valyuta - mamlakatning gerbi va gimni sifatida millatning erkinlik va mustaqillik ramzi hisoblanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Valyuta nima?
2. Milliy valyuta.
3. Xalqaro valyuta.
4. Valyuta bozorlari.
5. Valyuta operatsiyalari.
6. Valyuta kursi.
7. Valyuta barqarorligi.
8. Valyuta munosabatlari.
9. Valyuta savdosi.
10. Rasmiy va norasmiy valyuta kursi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Бизнесинг бош мақсадимиз — жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир. —Т.: 2005.

2. Ахунова Г.Н., Боев Х.И. Иқтисодийни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш. -Т.:

3. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва сугурта муоммалари.- Т.: ТДИУ.2001.

4. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. –Т.: 2001.

5. Колтынюк Б.А. Ценные бумаги. – М.: Учебник, 2001.

[www.mf.o'z](http://www.mf.o'z) – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.o'z](http://www.gov.o'z) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.o'z](http://www.edu.o'z) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) – Referatlar to'plami.

## X BOB INVESTITSIYA BOZORI

### 10.1. Investitsiya bozorining mohiyati

Bozor munosabatlariga o'tish bosqichida davlatning olib borayotgan investitsiya siyosatini hayotga tadbiiq etish natijasida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yuksalish yuz bergan. Xalq ho'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiya mamlakatlar iqtisodini rivojlanishini ta'minlab, ichki iste'mol bozorini tovarlar bilan ta'minlashda va xalqaro savdo aloqalarining kengayishiga har tomonlama o'z hissasini qo'shgan.

Investitsiya lotincha «invest» so'zidan olingan bo'lib, «kiyintirmoq» kengroq ma'noda foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida va chet ellarda sanoat, qishloq ho'jaligi va boshqa tarmoqlarga uzoq muddatli mablag' solishni bildiradi. Jahon iqtisodiy ho'jalik sistemasining rivojlanishi xalqaro investitsiya bilan bog'liq bo'lib, 1980 yillarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiya solishda AQSH dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. o'z vaqtida AQSH iqtisodiyotiga dastlab Niderlandiya, keyinchalik Angliya, Kanada, Germaniya, Yaponiya investitsiyasi kuchli ta'sir etdi.

Xalqaro investitsiya 1978 yildan boshlab Xitoyga yo'naltirilishi tufayli bu mamlakat iqtisodiyoti dunyo bozoriga eng zamonaviy tovarlarni sotadigan va xalqaro ho'jalik sistemasida turli xizmatlarni ko'rsatib katta daromadga ega bo'lmoqda.

Hozirgi kunda investitsiya masalasi iqtisodiyotning dolzarb muammolariga aylanib qolganligi ma'lum.

Investitsiyani o'rganish uchun bizningcha avvalo uni belgilari bo'yicha turkumlash lozim deb hisoblaymiz.

Obyektlarga investitsiya mablag'larini solish bo'yicha real va moliyaviy investitsiyalarga bo'linadi:

- real investitsiyalar sanoat, qishloq ho'jaligi, qurilish va boshqalarga kapital qo'yish (sarflash) demakdir;

- moliyaviy investitsiya qimmatli qog'ozlarni chiqarish va realizatsiyasi bilan bog'liq ishlar uchun sarflanadigan mablag'lar tushuniladi.

Investitsiyalashda qatnashish xarakteriga ko'ra:

- to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar asosan obyekt aniq bo'lgan, ma'lum maqsadni amalga oshirish real bo'lgan taqdirda yo'naltiriladigan mablag'lardir;

- boshqa investitsiyalar - bo'lar vositachilar orqali obyektlarga solinadi (sarflanadi) va olingan daromad mijozlar o'rtasida taqsimlanadi.

Investitsiyalash davriga qarab qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi: qisqa muddatli investitsiyalar - bu bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli omonat sertifikatleri va boshqa qimmatli qog'ozlardir; uzoq muddatli investitsiyalar - bu bir yildan ortiq muddatlarga qo'yilgan kapital bo'lib, 2 yil, 2-3 yil, 3-5 yil va 5 yildan ortiq muddatlarga ham quyilishi mumkin.

Qisqacha qilib aytganda, investitsiya faoliyati investitsiya bozorini har tomonlama

o'rganish, uni prognozi (oldindan tahmin qilish) bilan uzviy bog'liqdir.

Investitsiya bozori - investitsiya tovarlari, qurilish materiallarining barcha turlari, ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismi, investitsiya xizmatlari demakdir. Investitsiya bozorining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: Talab, taklif, raqobat va baho. Bu elementlar doimo o'zgarib turadi, bu o'zgarish iqtisodiyotdagi va bozor ichidagi omillar ta'siri natijasida yuz beradi. Har bir investor uchun investitsiyaga bo'lgan talabni o'rganish, investitsiya bozorini tahlil etib, buning zaminida o'zining investitsiya dasturini ishlab chiqish zaruriyat hisoblanadi.

## 10.2. Investitsiya bozorining tuzilishi

Investitsiya bozori tuzilishiga ko'ra ikki qismdan iborat:

1. Real obyektlarni investitsiyalash bozori. Bu bozor tarkibiga,

- to'g'ridan-to'g'ri kapital mablag'larni solish bozori;
- xususiy lashtirilayotgan obyektlar bozori;
- ko'chmas mulk bozori;
- boshqa obyektlarni real investitsiyalash kabilar kiradi.

2. Moliyaviy investitsiyalash instrumentlari bozori fond bozori va pul bozoriga bo'linadi.

Investitsiya bozorining aktivlik darajasi uning elementlari - talab, taklif, baho, raqobat darajasi orasidagi nisbatga bog'liq bo'lib, uni bozor kon'yukturasini o'rganish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Jahon tajribasida mamlakatlarni iqtisodiy holatini va ba'zi mamlakatlarni investitsiyalarni o'ziga jalb etish darajasini aniqlash indiqatorlarini ishlab chiqilgan. Horijsda investitsiyani o'ziga jalb etuvchi mamlakatlar reytingi ekspertlar tomonidan o'rganilayotgan mamlakatni yarim yillik daromadi, ichki va tashqi qarzlari, kredit resurslari, qisqa muddatlari va uzoq muddatli investitsiyalash uchun ruxsatnomasi, investitsiyani iqtisodiy samaradorligi, siyosiy jihatdan risk (tavakkal qilish) kabi omillarga asosan aniqlanadi.

Investitsiya keng ma'noli bo'lib, jami investorlarning xususiy mablag'larini sarflash va baholashni o'zida aks ettiradi.

Investitsiya qo'yilgan mamlakatda o'zi uchun shart-sharoitlar yaratishga harakat qiladi.

Investitsiyalarni moliyalash kerak. Investitsiyalarni moliyalash uchun pul mablag'lari bevosita jamg'armalarning egalardan qarz oluvchilarga boradigan mablag' bilan bevosita moliyalash yo'llari kiradi.

Moliyalash ikki turga bo'linadi:

1. Kapital moliyalash. Kapital moliyalashda tadbirkor mablag'ini mulkning bir qismiga aylantirish hisobiga oladi.

2. Qarz olish yo'li bilan moliyalash. Bunda firma mablag'ini oldindan kelishuvga binoan ma'lum bir foiz to'lash hisobiga firmaga egalik qilishni qilmaslik uchun amalga oshirish va'dasi beriladi.

Investitsiyalar birinchi navbatda foyda keltiradigan regionlarga qo'yiladi.

Masalan, Janubiy Koreyaning O'zbekistonga qo'ygan investitsiyasi hozirgi kunda ham Janubiy Koreya uchun, ham O'zbekiston uchun katta foyda keltirmoqda. Bu investitsiya natijasida O'zbekistonda yangi ishchi joylari, ichki bozor uchun yordamchi qismlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan iqtisodchilarning prognozi bo'yicha Andijondagi «O'zDEU» korxonasi atrofida 600 dan ortiq avtomobillarni turli ehtiyot qismlarini ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar tashkil qilish mumkin ekan. Masalan Fransiyada, Angliyada, Amerikada va boshqa mamlakatlarda yirik korxonalar uchun asosiy zarur bo'lgan avtomobillarning ehtiyot qismlarini yordamchi korxonalar ishlab chiqarar ekan.

Horijiy mamlakatlarning bu tajribasini O'zbekistonda ham joriy qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Chunki O'zbekiston demografik jihatdan boshqa regionlardan ajralib turadigan mamlakatdir. Bu hududda ishsizlik boshqa joylarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Balog'at yoshiga etganlarni ish bilan ta'minlash uchun qo'shimcha investitsiya talab qilinadi. Ammo mamlakat bunday mablag'ni o'zining ichki rezervlari hisobidan amalga oshirishda qiynalishi mumkin. Shuning uchun Horijiy investorlarning mablag'larini O'zbekistonning turli regionlariga jalb qilish orqali aholini ish bilan ta'minlash muammosini yechishga erishish imkoniyati tug'iladi hamda ishlab chiqargan mahsulotlarning ma'lum qismi ichki bozorda realizatsiya qilinadi. Qolgan qismi tomonlarning kelishuviga binoan tashqi bozorda realizatsiya qilinishi mumkin. Bu ikki tomon uchun ham foydali bitim yoki kelishuv hisoblanadi.

Dunyodagi o'z vaqtida qoloq bo'lgan mamlakatlar Malayziya, Singapur, Indoneziya va Sharq mamalakatlari Horijiy rivojlangan mamlakatlar investitsiyasi yordamida o'zining iqtisodiy yuksalishiga erishgan.

Bizning regionimizda ham Horijiy mamlakatlarning investitsiyasi yangi foydali qazilma boyliklarini o'zlashtirishga hom-ashyoni qaytadan ishlab tovar holiga keltirishga va agrar sohada qishloq ho'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab tayyor va tayyor mahsulotlarga aylantirib, jahon bozorida sotish uchun ishlab chiqarishga yo'naltirilishi kerak.

### **10.3. Investitsiya bozorini prognoz qilish**

Investitsiya bozorini o'rganish asosida quyidagi prognozlar qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasi tabiiy qazilma boyliklari hali qazib olinmagan va o'zlashtirilmagan regionlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodchilarning tahminicha investitsiya aynan shu sohalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Buning uchun milliy daromad hissasidagi o'zgarish jang'armaga sarflanganligiga e'tiborni qaratish lozim.

Davlat mulkini xususiy lashtirish jarayonini kengaytirishga diqqat bilan yondoshish muhim deb o'ylaymiz.

Qimmatli qog'ozlar bozori, ya'ni fond bozoriga alohida e'tibor berish kerak.

Investitsiya faoliyatini va tadbirkorlikni soliqlar yordamida tartibga keltirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Makroiqtisodiyot darajasida olib borilgan

ko'zatlshlarga asoslanib investitsiya bozorining rivojini oldindan prognozlar asosida qaysi tarmoq investitsiyani o'ziga jalb qilishni oldindan tahminan aytib berish mumkin. Mamlakat bo'yicha viloyatlarni investitsiyani o'ziga jalb etish bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlarni tahlil etib,

keyin xulosalar chiqarish ijobiy natijalar berish mumkin:

- avvalo viloyatning umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasiga e'tibor berish zarur deb hisoblaymiz.

Buning uchun quyidagilarni o'rganish lozim:

- har bir tahlil etilayotgan viloyatning yalpi ichki mahsulot va yaratilayotgan milliy daromaddagi hissasini aniqlash kerak;

- jon boshiga ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi aniqlanishi zarur;

- viloyatning o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash darajasiga e'tibor berish;

- viloyatda o'rtacha ish haqi miqdori, jon boshiga sarflangan kapital mablag', turli mulk shaklidagi viloyatda joylashgan korxonalar va demografik jarayon ham tahlil etilishi darkor;

- viloyat aholisini mamlakat umumiy aholisi sonidagi egallab turgan o'rni, qishloq va shahar aholisi o'zaro nisbatiga e'tibor berish;

- aholini turli mulk shakllarida ish bilan bandlik hissasini aniqlash;

- ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholini malaka darajasini aniqlash;

- viloyatni ekologik, turli shakldagi jinoyatchilik darajasini ham o'rganib, investitsiyani shu viloyat uchun qay darajada kerakligini tahlil etish mumkin;

- viloyatda har 100000 kishi boshiga sodir etilayotgan iqtisodiy jinoyatlarning soni, barcha korxonalar ichida ekologik jihatdan zararli chiqindilar bilan havoni ifloslantirayotgan korxonalarning soni ko'rsatilishi kerak;

- tugatilmagan qurilish obyektlarini umumiy qurilishdagi o'rnini tahlil etish maqsadga muvofiq va h.k. Investitsiya bozorining rivojlanib borishi respublikada, avvalo investitsiya faoliyati uchun yaratilgan huquqiy imkoniyatlar va kafolatlar berilganligi, respublikada tinch siyosiy muhit yaratilganligi natijasida qisqa vaqt ichida mamlakatimiz hududida 80 dan ortiq mamlakatlarning investitsiyalari yordamida qo'shma korxonalar barpo etildi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida chet el sarmoyadorlari (investorlari) bilan hamkorlikda ishlaydigan 8061 korxonalar ro'yxatga olingan.

Umuman investitsiya bozoriga mamlakat miqyosida iqtisodiy rivojlanishni yuksalishiga va qisqa vaqt ichida iqtisodiy strukturaviy o'zgarishlar bo'lishiga har tomonlama ta'sir etadigan omil deb qarash lozim.

### **Qisqacha xulosalar**

Investitsiya bozori jahon xo'jaligini rivojiga ta'sir etadigan muhim omildir.

Investitsiyalar real va moliyaviy investitsiyalarga bo'linadi. Real investitsiyalar sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa sohalarga yo'naltiriladi.

Moliyaviy investitsiyalar qimmatli qog'ozlar chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq ishlar uchun sarflanadigan mablag'lardan iboratdir.

Investitsiyalarda qatnashish xarakteriga ko'ra:

A) to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, bo'lar obyekt aniq bo'lgan, ma'lum maqsadni amalga oshirishi real bo'lgan taqdirda yo'naltiriladigan mablag'lardir;

B) boshqa investitsiyalar, bo'lar vositachilar orqali obyektlarga solinadi va olingan daromad mijozlar

O'rtasida taqsimlanadi.

Investitsiya bozori - investitsiya tovarlari, qurilish materiallarining barcha turlari, ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismi, investitsiya xizmatlari demakdir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Investitsiya tushunchasi.
2. Real investitsiyalar.
3. Moliyaviy investitsiyalar.
4. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash.
5. Boshqa investitsiyalar.
6. Hususiy investitsiya.
7. Davlat investitsiyalar.
8. Hamkorlikdagi investitsiyalar.
9. Ichki investitsiyalar.
10. Tashqi investitsiyalar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ахунова Г.Н., Боев Х.И. Иқтисодийни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш. -Т.:

2. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва суғурта муоммалари.- Т.: ТДИУ.2001.

3. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. -Т.: 2001

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) — O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) — «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) — Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) — Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) — Referatlar to'plami.



## **XI BOB**

### **PUL BOZORI (QISQA MUDDATLI KAPITAL BOZORI)**

#### **10.1. Pul bozori tavsifi**

Jahon miqyosida pul bozorining paydo bo'lishi xalqaro kredit muomalasini har tomonlama rivojlanishi zaminida vujudga keldi. Jahondagi yirik pul bozorlari Amerika va Yevropada joylashgandir. Jahon pul bozorida tijorat banklari firmalar, xususiy shaxslarning qisqa muddatli pul mablag'lari davlat mablag'lari xarakterga xizmat ko'rsatadi, ma'lum muddatga yetishmayotgan vositalarni to'ldirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Pul bozori o'z mazmuniga va muddatiga ko'ra ko'pincha qisqa muddatli (bir yillik) kredit bozorini ssuda bozorining ma'lum qismi hisoblanadi.

Pul bozorining ishtirokchilari yuqori likvidlikka (asosan pullanadigan) ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar aylanma depozit daftarchalari, tijorat veksellari, munitsipal veksellar hisoblanadi.

Jamiyat miqyosida pul bozori davlat xarajatlarini kreditlash hamda byudjet kamomadini qoplash manbai bo'lsa, ikkinchidan pul bozori iqtisodiyotni boshqarishning asosiy obyektlaridan hisoblanadi.

Jamiyat miqyosida pul bozori birinchidan davlat xarajatlarini kreditlash hamda byudjet kamomadini qoplash manbai bo'lsa, ikkinchidan pul bozori iqtisodiyotni boshqarishning asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotining rivoji avvalo pul bilan chambarchas bog'liq bo'lib, pul tovarlarning tovaridir. Pulga hamma tovarlar ayirboshlanadi. Turli xizmatlar ko'rsatish, ya'ni pul hamma tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi alohida tovar hisoblanadi. Pul bozor iqtisodiyotining butun munosabatlarini mujassamlashtirgan holda bozor munosabatlarining rivojlanib borishi bilan pulning ahamiyati oshib boradi.

Pulning o'ziga hos-xususiyatlari bozor iqtisodiyoti sharoitida yaqqol ko'zga tashlanadi. Pul barcha tovarlarga va xizmatlarga ayira boshlanadigan muhim harid vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Pul jamiyatda boylik timsoli bo'lib ham ko'rinishi mumkin.

Bozor sharoitida pulning muhimligi uning mehnatni qiymat shaklida o'lchab beradigan vosita kabi xususiyatida namoyon bo'ladi.

Moliya bozorining muhim tarkibiy qismlaridan pul bozori o'z mazmuni va muddatiga ko'ra ko'pincha qisqa muddatli (bir yillik) kredit bozorini, ssuda kapitali bozorining ma'lum qismi hisoblanadi.

Jahon miqyosida pul bozorining paydo bo'lishi xalqaro kredit muomalasini har tomonlama rivojlanihi zaminida vujudga keladi.

Jahondagi yirik pul bozorlari o'zining mavqei bo'yicha dunyo iqtisodiyotiga ta'sir qilaoladi.

Jahon pul bozorida tijorat banklari, firmalar, xususiy shaxslarning qisqa muddatli pul mablag'lari, davlat mablag'lari harakatiga xizmat ko'rsatadi. Ma'lum

muddatga yetishmayotgan vositalarni to'ldirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Pul bozorining ishtirokchilari yuqori likvidlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarning aylanma aylanma depozit daftarchalari, tijorat veksellari, hazina veksellari, munitsipal veksellari, bank akseptlari hisoblanadi.

Jamiyat miqyosida pul bozori o'zining o'rni ega bo'lib, iqtisodiyotning rivojini ta'minlash uchun va iqtisodiyotni boshqarishda astoydil faoliyat ko'rsatadi.

Jumladan, O'zbekistonda pul bozorini normal faoliyat ko'rsatishi mamalakati iqtisodiyotini boshqarishga muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini banklarda mavjud bo'lishi va banklar iste'molchilarning talabiga binoan pulni ish haqi sifatida pensiya, stependiya va turli to'lovlar shaklida to'lashni amalga oshirish bilan bog'liq.

Hozirgi kunda respublikamizda banklardagi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini ta'minlash bu Markaziy Bankning olib borayotgan odilona siyosatiga bog'liq.

## 11.2. Pulning tabiati va vazifalari

Pul insoniyatning buyuk ixtiroalaridan biridir. Pul insonlarni sehrlaydi. Unga ega bo'lish uchun qiynalamiz va mehnat qilamiz.

Pul undan qutilish yo'li bilan foydalanish mumkin bo'lgan yagona tovardir. Ularni sarf yoki investitsiya qilmasangiz, yaxshi dam olishingiz uchun sharoit ham yaratmaydi.

Insonlar pul uchun hamma narsaga tayyor va pul ham, o'z navbatida, insonlar uchun hamma narsaga tayyor turadi.

«Pul» barcha iqtisodiy fanlarning eng asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Pul tizimining to'g'ri faoliyati daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishiga hayotiy kuch beradi. Yaxshi ishlayotgan pul tizimi ishlab chiqarish quvvatlari va bandlikdan to'liq foydalanish imkonini beradi. Aksincha, yomon ishlayotgan pul tizimi iqtisodiyotdagi inqirozlarga, ya'ni, ishsizlik, inflyatsiya va shuningdek, boshqa salbiy oqibatlariga olib keladi.

Demak, pul maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan tovar hisoblanib, barcha turdagi tovar va xizmatlarni ayirboshlash vositasidir. Pul tovarlar ayirboshlashda umumiy teng qiymatlilik (ekvivalent) ro'lini bajaradi dedik. Pullar maxsus xususiyatga - likvidlik (ya'ni, tez almashtirish) xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham ideal vosita hisoblanadi. Har qanday buyumning likvidligi uni sezilarsiz sarf-xarajatlar bilan boshqa buyumga ayirboshlanish qobiliyatini bildiradi. Ayirboshlash kengayishi bilan kredit pullar deb ataluvchi veksellar, banknotlar, cheklar, sertifikatlar, kredit kartochkalari va boshqa shunga o'xshash qimmatliklarga ega bo'lgan pullar paydo bo'ladi.

Pul o'z tabiatiga ko'ra, uch hil xususiyatga ega, ya'ni hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim harid vositasi, boylik timsoli, mehnatning qiymat shaklidagi o'lchov vositasi.

Umuman pulning beshta vazifasi mavjud:

1. Qiymat o'lchovi.
2. Ayirboshlash vositasi.
3. Xazina to'plash va jamgarish vositasi.

4. To'lov vositasi.

5. Jahon puli.

Pul o'z xizmati mazmuni va miqyosiga qarab turli toifalarga bo'linadi:

1. Xazina biletleri - bu pul oddiy muomalada ishlatiladi.

2. Banknot - kredit pullari - bunday pullar qarz olish va berish jarayonida ishlatiladi.

Pul tovar sifatida qiymatga ega. Hozirgi kunda qog'oz pullar, bank cheklari va kredit kartochkalaridan ham keng foydalanilmoqda.

Pul muomalasidagi eng asosiy masalalardan biri mamlakatda zarur bo'ladigan pul massasini aniqlash va muomalaga

chiqarish hisoblanadi. Bu esa makroiqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri bo'lib, davlat tomonidan tartibga

solib turiladi.

Pul massasi muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog'oz pullar (xazina va bank biletleri) ning jami miqdoriga teng. Muomaladagi pul vositalarining umumiy hajmiga Naqd puldan tashqari banklarning joriy hisobidagi pul vositalari (depozit) ham kiradi.

Pulning eng samarali miqdordagi massasi muomalada bo'lishini ta'minlash uning harid qobiliyati barqarorligini ta'minlaydi.

Pulning harid qobiliyati barqarorligi tovar va xizmatlar narxining keskin o'zgarishining oldini oladi.

Hozirgi sharoitda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorining hajmi kamayib ketdi. Natijada bu keyingi paytlarda ish haqini o'z vaqtida berish, pensiyalarni to'lash, stipendiya va nafaqalarni berishda turli muammolarni keltirib chiqardi.

Bu muammoni yechish uchun banklarda milliy valyutani kelib tushishini yo'lga qo'yish uchun horij valyutasini almashtirib berish punktlari tashkil etildi, bu o'z navbatida milliy valyutaning tanqisligini oldini olishga yordam berdi va yuqorida ko'rsatilgan muammolar o'z-o'zidan echilmoqda.

### **11.3. Iqtisodiyotda pul bozorining tutgan o'rni**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya bozori amal qiladi va faoliyat ko'rsatadi. Moliya bozorining muhim tarkibiy qismi bu pul bozori hisoblanadi.

Pul jamiyatda hal qiluvchi rolni o'ynay boshlaydi. Iqtisodiyotda pulning ro'li kuchayib borib, ayniqsa pulni harakatga keltirish, uning aylanishini tezlashtirish hamda pul keltiradigan daromad jamiyatga va fuqarolarga farovonlik keltiradi.

Taniqli davlat arboblardan biri pulni quyidagicha ta'riflaydi: «davlatning nufuzi askarlar soni va to'plar qudrati bilan emas, balki milliy valyuta mustahkamligi bilan belgilanadi». Haqiqatdan ham pul bozori va undagi asosiy tovar yuqori likvidlikka ega bo'lib, uni hamma sotib olishi, qayta sotishi, ishlab chiqarishga yo'naltirishi, jamg'arishi mumkin bo'ladi.

Pul agar aniq maqsad uchun daromad olishni ko'zlab ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishga ma'lum bir kashfiyot qilishga yo'naltirilsa, buning natijasida

yangi ish joylari, qo'shimcha mahsulot va oldingi bosqichga qaraganda ko'proq foydaga erishiladi.

Pulni samarali ishlashi iqtisodiyotni turg'unlik holatidan, bankrotlik bo'sag'asidan olib chiqishi mumkin.

Faqat pul aniq rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun sarflanishi kerak.

Pul jamiyatning iqtisodiy kategoriyasi bo'lib, hamma jamiyatlarda pul jamiyatning rivojiga indiqator sifatida ta'sir qilib kelgan.

Pulning ishlab chiqarishga yo'naltirilishi jamiyatning rivojiga olib keladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatlarda pulga doimo muhtojlik seziladi. Pul massasi haqida gapirish joizdir. Turli tuman mamlakatlar iqtisodiyotida tovarlar aylanishini va xizmatlar ko'rsatilishining asosiy maqsadi pul topish va bu pulni ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltiriladi.

Pul massasi tarkibi aktiv yoki passiv bo'lishi mumkin. Odamlar pulni ko'p hollarda Naqd mablag' sifatida tanga, qog'oz ko'pyuralari shaklida tasavvur qilib keladi.

Haqiqatda Naqd pullarning butun pul massasidagi o'rni ancha kamdir. Chunki korxonalar va boshqa tashkilotlar savdo shartnomalari orqali bo'ladigan hisob-kitoblar bank hisob varaqalaridan foydalangan holda to'lovlar pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining aholi omonatlaridagi va davlat sug'urtasi bo'yicha mablag'larni indeksatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori 1996 yil 12 fevralda qabul qilingan bo'lib, aynan shu qaror asosida 1992-95 yillardagi narxlar indeksatsiyasi o'sishini e'tiborga olib, aholi pul mablag'larini indeksatsiya qilish hajmlari ko'rsatib berildi.

Umuman olganda iqtisodiyotda pul harakatlantiruvchi ishlab chiqarishni rivojlanishga yo'naltiradigan, ishlab chiqarish omilini aktivlashtiradigan vositalardan biri sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida uning ro'li, mavqei va iqtisodiyotdagi o'rni oshib boradi.

O'zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlanib borishi moliya bozorining muhim qismi bo'lgan pul bozorining rivoji va uni takomillashtirish uchun davlatimiz hamma chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 10 fevralida 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi Islom Karimovni «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim» degan ma'ruzasida ta'kidladiki, «qimmatbaho qog'ozlar bozoriga qiziqishni ortirish va uning ishtirokchilari daromadlarini ko'paytirish maqsadida dividendlar va foizlar bo'yicha daromad solig'i 15 foizdan, 10 foizga tushirildi».

Umuman mamlakatimizda moliya bozorini rivojlantirish iqtisodiyotda pul bozorining ro'lini oshib borishini hisobga olib, muomala uchun zarur bo'lgan pulni mavjud bo'lishini ta'minlash va pulni qadrsizlanishining oldini olish har bir korxonaga va tashkilotning oldiga qo'ygan vazifalaridan biriga aylanishi lozim deb hisoblaymiz.

## **Qisqacha xulosalar**

Pul bozorining paydo bo'lishi xalqaro kredit muomalasini har tomonlama rivojlanishi zaminida vujudga keldi.

Pul bozori o'z mazmuniga va muddatiga ko'ra qisqa muddatli (bir yillik) kredit bozorini ssuda bozorining ma'lum qismi hisoblanadi.

Pul jamiyatda boylik timsoli bo'lib ko'rinadi. Jahon miqyosida pul bozorining paydo bo'lishi xalqaro kredit muomalasini har tomonlama rivojlanishi zaminida vujudga keldi.

Jahondagi yirik pul bozorlari o'zining mavqei bo'yicha dunyo iqtisodiyotiga ta'sir qila oladi.

Pul maxsus xususiyatga - likvidlik (tez almashtirish) xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham ideal vosita hisoblanadi. Hamma jamiyatlarda pul ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishning indiqatori bo'lib kelgan.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Pul O'zbekistonda qachon paydo bo'lgan?
2. Pul nima?
3. Pulning mohiyati.
4. Pul muomalasi.
5. Pul tizimi.
6. Qog'oz pullar.
7. Kredit pullarining ustuvor mavqei.
8. Pul chiqarish.
9. Pul massasi.
10. Naqd pullar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ахунова Г. Н., Боев Х.И. Иқтисодийни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш.-Т.
  2. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва суғурта муоммалари.- Т.: ТДИУ.2001.
  4. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. –Т.: 2001
  5. Синицына Н.М. Рынок ценных бумаг. –М.: 2004.
- [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;  
[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;  
[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;  
[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi  
[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;  
[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jurnalining sayti;  
[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;  
[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;  
[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) – Referatlar to'plami.

## **XII BOB SUG'URTA BOZORI**

### **12.1 Sug'urta bozori tushunchasi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik korxonalarining vujudga kelishi va rivojlanib borishi natijasida har bir mulk egasini o'z mulkini turli favquloddagi hodisalardan muhofaza qilish orqali zarar ko'rishdan saqlanishi uchun mulk va boshqa boyliklarni sug'urtalashga talab kuchayib boradi.

Ayniqsa 10 fevral 2006 yilda bo'lib o'tgan Prezidentimiz Islom Karimovning 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, respublikamizda so'nggi besh yilda sug'urta xizmatlari hajmi 5 martaga o'sgani bu fikrimizning isbotidir.

Sug'urta bozori pulli munosabatlardan iborat bo'lib, oldi-sotdi obyektii sifatida sug'urta xizmati hisoblanadi, buning asosida sug'urta xizmatiga bo'lgan talab va taklif yuzaga keladi. Sug'urta bozorining amal qilishi sug'urta xizmatiga bo'lgan talab va bu talablarni ta'minlashga qodir bo'lgan sug'urtachilarning soniga bog'liq bo'ladi.

Sug'urta tabiiy ofat va baxtsiz hodisalar natijasida yuz bergan zararlarni qoplash yo'li bilan turli mulk egalari va barcha fuqarolarning mulkiy va individual manfaatlarini himoya qilishning kafolatlangan usullaridan biri hisoblanadi. Sug'urta ishida barcha munosabatlar davlat hukumati organlari orqali amalga oshiriladi. Sug'urtalashda sug'urta qiluvchi tomon (tashkilot, kompaniya) va sug'urtalanuvchi tomon (fuqaro, korxonaa, firma) ishtirok etadi.

Sug'urta bozori turli tarkibiy bo'g'inlarni o'z ichiga olgan sug'urta munosabatlari tizimidir. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tizimining asosi bo'lib, aksioner jamiyatlari hisoblanadi. Sug'urta jamiyatlari ta'sischiilarning pul mablag'lari hisobidan tashkil topadi. Sug'urta operatsiyalarini bajarish uchun aksioner sug'urtachilar ta'sischiilarning pul mablag'lari hisobidan tashkil etilgan ustav fondidan tashqari rezerv fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi va sug'urta rezerv fondlarini tuzadilar.

Sug'urta operatsiyalarining pirovard natijasi sug'urta jamiyatining foydasi (kelib tushgan sug'urta badallari, sug'urta faoliyatidan va boshqa tadbirlardan kelgan daromadlar, sug'urta fondi mablag'larini investitsiyalash) va xarajatlar (sug'urta qoplash summasini va sug'urta summasini to'lash, zapas fondlarga ajratmalar va badallar rezervi, boshqa tadbirlar uchun ajratmalar va ish yuritish uchun xarajatlar) dan iborat bo'ladi.

Sug'urta xizmatlari sohasini kengaytirish uchun aksioner sug'urta jamiyatlari o'z bo'limlari, vakolatxonalari, agentliklari hamda filiallarini tashkii etish ishlarini amalga oshiradi.

Sug'urta bozorida sug'urta vositachilari (sug'urta agentlari va brokerlar) muhim rol o'ynaydi, ular bajaradigan funksiyalar bilan bir-biri bilan farq qiladi.

Sug'urta agenti sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblanadi.

Sug'urta brokeri sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug'urta brokeri hisoblanadi.

## 12.2 Sug'urtalash usullari va obyektlari

Sug'urtalash ikki xil usulda amalga oshiriladi:

1. Majburiy sug'urta.
2. Ixtiyoriy sug'urta.

Majburiy sug'urtalash bilan bog'liq munosabatlar moliya huquqi normalari asosida tartibga solib boriladi.

Ixtiyoriy sug'urtalash fuqarolar huquqi normalari va Moliya Vazirligining maxsus qoidalari orqali tartibga solinadi.

Majburiy tartibda quyidagilar sug'urta qilinadi:

- fuqarolarga tegishli bo'lgan mulklarning majburiy sug'urtasi (uy-joylar, qurilishlar, chorva mollari va boshqalar);
- ijaraga berilgan qurilishlar va binolarning majburiy sug'urtasi;
- passajirlarni baxtsiz hodisalardan davlat sug'urtasi (havo yo'llari, temir yo'llari, avtomobil transporti, dengiz yo'llarini sug'urta qilish);
- harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organidagi hodimlarni davlat tomonidan majburiy sug'urtasi;
- soliq inspeksiyasi hodimlarining davlat tomonidan majburiy sug'urtasi;
- inson hayoti uchun xavfli bo'lgan sohalarda ishlovchi hodimlarning majburiy sug'urtasi (o't uchiruvchilar, tog'-kon sanoatida portlatuvchilar, yangi texnikani sinovchilar);
- fuqarolarning majburiy tibbiy sug'urtasi.

Mulkiy va shaxsiy sug'urtaning boshqa turlari ixtiyoriy asosda amalga oshadi. Sug'urta manfaatlarini himoya qilish ixtiyoriy sug'urta bo'yicha bo'lib, sug'urta qilinuvchi oldida sug'urtachini tanlash imkoniyatlari yuzaga keladi.

Ularning munosabatlari esa tuzilgan sug'urta shartnomasi bilan tartibga solib boriladi.

Sug'urta obyektlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- shaxsiy sug'urta;
- mulkiy sug'urta;
- javobgarlik sug'urtasi;
- iqtisodiy risklar (tavakkallik) sug'urtasi.

Shaxsiy sug'urtaning obyekti bo'lib, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta tarkibiga hayot sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, pensiya sug'urtasi va tibbiyot sug'urtasi kiradi. Sug'urtaning bu turlari ayniqsa hayot sug'urtasi jamg'arma xarakteriga ega, ya'ni bunda fuqarolarning moliyaviy ta'minoti amalga oshiriladi.

Mulkiy sug'urtaning obyektlari bo'lib tovar-material boyliklari va sug'urtalanuvchining mulkiy manfaatlari hisoblanadi. Mulkiy sug'urta tarkibiga qishloq xo'jaligi sug'urtasi, turli mulk shaklidagi korxonalarining mulkiy sug'urtasi, fuqarolarning mulki sug'urtasi, ijaraga berilgan mulk sug'urtasi va transport sug'urtalari kiradi.

Sug'urta turlari ichida fuqarolarning javobgarlik sug'urtasi alohida o'rin tutadi. Fuqarolarning javobgarligi deganda zararning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan shaxsning majburiyati tushuniladi. Javobgarlik sug'urtasi mulkiy va shaxsiy sug'urta turlaridan farq qilib, sug'urtachining manfaatini, zararni qoplovchi sug'urta tashkilotini hamda zararni qoplashni kafolatlovchi uchinchi tomonning manfaatini ham himoya qiladi. Sug'urtaning bu turida avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi keng tarqalgan. Xalqaro amaliyotda advokatlar, vrachlar, xususiy mutaxassislarning professional javobgarlik sug'urtasi qo'llaniladi. Javobgarlik sug'urtasining keng qo'llanishi sug'urta xizmatlari bozorining to'la shakllanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Yangicha sharoitda foyda olish kafolatini ta'minlash iqtisodiy risklar (tavakkallik) sug'urtasining yangi turlarini yuzaga kelishini talab qiladi. Bozor ho'jaligida maxsus risklar sug'urtasiga quyidagilar kiradi:

- barcha risklardan sug'urta qilish (tabiiy ofatlardan zarar kutilgan hollarda);
- yong'indan sug'urta qilish;
- dengiz va aviatsiya sug'urtasi;
- foydani boy berishdan sug'urta qilish (ishlab chiqarishda buzilish hollari, mulkning ugiralanishi va boshqa yuqotishlar);
- yangi texnika va texnologiya bo'yicha risklar sug'urtasi;
- bank kreditlarini qarz oluvchini (zayomchi) to'lay olmaslik riskidan sug'urta qilish;
- garovli operatsiyalarni sug'urta qilish;
- birja operatsiyalari va bitimlarini sug'urta qilish;
- eksport kreditlarining sug'urtasi;
- inflyatsiyadan sug'urta qilish va h.k.

### **12.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta bozorining ro'li**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkka egalik qilish imkoniyatlari davlat tomonidan fuqarolarga qonuniy tarzda yaratib beriladi, jamiyatning har bir a'zosi uquvli, tadbirkor, harakatchan bo'lgan taqdirda boyib borishi natijasida mulkka egalik qilib mulkdorlar sinfi qatoriga qo'shilish imkoniyati bor. Shu bilan bir qatorga mulkni turli voqea va hodisalardan asrash, ularni kafolatlash zarurati mulkdorlarni sug'urta bozorida sug'urta xizmatlarini sotib olishga undaydi, bu o'z navbatida davlat tomonidan mamlakatda sug'urta bozorini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi



farmonini qabul qilinganligi mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish tashabbuskori davlat ekanligi diqqatga sazovordir.

Sug'urta bozorini mamlakatda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish hamda mamlakat miqyosida milliy sug'urta bozorini rivojlantirishdan davlat, jamiyat sug'urta kompaniyalari va fuqarolar manfaatdor ekanligidan dalolat beradi.

Milliy sug'urta bozorini rivojlantirishga qo'yilgan katta hissa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002 yil aprelda «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining yangi qonunining qabul qilinganligi bo'ldi. Yangi qabul qilingan qonunda Milliy sug'urta bozorini rivojlantirish va takomillashtirishga huquqiy imkoniyatlar yaratib berilgan, iqtisodiy jihatdan Milliy sug'urta kompaniyalarini turli mulk shaklida bo'lishi hamda bozorda sog'lom raqobat haqida davlat qonun yo'li bilan sug'urta kompaniyalariga hamma imkoniyatlarni yaratib berganligi milliy sug'urta bozorimizni jahon sug'urta bozoriga ulanishiga katta yo'l ochilganligidir.

Sug'urta inson hayotida, jamiyat miqyosida insonlarga moddiy yordam ko'rsatib kelayotgan eng qadimiy sohalaridan biri bo'lganligi bilan boshqa xizmat turlaridan alohida ajralib turadi.

Sug'urta jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga har tomonlama ta'sir etib kelganligi, jamiyat a'zolari shaxsan sug'urta jamiyatlari tomonidan berilgan moddiy yordamlardan foydalangan holda o'z hayotlarini yaxshilab farovon turmush sari yuksaltirishga erishib kelganlar.

Sug'urta bozori dunyodagi hamma mamlakatlar uchun nihoyatda muhim ekanligini hisobga olib unga ta'rif beradigan bo'lsak, sug'urta bozori mamlakatdagi mavjud sug'urta kompaniyalarining faol ravishda o'zlarining sug'urta xizmatlarini sug'urtalanuvchilarga taklif etish hamda oldi-sotdi jarayoni sifatida oluvchi va sotuvchi o'rtasida sug'urta shartnomasini imzolash tushuniladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, sug'urta bozorining faoliyat ko'rsatishi, bu qiymat qonuni talablarini hisobga olgan holda rivojlanishi mumkin bo'ladi. Sug'urta bozorining rivoji talab va taklif qonuni bilan bog'liq bo'lib, har qanday sug'urta kompaniyasining sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talab o'z navbatida sug'urtalovchilar tomonidan yangi sug'urta mahsulotlariga bo'lgan taklifi ham o'sishiga ta'sir etishi mumkin.

Sug'urta bozorini shakllantirish va uning faoliyatini rivojlantirish jamiyat uchun obyektiv zarurat hisoblanadi, jamiyat nomidan ish ko'ruvchi davlat bozordagi nosog'lom raqobat kurashning oldini oladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Sug'urta bozori pulli munosabatlardan iborat bo'lib, oldi-sotdi obykti sifatida sug'urta xizmati hisoblanadi, buning asosida sug'urta xizmatiga bo'lgan talab va taklif yuzaga keladi.

Sug'urta bozorida sug'urta vositachilari (sug'urta agentlari va brokerlari) muhim rol o'ynaydi, ular bajaradigan funksiyalar tufayli sug'urta shartnomalari to'ziladi.

Sug'urtalashni majburiy va ixtiyoriy turlari bo'lib, majburiy sug'urtalash hukumat qaroriga binoan o'tkaziladi, ixtiyoriy sug'urta ikki tomonning roziligi bilan shartnoma tuzish orqali amalga oshadi.

Sug'urta obyektlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: shaxsiy sug'urta, mulkiy sug'urta, javobgarlik sug'urtasi, iqtisodiy risklar (tavakkallik) sug'urtasi.

### **Nazorat va muhokaa uchun savollar**

1. Sug'urta bozori nima?
2. Sug'urta bozori ishtirokchilari.
3. Sug'urtalash usullari.
4. Sug'urta obyekti.
5. Sug'urta polisi nima?
6. Sug'urta agenti.
7. Sug'urta brokeri.
8. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun.
9. Sug'urta to'g'risidagi Prezident farmonlari.
10. Sug'urta turlari.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Фуломов С.С., Боев Х.И. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда ижтимоий суғурта. —Бухоро, 2004.
2. Фуломов С.С., Боев Х.И. Хорижий мамлакатлар суғурта тажрибасидан Ўзбекистонда фойдаланиш. —Бухоро, 2005.
3. Боев Х.И., Боева Ж.Б. Суғурта бозори. —Бухоро, 2003.
4. Боев Х.И., Боева Ж.Б. Мулкий ва шахсий суғурта. —Т.: 2003.  
[www.mf.uz](http://www.mf.uz) — O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;  
[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;  
[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;  
[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi  
[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;  
[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) — «Финансы» jurnalining sayti;  
[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) — Iqtisodiy terminlar;  
[www.books.ru](http://www.books.ru) — Kitoblar dunyosi;  
[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) — Referatlar to'plami.

## **XIII BOB FYUCHERS VA OPSION BOZORLARI**

### **13.1. Fyuchers bozori**

O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida» gi 1993 yilda qabul qilingan qonunda ko'rsatilganidek, mamlakatimiz hududida qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlarini chiqarish maqsadga muvofiq deb ko'rsatib qo'yilgan, bularga aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, bank sertifikatlari, veksellar, hosilaviy qimmatli qog'ozlar va xalqaro qimmatli qog'ozlardan iboratdir.

Biz hosilaviy qimmatli qog'ozlarning turlari haqida tuxtalamiz.

Bularga fyuchers, opsiyon, depozit tilxatlari, varrant, privatizatsiya cheklari hamda ko'ponlarni kiritish mumkin.

Shularning orasida fyuchersni qarab chiqishimiz kerak.

Fyuchers qimmatli qog'ozlarni belgilangan davrda tuzilgan bitim asosida o'rnatilgan narxda ma'lum bir vaqtda kelajakda sotib olishning majburiyligini anglatuvchi shartnoma hisoblanadi.

Fyuchers bu qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish to'g'risidagi xujjat bo'lmay, balki majburiy shartnomadir.

Fyuchers boshqa shartnomalardan farq qilgan holda bitim to'zilyotgan chogda tovar sotuvchini asos uchun kulida xujjat bo'lmaydi.

Demak tuzilgan kontrakt shartlarida qo'yilgan baho orqali savdo o'tqaziladigan kun bahosi o'rtasidagi farqqa tayangan holda jarayon davom etadi.

Gap shundaki, fyuchers bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri sotib olish amalga oshmasdan, balki qimmatli qog'ozlar bir necha aylanish jarayonlarini o'z boshlaridan kechirishlari mumkin.

Shuni tushunish lozimki, tovarning egasi tovarning o'zgaruvchan bahosini oldindan taxmin qilishi mumkin, yoki xato qilishi ham mumkin. Gohida foyda olishi, yoki zarar ko'rishi ehtimoli mavjud.

Fyuchers bo'yicha savdo qilish dastlab Amerika Qo'shma Shtatining Chikago tovar birjasida amalga oshdi. Bu yo'l bilan savdo qilish yordamida sarmoyadorlar va boshqa biznesmenlar birjaviy kurslarni tez-tez o'zgarib turishidan o'zlarini himoya qilishlari mumkin.

Fyuchers birjasining foydasi shundaki, unda mavjud bo'lgan sharoitdan kelib chikkan holda narxlarning tez o'zgarishi xavfi pasayadi, noqulay holatlar uchun ajratiladigan gamlama, kapital hajmini kamaytirishga erishiladi, sarflangan kapitalning pulga aylanish jarayoni va imkoniyati ko'payadi, muomala xarajatlari kamayadi.

Birjada fyuchers bo'yicha savdo tartibini o'tkazish brokerlik firmalari yordamida amalga oshadi. o'z navbatida mijozlar fyuchersdan tushgan daromad so'mmasini kling palatasidan olish mumkin gohida shunday bo'ladiki fyuchers operatsiyasidan zarar ko'rilganda ko'rilgan zarar so'mmasini kling palatasiga o'tkazish mumkin.

Shunday qilib fyuchers orqali bajariladigan va amalga oshiriladigan savdo-sotiq ikki tomonni olgan majburiyatlari qo'shimcha olgan kafolatlari sug'urtalanishi mumkin.

### 13.2. Opsion bozori

Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning turlari orasida opsion ham o'rin egallagan bo'lib, uning ma'nosi ma'lum bir qimmatli qog'ozni o'zaro kelishilgan baho bilan belgilangan vaqtda oldi-sotdi huquqini beradigan tomonlarning kelishib to'zgan shartnomasi ma'nosini bildiradi.

Agar bu jarayonni aksiyalar misolida ko'radigan bo'lsak, aksiyani sotish va olish jarayoni ikkita investorni ishtirokida amalga oshiriladi. Masalan bir dona aksiyani nominal qiymati 1000 so'm bo'lsa, aksiyani chiqaruvchi bilan tuzilgan opsion shartnomasiga ko'ra siz uch oy muddat bilan 100 ta aksiyani sotib olishingiz mumkin. Bunda siz har bir aksiyaga 1000 so'm miqdorida emas, balki 1100 so'm to'lash evaziga ega bo'ldingiz. Bunda siz aksiyani sotib oluvchi qo'shimcha 100 so'm to'lab 100 ta aksiya uchun opsionni 10000 so'mga sotib olasiz.

Opsion quyidagi turlarga bo'linishi mumkin, avvalo sotib olish uchun opsion, bunda aktivlar kursining oshib borishidan himoya qilish uchun xaridorning aktivlarini sotib olish huquqini beruvchi shartnomalardir.

Opsionning yana bir turi sotish uchun opsion. Bunda aktivlarning kursini pasayishdan himoya qilish uchun sotuvchiga o'zidagi aktivlarni sotish imkoniyatini beruvchi shartnomadir.

Opsionning boshqa bir turi bu kush opsion, bunda xaridorga aktivlarni bazis narxda sotib olish imkoni yaratiladi. Bu yerda shunday bir qoida bor, baravariga sotib olishga va sotishga yo'l qo'yilmaydi.

Umuman har qanday opsionning muddati ko'rsatilgan bo'lib, opsionning amal qilish muddati, davri belgilangan vaqtdan utib ketgan bo'lsa, bunday opsionlar qabul qilinmasligi mumkin.

Dunyoda opsionlarning amerikacha, yevropacha ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular o'ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan amerikacha opsion ko'rinishida bo'lsa, belgilangan muddat ichida xohlagan vaqtingizda ishlatishingiz mumkin. Mabodo yevropacha ko'rinishdagi opsion bo'lsa, bu ko'rsatilgan muddatda ishlatiladi va muddati utib ketsa qabul qilinmaydi.

Shuni qayd etish kerakki, opsionning sotish, olish jarayonida shartnoma yordamida faoliyat ko'rsatishi mavjud bo'ladi. Bu yerda kontrakt egasi sotuvchiga haq to'laydi. Buni ko'pinchalik mukofot deb yuritishadi.

Demak opsionni sotib olish orqali xaridor valyuta kursini oshishidan himoya qilingan bo'ladi. o'z navbatida xaridor ham foyda ko'rib, u valyuta kursini pasayishidan yutadi.

Fyuchers va opsion bozorlari birjaviy savdolarda zamonaviy usullardan hisoblanadi. Bu bilan iqtisodiyotda normal holatni saqlash, oluvchi bilan sotuvchi orasidagi majburiyatlarni bajarish va bozorda normal faoliyatni saqlashga erishish mumkin.

### 13.3. Fyuchers va opsiyon bozorlarini rivojlantirish

Fyuchers va opsiyon bozorlarini rivojlantirish orqali shartnoma bo'yicha tomonlarning majburiyatlarini bajarishlari kuchayadi.

Ayniqsa fyuchers savdosining xususiyati shundaki, shartnoma muddati tugagandan so'ng hisob-kitoblar boshlanadi, tovar yetkazib berish muddatlari belgilanadi. Albatta bo'lar kliring palatasi tomonidan amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kliring palatasi fyucherslar savdo-sotigida vositachi hamda sug'urtachi rolini ado etadi.

Bu yerda opsiyonning va fyuchersning bir-biridan farqini ko'rsatib berish kerak. Fyuchersning opsiondan farqi shundaki, fyuchers qimmatli qog'ozlar olish, sotish bo'yicha huquqni yaratib beradigan bitim bo'lib qolmay, balki bajarilishi aniq qilib qo'yilgan majburiyat hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy boshqariladigan bozor munosabatlarini o'zida shakllantirgan mamlakatlar moliyaviy bozorning eng zamonaviy turi bo'lgan fyuchers va opsiyon bozorini rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib kelmoqdalar.

Dunyoda bozorning bu turi dastlab Amerika Qo'shma Shtatlarida joriy etildi va bugungi kunda bizning mamlakatimizda ham rivojlangan jahon mamlakatlari tajribasidan foydalanish amalga oshirilmoqda.

Bizningcha bu qo'llanmadagi olg'a surilgan fyuchers va opsiyon bo'yicha fikrlar, takliflar va mulohazalar kelajakda respublikamizda moliya bozorini yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi degan umiddamiz.

#### **Qisqacha xulosalar**

Fyuchers va opsiyon bozorlari zamonaviy boshqariladigan bozor bo'lib, Yevropa va dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda bu bozor faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Fyuchers - bu qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish to'g'risidagi xujjat bo'lmay, balki majburiy shartnomadir.

Fyuchers bo'yicha savdo qilish dastlab, AQShning Chikago tovar birjasida amalga oshirilgan.

Birjada fyuchers bo'yicha savdo o'tkazish brokerlik firmalari yordamida amalga oshadi.

Opsiyon - bu ma'lum bir qimmatli qog'ozni o'zaro kelishilgan baho bilan belgilangan vaqtda oldi-sotdi huquqini beradigan tomonlarning kelishib to'zgan shartnomasi ma'nosini bildiradi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar tushunchasi.
2. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning turlari.
3. Opsiyon nima?
4. Opsiyonning turlari.
5. Opsiyonni qo'llashda kontrakt.

6. Fyuchers nima?
7. Fyuchers savdosi.
8. Fyuchers birjasi.
9. Fyuchers bilan opsiyoning bir-biri bilan farqi.
10. Chikago tovar birjasida qanday shartnoma qo'llangan?

### Asosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз — жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. —Т.: 2005 йил, 28 январь.

2 Ахунова Г.Н., Боев Х.И. Иқтисодийни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш. -Т.:

3 Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва сугурта муоммалари.- Т.: ТДИУ.2001.

4 Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. —Т.: 2001

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) — O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) — Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) — «Финансы» jurnalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) — Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) — Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) — Referatlar to'plami.

## XIV BOB

### SSUDA KAPITALI BOZORI (UZOQ MUDDATLI KAPITAL BOZORI)

#### 14.1. Ssuda kapitali va uning tavsifi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qarz olish va qarz berish ommaviylashib boradi, chunki juda ko'p g'oyalarni amalga oshirish uchun qarzni kredit shaklida berilishi jahon iqtisodiyoti tajribasidan ham ma'lum.

Iqtisodiy taraqqiyot kredit mablag'lari yordamida amalga oshib, kredit tizimini rivojlantirish jamiyat miqyosida ichki iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirishga erishilgan.

Kredit lotincha so'z bo'lib, ishonch, qarz, ssuda ma'nolarini bildiradi. Demak, ssuda kapitali bozori moliya bozorining tarkibiy qismi bo'lib, vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini to'anishi, bu mablag'larni ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanish protsesslari tushuniladi.

Ssuda kapitali bozor faoliyatiga kura quyidagilarga bo'linishi tahlil etilgan: pul bozoriga, kapital bozoriga bo'linadi.

Pul bozorida asosan aylanma kapital harakatiga xizmat ko'rsatiladi. Bu jarayon qisqa muddatli xarakterda bo'ladi.

Kapital bozori esa xarakteriga ko' asosiy kapital harakatini faollashtirish yoki asosiy kapitalni kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning imkoniyatlarini normal bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Umuman kapital bozori o'z ixtiyoridagi vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum muddatga o'zaro kelishuv asosida foydalanganligi uchun haq to'lash evaziga beriladigan ishonchli qarz demakdir.

Kapital bozori iqtisodiyotda muhim vazifalarni bajaradi. Jumladan, kredit formasida harakat qiladigan kapital pul vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi va to'lovlarda ishtirok etuvchi veksel, chek, sertifikatlar faoliyatini aktivlashtirish orqali bo'sh pullarni jamlab, bu pul mablag'larini ishlab chiqarish sohasiga safarbar etadi.

Kapital bozorida kredit jamiyat miqyosida bo'sh turgan pul mablag'larini harakatga keltiradi, o'z egaloriga va undan foydalanuvchilarga hamda davlat xazinasiga foyda keltiradi. Kredit mablag'lari iqtisodiyotning turli tarmoqlari orasida qayta taqsimlanishga hamda ishlab chiqarish zahiralarni tarmoqdan-tarmoqqa oqib o'tishiga olib keladi.

Kredit orqali iqtisodiy subyektlar va jamiyatning rivojlanishi, muomala jarayoni tezlashishi va daromadlarning o'shi yuberadi.

Ma'lumki, kreditning mohiyati uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Birinchi vazifasi, pul mablag'larining qaytarilishi sharti asosida taqsimlanishi, ya'ni taqsimlash vazifasi. Kreditning taqsimlash vazifasi mablag'larning tuplanishi va joylashishida namoyon bo'lib, kredit asosida qaytarish sharti bilan pul mablag'larining taqsimlanishi amalga oshadi. Bu vazifa korxonalar va tashkilotlarga, ularning talablarini qondirish uchun mablag'larni vaqtincha muddatga berish

jarayonida yo'zaga keladi. Shu asosda korxonalar zaruriy aylanma kapitali va investitsiya uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlanadi.

Ikkinchidan, muomalada kredit vositalarini yo'zaga keltirish va naqd pullarni joylashtirish, ya'ni emission vazifa. Kreditning bu vazifasi uning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, kreditlash jarayonida to'lov vositalari harakat qiladi. Pul mablag'lari naqd pulli va naqd pulsiz shaklida harakat qiladi. Bu vazifa naqd pullarni joylashtirish asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda ham ko'rinadi.

Uchinchidan, iqtisodiy subyektlar faoliyatining samaradorligi ustidan nazorat urnatish, ya'ni nazorat vazifasi. Kredit munosabatlari orqali zayomchi va kreditorlar faoliyati kuzatib boriladi. Xo'jalik subyektlarining to'lovga qobiliyatligi va olingan kreditni to'lashga qobiliyatligi baholanadi. Kreditlash tamoyillariga amal qilishi nazorat qilinadi. Har qanday kreditor bank, tadbirkor yoki xususiy shaxs ssuda berish orqali zayomchini (qarz oluvchi) holatini tekshiradi va qarzni o'z vaqtida qaytarilishi uchun harakat qiladi. Barcha kredit operatsiyalari yuridik jihatdan mamlakatning fuqaro'lik qonunlari asosida olib boriladi. Jamiatda kredit iqtisodiyotning turli tarmoqlarida pul mablag'larini to'plash va qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Ushbu munosabatlar taqsimlash xarakterida bo'lib, kredit harakati bilan bog'liqdir. Kredit munosabatlari davomida kreditor va zayomchilar bir qancha majburiyatlarni bajaradi. Fuqarolik huquqlarda kreditni kredit shartnomasiga ko'ra berish majburiyati bankni yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarning majburiyatlari hamda kreditning muddati, miqdori va shartlar tomonlar o'rtasida kelishishi belgilab berilgan. Agar qarzdor to'lovga qobiliyatsiz bo'lsa, kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan bo'lsa, shartnomada ko'rsatilgan ba'zi hollarda kreditor keyingi navbatda kredit berishdan voz kyechish huquqiga ega.

Kredit shartnomasiga ko'ra kreditor qarz beruvchi, qarz oluvchiga pul yoki mulkni to'la foydalanish va operativ boshqarish uchun beradi. qarz oluvchi esa ko'rsatilgan muddatda, shu pul so'mmasini qaytarish majburiyatini oladi. qarzdand foyda olganligi uchun foiz yoki shartnomada ko'rsatilgan boshqa narsa olinadi. Foiz miqdori tomonlarning kelishuviga binoan belgilanadi. Kredit faqat qarz ko'rinishida emas, balki avans, oldindan to'lov, tovarlar uchun to'lov ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Bo'lar oldi-sotdi shartnomasida o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Kredit bitimlarining amalga oshishida asosiy tamoillarga rioya qilish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Bu tamoyillar asosida ssuda fondi mablag'larini qaytib kelish harakati ta'minlanishi lozim. Kredit tamoyillariga ko'ra qarzlarni berish va qaytarib berish tartibi belgilanadi. Ularni texnik jihatdan va xujjatlar asosida rasmiylashtirish amalga oshiriladi. Kreditor va zayomchilarni operativ hisob ishlari tashkil etiladi.

Ssuda kapitali bozorida kredit munosabatlari o'zining asosiy tamoyillariga ega.

Birinchidan, qaytarilish tamoyili kreditning mohiyatini ifoda etadi. Kreditga



berilgan mablag'lar qaytarilishi shart bo'lib, qaytarib berishning iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning o'zluksiz doiraviy aylanishi hisoblanadi. Ssudani qaytarish muddatida ularni naqd holda qaytarish shart hisoblanadi. Kredit iqtisodiy munosabatlarning belgilangan tizimi sifatida boshqa pulli munosabatlardan farq qiladi, ya'ni pulning harakati qaytarib berish sharti bilan amalga oshadi. Bunday kredit munosabatlarida kreditning mohiyati namoyon bo'ladi. qatarilish tamoyili kreditning muddatligiga asoslanadi.

Ssuda fondidan mablag'lar faqat foydalanilmasdan, balki ssudalarning qaytarilishi hisobidan ssuda fondiga olingan kreditlar o'z muddatida qaytarilib tiklanishi lozim. Ssuda qaytarilishi va mablag'lar belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlash muhimdir. Muddatlilik belgilangan shartnoma doirasida ta'minlanishi shart. Bu kreditning asosiy sharti bo'lib, muhim tamoyil hisoblanadi. Kredit muddatini uzaytirish ayrim hollarda bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Kredit muddati qarz olingan mablag'lami qaysi davrgacha foydalanishni hisobga olgan holda belgilanadi.

Kreditlashning ikkinchi tamoyili - kreditning ta'minlanganligi. Bunda ssudaning ta'minlanganligi kredit bitimiga asosan zayomchidagi mulk, moddiy boyliklar zapasi, ko'chmas mulk yoki ishlab chiqarish xarajatlar so'mmasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditni o'z muddatida qaytarilishiga kafolat berilishini tasdiqlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot holda bo'lgan moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyilga asosan korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari ta'minlanadi. Ssudani o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun kreditorlar shartnomaga ko'ra zayomchidan (kredit oluvchi) garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni rasmiylashtiradilar. Agar kredit oluvchi kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda chora ko'riladi. Kredit miqdori garovga qo'yilgan mulk qiymatining 50 foizdan 90 foizigacha miqdorida beriladi.

Kreditlashning uchinchi tamoyili - kreditni maqsadli yo'naltirish. Bunda aniq xo'jalik jarayonlarini kredit bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Kreditni maqsadli yo'naltirish tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini rejada ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflash vazifasini yuklaydi hamda mablag'lar ko'rsatilgan maqsaddan boshqa maqsad uchun sarflanishi cheklangan. Ba'zida shunday hollar bo'ladi, korxonada rejadan ortiq miqdorda kredit olishi zarur bo'lib qoladi, ya'ni korxonada rejasi oshirib bajarilishi, mahsulot realizatsiyasi kechikishi hollari va ko'zda tutilmagan holatlar bo'lishi mumkin (yong'in, tabiiy ofat va hokazo). O'zoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish obyektlari va asbob-uskunalarini sotib olish uchun beriladi. Kreditlar kredit rejalariga ko'ra beriladi.

Iqtisodiyotda kredit resurslarini rejali taqsimlanishida bu tamoyil muhim ahamiyatga ega. Kreditni maqsadli yo'naltirish kredit miqdorini tartibga solish usullariga bog'liq. Bular quyidagilar:

- limitlashtirish;

- nazorat raqamlarini belgilash;
- reja bo'yicha kredit miqdorini aniqlash.

Obyektlar bo'yicha kreditlar cheklanmagan tarzda berilib, ularning miqdori kreditlash shartlariga rioya qilish bilan bog'liqdir. Kreditni maqsadli yo'naltirishini ta'minlash uni o'z vaqtida qaytarilishi uchun real shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bu tamoyilga rioya qilish bank muassasalari tomonidan qarz oluvchi korxonalarining hisobotlari asosida tekshiriladi.

Kreditlashning to'rtinchi tamoyili - olingan kredit uchun haq to'lash tamoyili. Bunda shartnomaga ko'ra kreditor korxonaga o'z ehtiyoji uchun kreditga olgan pul mablag'laridan vaqtincha foydalanilganligi uchun bankka belgilangan haqni to'lashi lozim. Amaliyotda bu tamoyilning realizatsiyasi bank foizi mexanizmi orqali amalga oshadi. Bank foizi stavkasi bu kreditning narxidir. Kredit uchun haq to'lash korxonalarini xo'jalik hisobidan, shu jumladan resurslarning ko'payishiga hamda jalb etilgan mablag'lardan foydalanishga ta'sir etadi. Bank tashkilotlari kredit foizi hisobidan o'z xarajatlarini qoplaydi. Kredit uchun haq to'lash tamoyili qarzga olingan mablag'lardan unumli foydalanish va kreditni qaytarishning muddatini tezlashtirish maqsadida korxonaga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish vositasidir. Bank foizi kredit turlariga qarab turlicha belgilanadi. qaytarilish muddati o'tib ketgan kreditlar uchun oshirilgan miqdorda foiz olinadi. Bu esa qaytarish muddati shartlariga qat'iy ravishda rioya qilishga yordam beradi. Korxonalar kredit yordamida xo'jalikda yetishmagan mablag'larni qarzga olingan mablag'lar hisobidan qoplash, ish haqini o'z vaqtida berilishini ta'minlash va boshqa tadbirlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kredit xo'jalik subyektlari o'rtasidagi hisob-kitoblarni tezlashtiradi, ishlab chiqarishning o'zluksizligini ta'minlaydi. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarishni kengaytirish, rentabilligini oshirish, iqtisodiyotda pul jamg'armalarini ko'paytirish, turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil korxonalarining ko'payishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tilishi bilan moliya, kredit siyosatini bozor talabini hisobga olgan holda shakllantirilganligi tufayli bozor iqtisodiyotining obyektiv shart-sharoitlari hamda o'ziga xos-xususiyatlarini e'tiborga olgan holda kredit mablag'lari asosan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga yo'naltirildi. Bular respublikamiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, "O'zDEU" avtomobil zavodi va mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi bir qancha yirik qurilish obyektlaridir.

Ssuda shaklidagi qisqa muddatli kreditlar quyilmasi bir qancha tarmoqlarga yo'naltirildi. Buning natijasida ishlab chiqarishda rivojlanish yo'z berdi.

Ana shu tarmoqlar ishlab chiqarayotgan tovarlar, mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar ichki bozorning talabini toboro qondirishiga olib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyotidagi ijobiy o'zgarishlar ko'p jihatdan pul kredit siyosatini

hayotga to'g'ri tadbiq qilinishiga bog'liq. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Naqd pul va kredit emissiyasining o'sishiga aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali vazifaga aylanmoqda.

Ajratiladigan pul miqdorining qaytarilishi mahsulot tayyorlashning o'sishini ta'minlamagan korxonalariga kreditlar berilishiga yo'l qo'ymaslik uchun imkoni boricha barcha choralarni ko'rish lozim".

Haqiqatdan ham barcha turdagi kreditlar ssuda fondidan beriladi. Ssuda fondi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini kredit bilan ta'minlash maqsadida bank foydalana olishi mumkin bo'lgan kredit resurslari yig'indisidir.

## **14.2. Ssuda fondi kredit resurslari yig'indisidir**

Hozirgi sharoitda ssuda fondi iqtisodiyotni kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va mamlakat uchun kredit resurslari yig'indisi bo'lib xizmat qilayotganligini e'tiborga olish lozim.

Ayni paytda kreditning turli-tuman shakllari amal qilmoqda, jumladan bank krediti - kreditning bu shakli kredit munosabatlari bevosita banklar va korxonalar o'rtasida o'tatiladi. Bank kreditining o'ziga xos-xususiyatlari uning qat'iy maqsadli va muddatli xarakterdaligidir. Bu turdagi kreditning subyektlari sifatida bir tomondan korxonalar, tashkilotlar va aholi zayomchilar sifatida, ikkinchi tomondan bank kreditor sifatida maydonga chiqadi. Mamlakatimizdagi barcha banklar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tobe bo'lib, uning kredit resurslaridan vaqtincha foydalanish huquqiga egadirlar. Markaziy bankning kredit resurslariga quyidagilar kiradi:

- markaziy bankda yo'zaga kelgan ustav, rezerv va boshqa fondlarning mablag'lari;
- respublika jamg'arma bankidagi pul omonatlari;
- respublika tijorat banklarining o'tkazgan majburiy ajratmalaridan tashqari qo'shimcha ravishda o'tkazgan omonatlari;
- boshqa mamlakatlar banklari va hukumatlarning omonatlari;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ustavida ko'zda tutilgan boshqa mablag'lar.

Bank krediti foydalanish davriga ko'ra qisqa, o'rta va o'zoq muddatli kreditlarga bo'linadi. qisqa muddatli kredit bir yil muddatgacha berilib, korxonaga aylanma kapitalini shakllanishi va harakati uchun xizmat qiladi. qisqa muddatli kredit korxonaga aylanma fondining shakllanishiga, hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishiga ta'sir etadi va xo'jalik organini to'lovga qobiliyatligini oshirib, moliyaviy holatini mustahkamlaydi. Bu kredit quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- ishlab chiqarish va mahsulotni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan mavsumiy xarajatlar uchun;
- yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish bilan bog'liq xarajatlar uchun;
- mahsulotni yetkazib beruvchilar bilan bo'ladigan va boshqa talablar bilan

bog'liq hisob-kitoblar uchun;

- korxonada yetishmagan aylanma mablag'larni vaftinchalik qoplash uchun; qisqa muddatli kredit bilan birgalikda o'rta va uzoq muddatli kreditlar investitsiyalarga bo'lgan talablarni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bu mablag'lar kapital quyilmalar sifatida yangi ishlab chiqarish obyektlarining qurilishi, yangi texnologiyani joriy qilish va xarajatlarini 3-5 yil davomida qoplash uchun yo'naltiriladi.

Tijorat krediti deganda sotuvchilarni iste'molchilarga tovar shaklida beradigan kreditlar tushuniladi. Tijorat krediti quyidagi usullarda beriladi:

- veksel usulida, bunda veksel orqali iste'molchiga shartnoma bo'yicha yetkazib berilgan tovar uchun xaridor belgilangan muddatda haq to'lashni o'z bo'yniga oladi;

- hisob raqamlari orqali iste'molchi tovar olishi uchun buyurtma bergandan so'ng tovar yuboriladi, to'lov kelishilgan tartibda to'lab beriladi;

- chegirma to'lash usulida iste'molchi to'lov xujjatlari tayyorlagandan boshlab, kelishilgan muddatda to'lovni amalga oshirgan taqdirda to'lov yig'indisidan chegirma beriladi. Belgilangan davrda to'lov amalga oshmasa, u holda kelishilgan muddatda to'lov to'liq amalga oshiriladi. Mavsumiy kredit ko'p hollarda bayramlarga bog'liq holda berilib, masalan yangi yil bayramlarida archa o'yinchoqlari, yangi yil sovg'alari nasiyaga olinib sotiladi, ammo ularning puli bayram o'tgandan so'ng to'lanadi.

Davlat krediti, bunda davlat zayomchi (qarz oluvchi) aholi esa kreditor (qarz beruvchi) sifatida maydonga chiqadi. Aholining pul mablag'larini jalb etish maqsadida davlat zayom obligatsiyalari chiqariladi. Bu obligatsiyalarning sotilishi natijasida banklardagi kredit resurslarining o'sishi ko'zatilmoqda. Davlat krediti subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslar va davlat hisoblanadi. Davlat o'z obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini xususiy, kooperativ korxonalarga va aholiga sotish orqali byudjet kamomadi bartaraf etiladi hamda inqirozning oldi olinadi. Davlat krediti joylashishiga ko'ra ichki va tashqi kreditga, muddati bo'yicha qisqa muddatli va o'zoq muddatli kreditga hamda foydaliligi bo'yicha yutuqli va foizli kreditlarga bo'linadi.

Davlat o'z ixtiyoridagi mablag'larga asoslangan holda bankda ssuda fondi tashkil etadi. Davlat xazinadan qarz berishi, ya'ni davlat byudjetidan korxonalar, firma va tashkilotlarga ularning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish uchun kredit berishi mumkin. Ayrim hollarda davlat tomonidan beriladigan kreditlar imtiyozli bo'lishi, gohida esa davlat o'zi bergan kreditlardan voz kyechishi ham mumkin. Davlat krediti orqali pul mablag'lari davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun to'planadi. Davlat krediti jamiyatda ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lib, u orqali jalb qilingan mablag'lar respublika byudjetiga kelib tushadi va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yo'naltiriladi. Natijada davlat krediti bo'yicha xarajatlarni qoplash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

Iste'mol krediti aholiga iste'mol tovarlari va xizmatlari uchun beriladigan kredit

hisoblanadi. Iste'mol krediti aholining zaruriy ehtiyojlarini ta'minlovchi vosita bo'lib, zayomchilar jismoniy shaxslar, kreditorlar - kredit muassasalari, korxonalar va tashkilotlar sifatida faoliyat yuritadi. Iste'mol krediti pul yoki tovar shaklida bo'lishi mumkin. Iste'mol kreditini berish va qaytarilishi naqd pulsiz yoki pulli tarzda amalga oshadi. Jamiyatda iste'mol kreditining berilishidan maqsad, aholini moddiy va manaviy ehtiyojlarini tobora to'laroq qondirishdan iborat. Iste'mol kreditining obyekti bo'lib, asosan eng zaruriy mulk hisoblanadi (avtomashina, uy-joy va boshqalar).

Banklararo kredit, bu ikkita bank o'rtasidagi munosabat bo'lib, bo'sh kredit resurslari bo'lgan bank kredit resurslari yetishmayotgan bankga kredit beradi. Shartnomaga ko'ra belgilangan muddatda zayomchi (kredit olgan bank) kreditorga (kredit bergan bank) kreditni foizi bilan qaytarib berishi lozim. Xo'jaliklararo kredit, bu kreditning yangi shakli sifatida keyingi yillarda qo'llanilmoqda. Bunda kredit munosabatlarining subyektlari sifatida bir-biriga mablag'larini qarzga beruvchi turli korxonalar va tashkilotlar ishtirok etadi. Kreditning bu shakli tijorat kreditiga o'xshash bo'lib, lekin qarz pul mablag'lari ko'rinishida berilishi bilan farq qiladi.

Bunda ssudalarning korxonalar xo'jaligida vaqtincha moliyaviy qiyinchiliklarga bo'lganda, hamkorlikdagi dasturlarni bajarish, korporatsiyalarni o'z korxonalariga moliyaviy yordam ko'rsatish va boshqa maqsadlar uchun beriladi.

Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarda qo'llaniladi. Xalqaro kredit tijorat (ferma), bank va davlatlararo kreditlarga bo'linadi. Xalqaro kredit berilishida subyektlar sifatida tijorat banklari, davlatlar, hukumatlar hamda moliya kredit tashkilotlari ishtirok etadilar.

Tijorat krediti fermalar tomonidan turli tijorat strukturalariga tovar shaklida beriladi.

Bank krediti davlatlar, hukumatlar tomonidan pul ko'rinishida beriladi. Xalqaro kredit xalqaro Valyuta fondi, Jahon tiklash va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banki va boshqa moliyaviy tomonlardan beriladi. Bank foizi yoki ssuda foizi kreditorni zayomchidan (qarz oluvchi) zayom mablag'laridan foydalanganligi uchun olinadigan haq hisoblanadi. Ssuda foizi berilgan qarzni miqdoriga ko'ra belgilanadi. Ma'lumki, xalqaro kreditlarning foiz stavkalari jahon ssuda kapitali bozorida aniqlanadi. Foiz stavkasi berilgan kreditning so'mmasini hisobga olgan holda belgilangan qarz (ssuda) foizidir. Ssuda kapitali bozorlari asosan London, Parij, Frankfurt-na Mayne, Nyu-York, Tokio, Bryussel kabi yirik shaharlarda joylashgan. Berilgan kreditlar uchun olinadigan foiz miqdori yaratilgan qo'shimcha mahsulotning yoki kredit oluvchi olgan kredit mablag'ini ishlatib topgan daromadning ma'lum qismi hisoblanadi. Kreditor mablag'ining egasi sifatida mablag'idan boshqalar foydalanganligi uchun ulardan haq (ssuda foizi) talab huquqiga ega. Ssuda foizi darajasiga pul bozorida talab va taklif, olingan ssudaning iste'mol qiymati, qarzni to'lash muddati va sharti kabi omillar ta'sir etadi. Umuman olingan ssuda foizi bilan muddatida o'z egasiga qaytarilishi shart hisoblanadi.

### 14.3. Ssuda kapitali bozorini rivojlantirish yo'nalishlari

Jahon moliya bozorida ssuda kapitalining ro'li juda katta bo'lib, u ikki sektorga bo'linadi, ya'ni jahon pul bozoriga va jahon kapital bozoriga. Ssuda kapitali bozori moliya bozorining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bu bozorda ham professional qatnashuvchilar ishtirok etib, kreditorlar va zayomshiklar o'rtasida vositachilik ishlarini olib borishadi. Bu yerda Transnatsional banklar, moliyaviy kompaniyalar, fond birjalari va boshqa moliya, kredit tashkilotlari ishtirok etishadi.

O'z navbatida bo'larning asosiy vazifasi asosan dunyo kapital bozoriga kelib tushuvchi mablag'larni (moliyaviy institutlardan, xususiy firmalardan, banklardan, sug'urta kompaniyalaridan, pensiya fondlaridan) yig'ishdan iborat. Ayni paytda bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda eksport salohiyatini o'stirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, horij valyutalarini kelib tushishini ta'minlash, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirib, dunyo bozori bilan bog'lash hamda davlatimizga qo'shimcha resurslarni olib kelish, ular bilan foydali bitimlar tuzish orqali respublikamizning rivojlanishiga hissa qo'shishdan iboratdir.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo'lib, respublikamizda millatimiz uchun iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun xorij mamlakatlari bilan qisqa va o'zoq muddatli shartnomalar tuzish asosida yirik kapital quyilmalarini kirib kelishini ta'minlashdan iborat. Ma'lumki, respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozori davlat korxonalarini xususiyashtirishning boshlanishi bilan shakllandi. Bu bozor birlamchi va ikkilamchi bozorga bo'linadi. Birlamchi bozor qaytadan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni egalari sotish orqali amalga oshadi. Bu bozorda davlatni va munitsipal obligatsiyalari sotiladi hamda turli-tuman aksionerlik jamiyatlarining aksiyalari ham sotiladi. Bu bozorning investorlari investitsiya banklari, investitsiya fondlari, tijorat banklari, investitsiya kompaniyalari, investitsiya institutlari, sug'urta kompaniyalari, turli fondlar hamda moliya, kredit ishtirok etadi.

Ikkilamchi bozor ham egasi mavjud qimmatli qog'ozlarni talab va taklifdan kelib chiqqan holda, ularni sotishni va sotib olishni ta'minlab beradi. Bu yerda sotuvchi va xaridor uchrashib, bo'sh kapital iqtisodiyotning eng ustuvor yo'nalishlariga jalb qilinadi.

Ikkilamchi bozorning o'ziga xos xususiyati, tovarning likvidlikka ega bo'lishi va qimmatli qog'ozlar kursini sezilarli o'zgarishi sharoitida kam xarajat bilan oldi-sotdiga jalb qila olishdir. Jahon tajribasidan ma'lumki, birlamchi bozor, ikkilamchi bozorga nisbatan tezroq rivojlanish tendensiyasiga ega. Ikkilamchi bozor ikki xil ko'rinishda amal qilishi ham mumkin. Uning birinchi ko'rinishi birjaviy bozordir. Ikkinchi ko'rinishi nobirjaviy bozor shaklida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

#### Qisqacha xulosalar

Ssuda kapitali moliya bozorining ajralmas tarkibiy qismidir. Ssuda kapitali o'zining faoliyatiga ko'ra pul bozoriga va kapital bozoriga bo'linadi. Pul bozorida aylanma kapital harakatiga xizmat ko'rsatiladi. Bu jarayon o'z navbatida qisqa muddatli xarakterda amal qiladi. Kapital bozori o'zining xarakteriga ko'ra asosiy kapitalning

harakatini faollashtirish va ishlab chiqarishni kengaytirishni nazarda tutadi.

Ssuda kapitali bozorida kredit muhim vazifani bajaradi. Ssuda fondi iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlashda kredit resurslari yig'indisi sifatida amal qiladi. Kreditlarning juda ko'p shakllari mavjud bo'lib, ularning ichida eng asosiylari:

- bank krediti;
- tijorat krediti;
- davlat krediti;
- iste'mol krediti;
- banklararo kredit;
- xalqaro kredit va hokazolar.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Ssuda kapitali nima?
2. Ssuda bozorichi?
3. Uzoq muddatli kapital bozori.
4. Pul bozori.
5. Kapital bozoriga ta'rif bering.
6. Bank krediti nima?
7. Tijorat krediti nima?
8. Davlat krediti.
9. Iste'mol krediti.
10. Xalqaro kredit.

### **Asosiy adabiyotlar**

2. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократиялаштириш ва янгилash, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир. -Т.: 2005 йил, 28 январь.

3. Ахунова Г.Н., Боев Х.И. Иқтисодийни модернизациялаш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш. -Т.:

4. Фуломов С.С., Боев Х.И. Валюта, молия, кредит, банк ва сугурта муоммалари.- Т.: ТДИУ.2001.

5. Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. –Т.: 2001.

6. Торкановский В.С. Рынок ценных бумаг и его финансовые институты. Санкт-Петербург АО «Комплект» 2004.

[www.mf.oz](http://www.mf.oz) – O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;

[www.gov.oz](http://www.gov.oz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;

[www.budgetrf.ru](http://www.budgetrf.ru) – Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi;

[www.edu.oz](http://www.edu.oz) - O'zbekiston Respublikasi

[www.google.ru](http://www.google.ru) - Rossiya Federatsiyasi qidiruv sayti;

[www.finansy.ru](http://www.finansy.ru) – «Финансы» jumalining sayti;

[www.glossary.ru](http://www.glossary.ru) – Iqtisodiy terminlar;

[www.books.ru](http://www.books.ru) – Kitoblar dunyosi;

[www.refefat.ru](http://www.refefat.ru) – Referatlar to'plami.

## XV BOB QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI BITIMLAR VA HISOB- KITOBLAR

### 15.1. Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi shartnomasini tuzish

Prezident I.A. Karimovning 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi "Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim" degan ma'rzasida ta'kidlab o'tdiki: "Har bir korxonada va obyektning birja va birjadan tashqari savdoda sotish uchun tayyorlash mexanizmini qayta ko'rib chiqish lozim. Bu borada yangi, samarali tizimni joriy etish, xususiyashtirishdan keyingi monitoringni amalga oshirishda tizimli yondashuvni ishlab chiqish, yangi mulkdorlarning o'z zimmasiga olgan investitsiya majburiyatlarini bajarish uchun ularning iqtisodiy mas'uliyatini oshirish zarur".

Respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozori boshqariladigan bozor bo'lib, bu yerdagi oldi-sotdi jarayonlari tartibga solinadigan bitimlar asosida amalga oshirilayotganligi bilan respublikamizda xususiyashtirishni va iqtisodiyotni libirelizatsiyalashtirishga o'z hissasini qo'shmaqda.

Agar fond bozorini rivojlanishining dastlabki bosqichlarida qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisiga e'tibor beradigan bo'lsak, u davrda bozor tartibsiz xususiyatga ega edi. Bunda qimmatli qog'ozlar xaridordan sotuvchiga va qimmatli qog'ozlar yoki ularning sertifikatlarining xaridorga o'tishi tadbirlarini belgilovchi aniq qonun-qoidalarining yo'qligi tufayli bu holat mavjud edi. Bozor munosabatlarini rivojlanib borishi natijasida qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha shartnomalar imzolanadigan va bitimlar tuzishning yo'lga qo'yilganligi tufayli qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi tartibga tushirildi. Agar bitimlarsiz oldi-sotdi jarayonlari amalga oshadigan bo'lsa, qimmatli qog'ozlar bilan turli nayranglar, tovlamachiliklar sodir bo'lishi va mijozlarning o'zlarini majburiyatlarini jazo chorasiz bajarmasligiga olib kelishi mumkin edi. Bu jarayon qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga salbiy ta'sir qilar, xaridorlarning imkoniyatlarini cheklar, hattoki ularning ishonchlarini ham yo'qolishiga olib kelar edi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar avvalo, bitimlarni maqbul holatga keltirishi tufayli va bitimlarni bajarishning majburiy bosqichlarini ishlab chiqish zaruriyatga aylandi. Buning uchun quyidagilarga alohida e'tibor berilishi kerak:

- avvalo, har qanday qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan oldi-sotdi jarayoni shartnoma asosida amalga oshishi;
- bitim bo'yicha yo'z bergan jarayonlar taqqoslanishi;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olishga pul to'lovini kelishuv asosida amalga oshirish;
- bitim ijrosi oldidan kliringni qo'llash.



Ma'lumki qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha shartnoma qimmatli qog'ozlarni dividend ko'rinishida yoki kurs qiymatining o'sishidan daromadlar olish maqsadida ularga egalik qilish uchun ilgari harid qilgan shaxslar o'rtasida to'zilishi mumkin. Amaliyotda qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha professionalar orasida ham tuziladi, masalan brokerlar, dillerlar o'rtasida tuzilishi mumkin. Bu yerda brokerlar shartnoma asosida vositachi yoki ishonch bildirilgan shaxs sifatida qatnasha huquqiga ega. Bunda broker topshiriq bo'yicha gohida mijoz nomidan emas, balki, o'z hisobidan harakat qiladi.

Shartnomada qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari, qimmatli qog'ozlarning egalari, agar qimmatli qog'oz boshqa shaxsga o'tkazilayotgan bo'lsa, qimmatli qog'ozlarga egalik qilish huquqi ularning yangi egasiga oldi-sotdi shartnomasi tuzilayotgan paytda emas, balki faqatgina uning bajarilish vaqtida o'tadi. Bungacha bitimning hamma boqichlarida o'tkaziladigan qimmatli qog'ozlarning egasi sotuvchi bo'lib qoladi. Ayni paytda bu holat qimmatli qog'oz bilan bitim tuzish va uni bajarish orasidagi davrda dividendlarni to'lashga to'g'ri keladigan vaqtda alohida dolzarblik kasb etadi. Jumladan, mazkur qimmatli qog'ozning o'zi bilan navbatdagi begonalashtirishga doir keyingi operatsiya amalga oshirila boshlaydi. Ayni paytda dividendlar olish huquqlari va qimmatli qog'ozlarga egalik qilishdan kelib chiqadigan boshqa huquqlarga sotuvchi egalik qilishi davom etadi.

Amalga oshiriladigan shartnoma bo'yicha ko'rsatkichlarni taqqoslash, bu shartnomaning ikkinchi bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichning vazifasi ishtirokchilarga shartnomaning mazmunini, mohiyatini tushunishdagi barcha tasodifiy ixtiloflarni tartibga solish imkoniyatini berishdan iboratdir. Bunday shartnomalar og'zaki yoki yozma xatlar almashuvi yo'li bilan tuziladigan bozorlar uchun juda muhimdir. Shu bosqichda shartnomadagi ayrim farqlarni boshqacha tushunish texnik xatolarga ham yo'l qo'yish ehtimoli mavjuddir.

Ikkinchi bosqichda foydalanadigan maxsus ma'lumotnoma va xujjatlarni rasmiylashtirish qimmatli qog'ozlar bozorida muntazam amalga oshadi.

Ko'p birjalarda bunday xujjatlar bilan almashish bevosita tomonlar tomonidan amalga oshirilmay balki, taqqoslash uchun maxsus mo'ljallangan tizim orqali tashkil etiladi. Xuddi shunday tizim vazifasini fond birjasining ma'lum bir tarkibiy to'zilmasi yoki birja bilan harakat qiluvchi hisob-kitob kliring tashkiloti bajarishi mumkin. Bu bosqichda konteragentlar o'zlarining birinchi bosqich yakunlariga ko'ra rasmiylashtirilgan ichki xujjatlarni konteragentdan olingan xujjatlar bilan solishtiradi. Mabodo bunda tafovutlar aniqlanmasa, taqqoslash ishlari amalga oshirilgan hisoblanadi. Agarda taqqoslash amalga oshirilmasa tomonlar uning mohiyatini noto'g'ri tushungan holda bitim bo'yicha majburiyatlarni bajarish bosqichiga o'tgandan keyin kutilmagan to'siqlarga duch kelishlari mumkin. Odatda ikki tomon bir-biriga ishonch bilan yondoshganda:

- umumiy yagona shartnomani imzolash bilan yozma shaklda kelishish mumkin;
- zamonaviy kompyuterli birja tizimlarida, u yerda bitimni terminaldan kiritish bir vaqtning o'zida taqqoslash uchun rozilik hisoblanadi.

Taqqoslash bosqichida “sakrab o‘tuvchi” bunday bitimlar “qayd etilgan bitimlar” deb nomlanadi. Yuqoridagi xujjatlar ikkinchi bosqichning yakuniy xujjatlari bo‘lib, yana shu qo‘llaniladigan texnikaga qarab taqqoslashning tugallanganligini tasdiqlovchi konteragentdan olinadigan yozma xatlar, teleks va faks bomalari, maxsus taqqoslash tashkilotidan olinadigan kompyuter fayllari yoki yozma xujjatlar (taqqoslash varaqlari) bo‘lishi mumkin. Mazkur xujjatlar, odatda, bitim ishtirokchilariga beriladi. Ular bitimning keyingi bosqichlarini o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

## 15.2. Kliring hisob-kitoblarining zarurligi

Jahon tajribasidan ma‘lumki, qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi kliring bilan ham bog‘liq bo‘lib, agar kliringga ta‘rif beradigan bo‘lsak: Kliring bu taqqoslash tugagandan so‘ng boshlanadigan va bitim ijrosi oldidan tugallanadigan tadbirlar majmuidir. Kliring bosqichi ikki tadbirdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardir:

- yakuniy taqqoslash xujjatlarini rasmiylashtirishning haqqoniyligi va to‘g‘riligini tahlil qilish tadbiri. Mabodo taqqoslash bosqichi kompyuter faylini shakllantirish bilan tugallansa, u holda kliring shifrlash kalitini tekshirish va qabul qilinadigan axborotning himoyalanihidan boshlanadi;

- o‘tkazilishi lozim bo‘lgan pul so‘mmalarini va bitim yakuniga ko‘ra yetkazib berishi kerak bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar miqdorini hisoblash tadbiri. Harid qilingan qog‘oz uchun to‘lov so‘mmasidan tashqari qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarga solinadigan soliq (agar u mazkur mamlakatda joriy etilgan bo‘lsa), birja yig‘imlari brokerlar uchun vosita haqlari va hokazolar to‘lanishi lozim. Turli bitimlar bo‘yicha vujudga kelgan va bir vaqtning o‘zida bajarilishi kerak bo‘lgan qarshi talablarning o‘zaro hisobga olinishi ham qo‘llanishi mumkin.

Shuni ta‘kidlash kerakki, oldi-sotdi bitimlarini tuzayotgan ikkala konteragent ham ma‘lum huquq va majburiyatlarini qo‘lga kiritadi. Haridor, masalan sotuvchiga nisbatan unga tegishli bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar miqdorini yetkazib berishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi va, shu bilan birga, tegishli pul so‘mmasini to‘lash majburiyatini oladi. Sotuvchi esa, qimmatli qog‘ozlarni yetkazib berishga majbur bo‘ladi va unga to‘lanishi lozim bo‘lgan pul so‘mmasini talab qilish huquqini qo‘lga kiritadi. Natijada sotuvchi va xaridor bir-biriga nisbatan bir vaqtning o‘zida ham kreditor, ham qarzdor bo‘ladi. Faqat bitimning yakuniy bosqichida ularning majburiyatlari bajariladi va talablari qondiriladi. Kliring bosqichida ularning o‘zaro talab va majburiyatlari belgilanadi hamda hisoblab chiqiladi. Hisoblab chiqish tadbiri - bu kliringning butun bosqichidagi eng muhim jarayondir. To‘lanishi lozim bo‘lgan so‘mmalari va yetkazib berilishi kerak bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar miqdorini hisoblashning bir necha usullari mavjud. Hisoblashning aniq usuli va tadbirini belgilab beruvchi asosiy omil bu qarshi talablar o‘zaro hisobga olinishini tashkil etishning tanlangan usulidir.

Ma‘lumki, har bir bitim boshqa bitimlardan alohida u tuzilgan ko‘rsatkichlarga to‘liq mos kelsa bajariladi. Bunday vaziyatda kliring bosqichida sotuvchi uchun har

bir aniq bitim bo'yicha u yetkazib berishi lozim bo'lgan qimmatli qog'ozlar miqdori va unga to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari so'mmasi, turli yig'im va soliqlar chiqarib tashlangan holda hisoblab chiqiladi. Xaridor uchun har bir alohida bitim bo'yicha unga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarning miqdori va u konteragent to'lashi lozim bo'lgan pul mablag'lari so'mmasi, turli soliq va yig'implar qo'shilgan holda hisoblanadi. Bu hisoblab chiqishning ancha oddiy usulidir.

O'zaro hisobga olish (qarz surishish) jarayoni kechayotgan davrda kliring ancha murakkablashadi. qarshi talablarning o'zaro hisobga olinishi deyarli har bir zamonaviy birjada birja a'zolari tomonidan to'zilatigan bitimlar bo'yicha to'lovlar va qimmatli qog'ozlar yetkazib berilishining miqdorini kamaytirish uchun qo'llaniladi, chunki qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir kunlik aylanma yo'z minglab bitimlarni tashkil etadigan va bir savdo vaqtida o'n millionlab qimmatli qog'ozlar sotiladigan va harid qilinadigan yirik fond birjalarida bunday bitimlarni "birga bir" amalga oshirish samara bermaydi. Birja savdolarining yakuniga ko'ra to'lov operatsiyalari miqdorini kamaytirish va ularni amalga oshirish algoritmini osonlashtirish uchun bunday vaziyatlarda o'zaro hisobga olish jarayoni qo'llaniladi. U kliring tadbirining birmuncha murakkablashuviga qaramay, bitimlar ishtirokchilarining har bir aniq bitim bo'yicha to'lovlar va yetkazib berishlarni alohida amalga oshirish uchun qo'shimcha hamda boshqa xarajatlar bilan potentsial chiqimlariga qaraganda markazlashtirilgan kliring tizimini tashkil etish xarajatlarini ancha kamaytiradi.

O'zaro hisobga olish ikki tomonlama va ko'p tomonlama bo'lishi mumkin.

Ikki tomonlama o'zaro hisobga olish, u kamdan-kam hollarda, asosan birjadan tashqari bozorda bir-biriga ishonadigan tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda, shuningdek, ishtirokchilarining soni va aylanma mablag'lari kam bo'lgan uncha katta bo'lmagan fond birjalarida (rivojlanayotgan mamlakatlar birjalarida) qo'llaniladi. Bunda muayyan vaqt davridagi barcha bitimlar hisob-kitobga kiritilganidan so'ng bir konteragentning boshqasiga sof qoldig'i belgilangunga qadar (bitim kontragentlarining har bir jufti bo'yicha) bir kontragentning talablari boshqa kontragent talablaridan just-just qilib chiqariladi. Bunday hisoblab chiqish pul mablag'lari bo'yicha ham, qimmatli qog'ozlar bo'yicha yoki qimmatli qog'ozlarning har bir turi bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda pulni o'zaro hisobga olish usuli qimmatli qog'ozlar bo'yicha o'zaro hisobga olish usuli bilan mos kelmasligi mumkin. Shartnomaning mazkur tadbiri yakunida tomonlardan har biri o'z majburiyatlarini bajarishga va o'z talablarini qondirishga majbur.

Ko'p tomonlama o'zaro hisobga olish ikki xilga bo'linadi: kliring tashkilotining hisob-kitoblarda tomon sifatidagi ishtirokisiz va ana shunday ishtiroki bilan. Ushbu ikkala xilning istalgan turida hisoblab chiqish (ikkinchi kliring tadbiri) kliringning har bir ishtirokchilari bo'yicha uning belgilangan davrdagi hisob-kitobga kiritilgan barcha bitimlarga doir sof talablari yoki sof majburiyatlarini hisoblashdan boshlanadi. Mazkur ishtirokchining barcha talablaridan uning barcha majburiyatlari chiqariladi va shu tariqa sof qoldiq aniqlanadi, u "mavqe", deb nomlanadi. Agar qoldiq nolga

teng bo'lsa, mavqe "yopiq", bordi-yu qoldiq noldan farq qilsa, mavqe "ochiq" bo'ladi. Musbat qoldiqqa ega bo'lingan hollarda, ya'ni ishtirokchi talablarining hajmi uning majburiyatlaridan yuqori bo'lsa, unda "uzun mavqe" ochilgan hisoblanadi.

### 15.3. Pul to'lovi qimmatli qog'ozlarning muqobil o'tkazilishini ta'minlash

Qimmatli qog'ozlar bozorida yuqorida qayd etilgan talablar bajarilgandan keyin shartnomaning to'rtinchi, ya'ni so'ngi bosqichida ijro etilishi uchun pul to'lovini amalga oshirgan xaridor qimmatli qog'ozlarni yetkazib berilishiga kafolat oladi. Pul to'lovi shartnoma ishtirokchilari tanlagan pulli hisob-kitoblar tizimi bilan amalga oshiriladi. qimmatli qog'ozlarni yetkazib berish esa tanlab olingan tizim orqali amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bitimni ijro etish kuni oldida oldi-sotdi shartnomasini tuzish vaqtida belgilanadi. Ko'pincha vositachilar bitimni tuzish va ijro etish o'rtasida shunday muddatni belgilashadiki, u barcha ijro etiladigan qoidalarga mos holda aniqlanadi. Birja bozorining o'zida tuziladigan bitimlar ham barcha bosqichlardan o'tishining qat'iy belgilangan jadvaliga ega bo'lishi shart. Agar bitim mazkur bozordagi bitimlar ijrosining barcha mumkin bo'lgan standart muddatlaridan eng qisqa muddatda ijro etilsa, u holda gap "kassa bitimi" yoki "spot" haqida boradi. Frankfurt fond birjasida bitim u tuzilgandan keyin ikkinchi ish kunidan avval bajarilishi mumkin emas. Nyu-York fond birjasi uchun ko'pchilik kassa bitimlarining ijro etilishi muddati - ular tuzilgandan so'ng besh ish kuni, agar ijro etish muddati qaysidir bozorda kassa bitimini ijro etish uchun zarur bo'lgan eng kam (minimal) muddatdan ko'p bo'lsa, u holda bu "muddatli bitim" yoki "forward" deyiladi.

Bitimlarni tuzish sanasi va ijro etish sanasi o'rtasidagi muddatni belgilanishini ikki asosiy usuli ma'lum. Birinchi usul faol bo'lmagan bozorlarda, shuningdek, endigina rivojlana boshlagan yirik bozorlarda qo'llanilgan (Buyuk Britaniya). Mazkur usulga binoan muayyan vaqt davri belgilangan (masalan, ikki hafta), ushbu vaqt mobaynida ushbu davr yakunlanganidan so'ng ma'lum kunlardan keyin (faraz qilaylik, yetti taqvim kunidan so'ng) keladigan belgilangan kunda ijro etilishi lozim bo'lgan bitimlar to'ziladi.

Ikkinchi usul hozirgi vaqtda deyarli barcha birjalarda va birjadan tashqari bozorning aksariyat tizimlarida qo'llaniladi. Birinchi usuldan uning farqi shundaki, bitimni tuzish davrida bir kungacha qisqartirilgan, ya'ni bitim bir kunda tuzilishi mumkin. Shunday qilib, bir ish kuni ichida tuzilgan bitimlar aniq belgilangan ish kunlaridan keyin keladigan ayrim sanada bir vaqtning o'zida bajarilishi belgilanadi. Masalan, dushanba kuni tuzilgan bitimlar qaysidir bozorning qoidalariga ko'ra keyingi dushanba kuni ijro etilishi lozim, ya'ni besh kundan so'ng. Bunday holatda bitimlar "TQ5" kunida bajariladi deyiladi. Ushbu qoida bo'yicha seshanba kuni tuzilgan bitimlar keyingi seshanbada ijro etiladi. Aynan mazkur usul xalqaro qoidalar va andozalar tomonidan barcha zamonaviy fond bozorlarida joriy etilishi uchun tavsiya qilinadi.

Bitimni ijro etishning boshqa muhim qoidasi "To'lovga qarshi yetkazib berish" deb nomlanadi. Bu qoida u bo'yicha ijro etish bosqichini tashkil etuvchi ikki

muvoziy (paralel) jarayonning - pulli to'lovlar va qimmatli qog'ozlarni yetkazib berish jarayonlarining tamoyillariga tegishlidir. Nazariy jihatdan olib qaralganda bu holatlar uchta bosqichda bo'lishi mumkin:

- xaridor sotib olingan qimmatli qog'ozlarni sotuvchi pulni olishdan avval sotadi;
- sotuvchi pulni xaridor o'zi sotib olgan qimmatli qog'ozlarni olishidan avval oladi;
- ikkala jarayon ham bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

Har ikkala holatda ham bitimda ishtirok etayotgan tomonlardan biri ustun, ikkinchisi esa, siqib qo'yilgan vaziyatda bo'ladi. Bitimning ijrosi ikkala tomondan ham majburiyatlarning qarshi bajarilishini nazarda tutadi.

